Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ADABIYOT

O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

Birinchi nashr

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

II QISM

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent–2017

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

UO‘K: 821=512.133(075.3)
KBK: 83.3(5O‘)ya721
A 29

**Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov,
Komila Usmonova**

Taqrizchilar:
N. Rahmonov – *filologiya fanlari doktori, professor*;
M. Valiyeva – *Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 274-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*.

A 29 **Adabiyot** [Matn]: darslik-majmua / B. To‘xliyev [va boshq.], – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.

ISBN 978-9943-07-535-1

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
mablag‘lari hisobidan chop etildi.**

**UO‘K: 821=512.133(075.3)
KBK: 83.3(5O‘)ya721**

ISBN 978-9943-07-535-1

© B. To‘xliyev va boshq.
© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY
(1875–1919)

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Mahmudxo‘ja to-g‘asi Muhammad Siddiqning tarbiyasini olgan. Arab tili gram-matikasini kichik tog‘asi Mulla Odildan o‘rgangan.

Behbudiy 1899–1900-yillarda hajga boradi; 1903–1904-yil-larda Moskva, Peterburgga hamda 1906-yili Qozon, Ufa, Nij-niy Novgorod, Misr va Turkiyaga safar qiladi.

Behbudiy XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘rin-ga ega. Uning hayoti va ijodiy faoliyati jamiyat hayotidagi jiddiy o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keldi. Behbudiy Turkistonda maktab va maorif, matbuot va teatr, jurnalistika sohalarda ijti-moiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy faoliyat olib bordi. Qishloqlarda tashkil qilingan maktablar uchun bir qancha darsliklar yozdi.

Behbudiy o‘z zamonasi yoshlariga murojaatida bunday yozadi: «Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, ma-kotib[1] – taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodat-ning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirib madaniyatdan foydalanmas»[2].

[1] M a k o t i b – maktablar.

[2] *Mahmudxo‘ja Behbudiy*. Tanlangan asarlar. – Toshkent: «Ma’naviyat» nash-riyoti, 1999, 176-bet.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Turkistondagi maktablar islohoti Behbudiy nomi bilan bog‘liq. Behbudiy yangi usuldagi maktablar tashkil etish ishida jonbozlik ko‘rsatadi. Tirikchilikka o‘zini urgan xalqni dunyoning eng ilg‘or millatlari qatoriga qo‘shish uchun maktablarning o‘zi kamlik qilar edi. Shu bois Behbudiy Samarqand shahrida 1913-yili «Samarqand» nomli gazeta va «Oyna» jurnalini nashr ettira boshlaydi. Ularda millat ahvoli, uning haq-huquqi, milliy til qadri, chet tillarini o‘rganish va tarix masalalariga doir maqolalar e’lon qiladi. Behbudiy o‘z davrida ziyolilarning yetakchisi, ma’rifat fidoyisi, millatparvar sifatida taniladi.

Butun umrini jaholat va zulmatni ilm-ma’rifat yog‘dusi bilan yoritishga bag‘ishlagan Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati bugungi yoshlarga o‘rnak bo‘lishga arziydi, albatta.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1919-yil 25-martda Shahrisabzda qatl etiladi.

PADARKUSH
yoxud o‘qimagan bolaning holi[1]

(*Turkiston maishatidan olingan ibratnoma*)

3 parda, 4 manzarali, milliy birinchi fojia.

Qatnashuvchilar:

B o y – 50 yashar.

T o sh m u r o d – boyning o‘g‘li, 15–17 yashar.

D o m l a – yangi fikrlik bir mulla, 30–40 yashar.

Z i y o l i – (ovro‘po libosida), o‘ruscha o‘qug‘on, millatchi musulmon.

X a y r u l l o – boyning mirza va mahrami, 18–20 yashar.

T a n g r i q u l – boyning qotili.

D a v l a t ila N o r (bo‘z bolalar) – kissalariga 4 so‘m qadar mayda kerak.

[1] Asar matni Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Tanlangan asarlar»i (Toshkent: «Ma’naviyat» nashriyoti, 1999) hamda filologiya fanlari nomzodi Shuhrat Rizayevning «Jadid dramasi» (Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 1997) kitobiga kiritilgan manba asosida berildi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

L i z a – rus xotini, qabiha shaklinda.

A r t u n – armani mayxonachi.

P r i s t u f – 2 politseyskiy, 2 qorovul, boyning 3 nafar erkak hamsoyasi.

B o y b u c h c h a – boyning xotini, 35–40 yashar.

Kerak nimarsalar:

Bir la'li shiravor, non, dasturxon.

Choynak, piyola, chilim.

Mehmonxonaga keraklik gilam, ko'rpa, yostiq.

Boyni(ng) yotoq asbobi va karavot.

Bir kaltak.

O'n shisha suv va kivas.

Besh-olti istakon.

Bir sanduq.

Bir hamyon, ichida pulg'a o'xshash nimarsa.

Bir katta pichoq.

Bir tapponcha.

Sanduqni ochaturgan temir asbob.

Mukammal pristuf libosi, 2 politseyskiy mukammal libosi, 2 qorovul kaltagi.

1 hushtak, 1 kanob, 1 qo'l kishani.

B i r i n c h i p a r d a

B o y mehmonxonada o'tirar X a y r u l l o ila.

D o m l a (*kirar*). Assalomu alaykum.

B o y. Vaalaykum assalom, marhamat qilsinlar (*turib muloqot qilib, domlaga joy ko'rsatib, o'ltirur*).

D o m l a. Boy davlatini, Ollohi taolo, mundan ham ziyoda qilgin (*fotiha qilur*).

B o y. Nafas(lar)i muborak, inshoolloh, duolari qabuldir.

D o m l a. Balli, juma oqshomi duoni qabul vaqtidir.

B o y. Xush keldilar, taqsir.

D o m l a. Salomat, salomat (*qo'lini ko'ksiga qilib*).

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

1, 2 и 3-го Іюня 1915 г.

ПАДАРКУШЪ

(ОТЦЕУБІЕЦЪ)

انجی ایبوندہ

پدر کش

(یاخود او غوملکان بالدنك حالی)

Behbudiyning «Padarkush» dramasi ilk sahifasi (1915)

B o y. Xayrullo! Choy va la'li keltur.

X a y r u l l o. Xo'p! (*Choy va la'li keltirar, choy suzar, alar tanovul aylar*).

T o sh m u r o d kirar, salomsiz, beadabona.

T o sh m u r o d. Ota, tomoshag'a boraman, pul bering.

B o y. O'g'lim, kim ila borasan?

T o sh m u r o d. Tursun akam ila.

B o y (*kissasidan pul berib*). Albatta, vaqtli kelinglar va yomon yerlarga bormanglar!

T o sh m u r o d. Xayr, xayr, hay ko'p gapirarsiz-da (*chiqib ketar*).

D o m l a B o y va T o sh m u r o d g'a badbinona boqib, boshini solar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

B o y. So‘zlashib o‘lturing, taqsir!

D o m l a. Xo‘b, xo‘b, boyvachcha katta bo‘lubdur. Xudo umr bersin, usuli jadida maktabigami o‘qiydur yoinki eski maktabga?

B o y. Ikkisiga ham bormaydur.

D o m l a. O‘z hovlingizda o‘qutaturgansiz?

B o y. Yo‘q, yo‘q. Men o‘g‘lumni o‘qutmoqg‘a o‘ylaganim yo‘q.

D o m l a. Ajoyib, sabab nedurki, o‘qutmaysiz? Vaholanki, o‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur.

B o y. Mani xayolimga dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga bo‘lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo‘lur. Chunonchi, biz ko‘rarmizki, odamlar boyni mulladan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko‘paydi. Katta boylar chilen bo‘lub, har kim chilenlarni izzat qilur, hatto ishi tushaturganlar chilen molini qimmat olur. Azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so‘ngra muomaladorlar sinib, mayda-mayda bo‘lur, bildingizmi?

D o m l a. Bu so‘zlaringiz hozirgi zamonaga ma’qul, lekin chilen va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni ko‘zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur. Mullani bo‘lsa, barcha xalq izzat qilur, ya’ni mullani ilmi izzat qilinadur.

B o y. Bizni ham boyligimiz izzat qilinadur. Hatto musulmonlar nari tursun, o‘rus va armanlar-da izzat qilur.

D o m l a. Izzatni nari qo‘yduk. Agarda o‘g‘lingizni o‘qutsangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchiligini yaxshi bilar va ham sizga savob bo‘lur.

B o y. Mirzalik oson, mana, Xayrulloga oyinda yetti so‘m beraman, kunduzlari mirzalik va oqshomlari mehmonxona ishini qilar va hatto uyqum kelguncha xodimlik qilar, kitob ham o‘qub berar.

D o m l a. Shariat ilmi va zaruriyati diniyani bilmoq uchun boyvachchani o‘qutmoq, albatta, sizga lozimdir.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

B o y. Shariat ilmini o‘qitmoqni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman. Azbaski, davlatim anga yetar.

D o m l a. Zarurati diniyaga ne dersiz?

B o y. Men o‘zim besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilurman. O‘zim o‘rgaturman.

D o m l a. Xat va savodga ne dersiz? Holbuki, savodi yo‘q odam hech nimaga yaramaydur.

B o y. Bu fikringiz g‘alat, chunki mani savodim yo‘q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman.

D o m l a. Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo‘lubsiz, ammo endi boy bo‘lmoq nari tursun, faqat ro‘zg‘or o‘tkarmoq uchun ham ilm kerak. Ko‘ramizki, yigirma-o‘ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo‘lig‘a o‘tdi. Muni sababi bizlarning o‘qumag‘animizdur. O‘qumagan boyvachchalarni ko‘ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor-u zor bo‘lur. Binobarin, o‘g‘lungizni o‘qutmoqni sizga taklif qilurman.

B o y. Hoy, domla! Siz manga tahqiqchimi? O‘g‘ul maniki, davlat maniki, sizga nima? O‘quganni biri – siz, yemoqg‘a noningiz yo‘q. Bu holingiz ila manga nasihat qilursiz. Xayrullo! Mehmonxonani qulfla, uyqum keldi.

X a y r u l l o la’li va asboblarni jamlab, muntazir turar.

D o m l a (*odamlarga qarab*). O‘qumoq va mulla bo‘lmoq uchun pul kerak. Badavlatlarimizni holi bul. Bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo‘lurmiz. O‘qumoq barcha musulmonga, erkak va yo xotin bo‘lsun, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga! (*Boyga qarab*). Boy, man sizga amri ma’ruf etdim va manga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo‘ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o‘g‘lungiz holini ko‘rarmiz va o‘qutmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz. (*Domla nos chekar*).

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

B o y. Hoy, domla! Manga nasihatchi kerag yo‘q. Bezor qildingiz. (*Odamlarga qarab*). Ishimdan, uyqumdan bu odam mani qoldiradir. Xayrullo, mehmonxonani qulfla.

D o m l a arazlab chiqib ketar, B o y ni dimog‘i kuyib o‘lturar. Z i y o l i musulmon kirar, palto va asosini mixga qo‘yar, boy ola-ola qarar, xushlamas.

Z i y o l i. Assalomu alaykum.

B o y (*karaxtlik ila*). Vaalaykum assalom. Xayrullo, kursi keltur. Bu kishi yerga o‘lturolmaydur.

Kelturar, Z i y o l i o‘lturub, papirus chekar.

Z i y o l i. Janob boy, sizni kayfsiz ko‘raman, mumkinmi sababini bilsam?

B o y. Bir mulla kelib edi, o‘g‘lingni o‘qutmaysan deb juda jonimni oldi, quvlagandek qilib zo‘rg‘a qutuldim, faqat mushtlashmadik.

Z i y o l i. Ah-ha, qiziq va interesniy hodisa emish. (*Odamlarga qarab*). Bu shaharda boylarga amri ma’ruf qilaturgan mulla bor ekan, Xudoga shukur. Ul janobi haqqoniy domlani topib, ziyorat qilmoq kerak. Boy afandi, sizga malol kelmasun, ushbu to‘g‘ridan men ham sizga qachonlar bir necha so‘z aytmoqchi edim. Va ammo soati ushbu daqiqaga mavquf ekan, endi sizdan iltimos qilamanki, bir necha daqiqa menga quloq bersangizki, ilm nafi to‘g‘risida so‘zlayin.

B o y (*ola-ola qarab*). Endi bildim, siz ham o‘g‘lungni o‘qut deb mani qisar ekansiz. (*Odamlarga qarab*). Bugun chap yonim ila turganman. O‘ylamagan ishlar oldimdan chiqar. Mazmuni – qordan qutulib, yomg‘urga uchraymiz. Xayrullo! Chilim keltur! (*Tarafayn sukut, chilim kelar. Boy chekar, yo‘talar*).

B o y. Xayrullo!

X a y r u l l o. Labbay, taqsir!

B o y. Joyimni tashla, uyqum keldi (*homuza tortar*). Ertaga ish ko‘p, vaqtli yotmoq kerak (*yana homuza*).

X a y r u l l o. Xo‘sh, hozir.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Z i y o l i (*jiddiyat ila*). Boy afandi! Men sizga dedimki, millatga keraklik ilmlar to‘g‘risida so‘zlamoqchiman, ammo siz mening so‘zimni eshitmoqni xohlamayturganga o‘xshaysiz. Ikkinchi daf’a aytamanki, quloq bering va bu so‘zlar sizning va millatning naf’idur!

B o y. So‘zingizni jabr va zo‘r ila eshittirasizmi? Va yo menga azob bermakka keldingizmi?

Z i y o l i. Yo‘q, men asli boshqa ish uchun kelib edim va lekin ilm bahsining ustidan chiqib qoldim. Ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to‘g‘risidan sizga bayon qilmoqni qasd etdim. Shoyadki, janobingizdek boylar millat bolalarini o‘qutmoqqa sa’y qilsalar.

B o y (*xalqqa qarab*). Koshki, domla hikoyalari yetmasa edi. Xo‘b, modomiki, qo‘ymaysiz, ertaroq so‘ylab tamom qiling, uyqum kelgan (*homuza tortadi*). «Odamlar bolasini o‘qut», – deydur-a.

Z i y o l i. Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo‘lidan ketgandek, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qutmoqqa sa’y qilmog‘imiz lozimdur. Vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm – hukmi shariatdir. Biz musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri – olimi diniy; ikkinchisi – olimi zamoniy. Olimi diniy: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo‘lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniy ishlarini boshqarar, bu sinfga kiraturg‘on talabalar, avvalo, Turkistonda va Buxoroda ilmi diniy va arabiy va biroz ruscha o‘qub, so‘ngra Makka, Madina, Misr va Istanbulga borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak, toki komil mulla bo‘lsunlar. (*Boy mudraydur*). Angladingizmi, boy?

B o y (*boshini ko‘tarib*). Ha, ha, aytabering, qulog‘im sizga.

Z i y o l i. Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarib, zaruriyati diniya va

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

o‘z millatimiz tilini bilaturgandan so‘ngra hukumatimizning nizomli maktablariga bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilganlaridan so‘ng, Peterburg, Maskav dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi tijorat, ilmi ziroat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdir. Rusiya vatanina va davlatina bilfe’l sherik bo‘lmoq kerakdir va davlat mansablariga kirmoq lozim. Toki maishati ehtiyoji zamonamiz to‘g‘risida vatan va millati islomga xizmat qilinsa va ham podshohlik mansablariga kirib, musulmonlarga naf yetkurilsa va ham davlati Rusiyaga sherik bo‘lunsa, hattoki shul tariqa o‘qugan musulmon bolalarini Farangiston, Amerika va Istanbul dorilfununlariga tarbiya uchun yubormoq kerakdur. Hazrat Payg‘ambarimiz: «Ilm Xitoyga ham bo‘lsa, talab qilingiz», – demadilarmi? (*Boy uyquda*). Bul ishlar bo‘lmas, magar pul ila, sizdek katta boylar himmati ila, chunonchi, Qafkaz, Orenburg va Qozon musulmonlarini boy va ahli xayriyoti ilm yo‘liga ko‘p pullar sarf etarlar va kambag‘al bolalarini o‘qutdirarlar. (*Boyga qarab*). Albatta, so‘zlarimga tushungansiz, janobi boy. Boy bova, hoy!

B o y (*mudraydi, bosh ko‘tarib, esnab*). Ha, ha...

Z i y o l i. Al-on biz Turkiston xalqiga bir yomon odat borki, bir kishi ruscha o‘qub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy forma kiysa, ani ayb qiladurlar. Yo bir musulmon bolasi nizomiy maktab formasida yursa, masxara qiladurlar. Agar izvoshchik va yo qora mehnatkash bo‘lub, ovro‘palilarni eski libosini kiysa va yo o‘yinchilarning libosini kiysa, hech kim bir nima demaydirki, bu kamoli nodonlik va dunyodan xabarsizlikdir. Shunday emasmi, boy amaki?!

B o y (*o‘lturgan yeridan bir tarafga og‘ib yotib*). Hur-hur-huro-huro...

Z i y o l i. Iloho, xudoyo! Ummati islomiyaga, xususan, biz turkistonlilarga rahming kelsun!.. (*ro‘moli ila ko‘z yoshini artib, chiqib ketar*).

Parda enar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ikkinchi parda

Pivaxona manzarasi. B o y v a ch ch a ila uch nafar o‘lturarlar.

T a ng r i q u l. Bu oqshom, bilmayman, nima uchun ichkilik meni tishlamaydur. Namozi digardan beri bir dyujina shishani bo‘shatdim. Dayusni pivosi qulog‘imni qizitmadi. To‘ldir, ichaylik (*Nor qadahlarni to‘ldirar*).

H a m m a s i. Toshmurod boyvachchani salomatligiga ura! Ura! Ura! (*Icharlar*).

D a v l a t. Jo‘ralar, manavini ichdim, endi yodimga Lizajon tushdi. Oh, Lizajon!

H a m m a s i. Oh, Lizajon, voh, Lizajon, qaydasan?!

N o r. Zolim falak firoqig‘a kuydirdi mani; billohki, kelmasa, bo‘miydi.

D a v l a t. Bu dod-u bedod ila hech nima bo‘lmas. Xo‘jayinni chaqirarmiz, otam o‘ldi bazmi qilarmiz.

N o r. Qo‘lingni ber, ey nomard, topding (*qo‘lini siqar*). Bo‘ldi.

D a v l a t. Ey to‘taburut Tangriqul! Daming chiqmaydur. Shuncha odam so‘zini o‘g‘irlab o‘lturasan. Erga navbat – sherga navbat. Gap berib o‘ltur. Yo bu odamlarni pisand qilmaysanmi? Bizlarning ham yonimizga besh tangalik aqchamiz bor. Jo‘ra! Bu mastlik rostlikdir. Qovog‘ingni ochib o‘ltur.

T a ng r i q u l. Jo‘ralar! Sizlardan yashiraturgan so‘zimiz yo‘q. To‘g‘risini desam, manuni ichdim, qulog‘im qizig‘an, sen Liza deding, endi o‘zim shunda bo‘lsam-da, hushim Lizaga, to Lizani kelturmasang, mani gapirturolmaysan. Ammo gap kelturganingga, Davlat zo‘r!

D a v l a t. G‘am yema, muddaong Liza bo‘lsa, shul zamon yoningga ko‘rarsan, kelmasami? Boshini olarman.

N o r. Boyvachcha! Barishnaga tobingiz bormi?

T o sh m u r o d. Mayli, odam yuboringlar, bazm qilsun.

T a ng r i q u l. Gap, gap ila vaqtni o‘tkararsizlar, buyuraturgan bo‘lsanglar, buyuringlar. Ertaroq kelsun, kayf qilayluk.

D a v l a t qo‘ng‘iroq chalar. Artun armani mayxonachi kirar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

A r t u n. Nima deysan?

D a v l a t. Lizaga birovni yubor, kelsun.

A r t u n. Bunda?

D a v l a t. Ha, munda kelturmasdan mozorgami keturarding?

A r t u n. Izvinit qilasan, surushdim-da.

D a v l a t. Bo‘l, bo‘l. Birovni yubor.

A r t u n. Bah, na vor, qilursan. Liza banga demishki, o‘n besh manatsiz banga kishi go‘ndarma. Ha, o‘n besh manatda va faytun pulini-da ver, geyin Nikolayi go‘ndarayim. Liza o‘lmasa, boshqasini getirsin, kayfingni chek.

D a v l a t. Avval kelturub, so‘ngra pulni olsang bo‘lmasmi?

A r t u n. Davlat zo‘r! Ban sana demishimki, Liza aqcha olmayincha gelmaz, bana na? San o‘zing bilirsanki, u gavur qizi, banim degil. (*Mastlar bir-birlariga hayron qararlar, kissalariga qo‘l soladirlar*).

T a ng r i q u l. Artun. Biroz to‘xta, pul beramiz.

A r t u n. Bosh ustina, hoziram. (*Chiqar. Jo‘ralari kayflari uchub, sukut etarlar*).

D a v l a t. Suz, ichaylik. (*Nor suzib, quyar*).

T a ng r i q u l. Pulni peshaki talab qilgani ishni belini sindurdi.

D a v l a t. Ish aksiga olsa, shunday bo‘lur. Pullaring bormi? Hammalaring chiqaring. (*Hammasi chiqaradi, Davlat sanar, besh so‘m yetmas*). Bu minan hech nima bo‘lmas. Bir ilojini topmoq kerak.

N o r (*tamagirlik ila*). Ey boyvachcha, bizlar-ku kambag‘al. Sizga nima, kissangizdan pul chiqmaydur? Ana boybachchaning holi (*qo‘li ila ko‘rsatar*).

D a v l a t. Parvo qilma, Nor! Men bir nimarsa o‘yladim, agar boyvachcha ko‘nsa.

T a ng r i q u l. Nima ekan? Nima?

D a v l a t. To‘xta, nima ekanligini bilarsan. Avval boyvachchaning salomatligiga ichaylik. (*Tangriqul suzar, icharlar boyvachchaning salomatligiga*). Boyvachcha. Bu kechadek

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

chahorshanba sayri oyda-yilda bir bo‘lur va yo yo‘q, bir kecha ming kecha bo‘lmas, agar qabul qilsangiz, Tangriqulni sizga qo‘sharman. Birga borib, otangizni sandug‘ini ko‘rsatursiz. Boshqa ishni Tangriqul bajaradur.

T o sh m u r o d. Tangriqul aka, borasizmi?

T a ng r i q u l. Ulfatlar buyursa, u dunyoga boraman. U-ku sizning hovlingiz.

D a v l a t. Sen nima dersan, Nor?

N o r. Men ham ko‘pni biri, bor desang, borarman.

D a v l a t. Yo‘q, ikkov bas. Ko‘rganlar badgumon bo‘lmasin. Bukunni ertasi bor.

N o r. Boyvachcha! Otangiz sandig‘ining joyini bilasizmi?

T o sh m u r o d. Otamning yotaturgan uyinda.

D a v l a t. Yotaturgan uyini necha eshigi bor?

T o sh m u r o d. Uch.

D a v l a t. Qaysi eshikdan kirasizlar?

T o sh m u r o d. Eshikning biri onamning uyindan ochilur, men kirib, hovli tarafdagi eshikni ocharman, so‘ngra Tangriqul akam kirar.

D a v l a t. Barakalla! Ilgari ham o‘g‘irlik qilganga o‘xshaysiz. Nor! To‘ldur, ichaylik! (*Nor to‘ldurar, icharlar. Tangriqul va Toshmurodga qarab*) Endi boradurgansizlar?

T a ng r i q u l. Albatta. Bormay nima bo‘lubdur (*Davlat to‘pponchasini boyvachchaga berar. Nor etik sog‘idan pichoqni olib, Tangriqulga berar. Alar ehtiyot qilib turarlar*).

D a v l a t (*ikkisiga qarab*). Yo‘l bo‘lsin, botirlar?

T a ng r i q u l. Olgani (*Davlat Tangriqulni bir chetga olib, ishorat va xufiya ma’lumot va amr berar*).

N o r. Omin, Olloh...

H a m m a s i. Ollohu akbar. (*Davlat fotiha berar*).

T a ng r i q u l va Tosh m u r o d chiqar. D a v l a t va N o r ichar...

Parda enar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Uchinchi parda

Odat bo‘yicha B o y yotar karavot ustiga uyquda, uyni bir tarafiga sanduq. T o sh m u r o d bir eshikdan ohistalik ila kirar, bu taraf – u tarafga qarab, boshqa bir eshikni ochar va bir chetga turar.

T a ng r i q u l kirar, qo‘lida kalid va temir asbob, beliga pichoq; sandiq tarafiga borib, kalid solar, sandiq ochilmas. T o sh m u r o d ga qaraydur. Ishorat ila maslahat so‘raydur. T o sh m u r o d sanduqni temir asbob ila sindirmoqg‘a amr berar.

T a ng r i q u l temir asbob ila sanduqni sindirar. Sanduqni ovozi ila boy uyg‘onur. B o y cho‘chib turar, kaltakni olib: «Voy, voy!» – deb T a n g r i q u l ga yugurar. T o sh m u r o d kaltakni kelib ushlar. T a n g r i q u l pichoq ila boyni qo‘ltig‘iga urar.

B o y (*taraqlab yiqilar*). Voh, jonim! (*Jon uzar, tipirlar, xirillar*).

T a ng r i q u l sandiqdan tanga xaltasini ko‘tarar, pichoq va temir asbobni o‘ziga berkitar, tashqaridan bir necha odam tovushi eshitilur.

O d a m l a r. Nima gap, birov dod dedi?

Bir necha erkak ila boy xotuni kirarlar, T a ng r i q u l ila T o sh m u r o d ni ko‘rarlar.

T a ng r i q u l. Toshmurod, ot!

T o sh m u r o d havoga to‘pponcha otar va hozir kishilarga siloh[1] ko‘rsatib qocharlar.

B o y b u ch ch a. Voy, zolim dastidan! Bu qanday kun edi, voy dod! (*Chapak chalar, boy ustiga o‘zini tashlar, yuz va sochini yular*). He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod! Voy, dod-ey!

[1] S i l o h – qurol

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

D o m l a (*kirar*). Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo‘q. Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema’nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O‘g‘lingizni beilmlik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan bir umrga ajratadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o‘qutmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo‘ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo‘ldingiz.

B o y b u ch ch a (*to‘lg‘onib*). Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy-y-y-y!

D o m l a. Boyingiz-da nasihatga quloq solmadi va oxiri ushbu yomon hodisa paydo bo‘ldi. Endi sizga, ochig‘i, sabrdan boshqa iloj yo‘qdir, onajon. Olloh sizga sabr bersun.

B o y b u ch ch a (*kamoli betoqatlik bilan oh-vovaylo etar*). Dod, voy bolam! Voy boyim! Ikkisidan ham ayrildim, erimni mozorga, bolamni Sibirga yuborarlar! Voy, voy, voy-y-y-y.

Parda enar.

To‘rtinchi manzara

Ikkinchining ayni, mayxona.

N o r, D a v l a t ichib, ashula aytib o‘lturar. T a ng r i q u l va T o sh m u r o d pisib borib kirar, to‘pponcha va qonlik pichoqni bir chetga yashirar, hamyonni chiqarib, stol ustiga otar; o‘lturarlar.

T a ng r i q u l. Chilim keltur-ey!

A r t u n chilim kelturur, chekarlar. A r t u n ketar. T a ng r i q u l D a v l a t ni bir tarafga olib, xufiya bo‘lgan ishlarni so‘ylar, ishoratlar qilar. D a v l a t: «Bechora», – deb xufiya so‘ylab, ishorat ila xotirjam qiladir.

D a v l a t (*hamyonni ochib ko‘rib, suyunar, Tangriqul va Toshmurodni yelkasiga qoqar*). Barakalla, barakalla

Zang chalar, A r t u n kirar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

A r t u n. Na buyurarsiz?

D a v l a t. Ma, pulni ol, tezlik ilan Lizani keltur!

A r t u n. Bosh ustina. Hozir kelur (*pulni olar, icharlar*).

L i z a (*kirar*). Dobri vecherim! (*hammasi-la ko‘rishar*).

D a v l a t. Ispriyezdim, ispasiba, ispasibo, prixal...

L i z a. Mersi (*o‘lturar*).

D a v l a t. Suz, Lizaning salomatligiga.

N o r (*suzar, cho‘qishtirib*). Lizaning salomatligiga ura, ura (*icharlar*).

D a v l a t, N o r ashula o‘qur. Tashqaridan hushtak sadosi kelar. Oyoq tovushlari eshitilar. Majlisdagilar sarosima, hayron bo‘lar. Silohlik p o l i t s e y s k i lar, pristuf, qorovullar bostirib kirarlar. L i z a qochar. P o l i t s i y a to‘rt nafarni ushlar, ba’zisi buyumlarini va har tarafni axtarur. Qonlik pichoq va to‘pponchani topar. To‘pponchani pristufga topshirar. Iskab ko‘rar va o‘qini bo‘shatar.

T a n g r i q u l va T o sh m u r o d qochar. Qorovullar ushlar.

T o sh m u r o d ho‘ngir-ho‘ngir yig‘lar, betoqat bo‘lur.

P r i s t u f ishorat qilur. Qo‘l kishanni keltirib, T a ng r i q u l va T o sh m u r o d ga urarlar. Boshqa ikkisining qo‘li bog‘lanur.

P r i s t u f gunohkor va qorovullarni saf qildirur.

Z i y o l i. (*kirar, gunohkorlarga qarab afsus qilur. Odamlarga qarab*). Ilm va tarbiyasiz bolalarning oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmas... edi. Umri boricha Sibir va bandg‘a va qiyomatg‘a, jahannamg‘a qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda aslo azob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda, boyni o‘ldirgan va bu yigitlarni abadiy azobga giriftor qilgan beilmlikdur. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukmfarmo bo‘lsa kerak. Bu

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloj yo‘qdur. Olloh taolo boshqalarga hamisha ibrat va sizlarga sabr bergay.

P r i s t u f (*amirona*). Hayda, turma, marsh (*yo‘naladur*).

Parda enar.

T a m o m

«PADARKUSH» DRAMASI HAQIDA

Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi 1911-yilda yozilgan bo‘lib, oradan ikki yil o‘tgach, ya’ni 1913-yilda kitob holida nashr qilinadi. Behbudiy o‘zbek adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib dramatik asar yozdi va u Turkistonning barcha shaharlarida namoyish etildi. Bu bilan Behbudiy o‘zbek teatrining tamal toshini qo‘ydi.

Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi ma’rifat ulug‘lanadi. Muallif «o‘qimagan bolaning holi»ni, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Behbudiy yoshlar ta’lim olishi va kamolga yetishida ijtimoiy va oilaviy muhit alohida o‘rin tutishini «Padarkush» dramasi negiziga joylashtiradi. Unda qahramonlardan birining tilidan o‘z g‘oyasini: «Bizlarni xonavayron... bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...», degan yo‘sinda bayon qiladi.

Eslab qoling: «padarkush» so‘zi lug‘aviy jihatdan «ota qotili» degan ma’noni anglatadi.

Dramada Boy, uning o‘g‘li Toshmurod, yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo‘lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Dramaturg ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyasi shu obrazlarning o‘zaro suhbatlari, bahs-munozaralari jarayonida namoyon bo‘ladi. Har bir obraz tabiatiga xos fazilat, xususiyat va qusurlar ularning gap-so‘zlari, xatti-harakati, muallif tomonidan berilgan kichik izohlar yordamida ko‘rsatiladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Muallif Boy obrazi orqali pul, mol-dunyoga ega bo‘lgan, ammo uni ilm yo‘li, farzand tarbiyasi uchun sarflashni o‘ylamagan kimsa qiyofasini beradi. Eng achinarlisi, Boy Domlaning ham, Ziyolining ham nasihat va maslahatlariga quloq tutmaydi; savollariga qo‘pollik bilan, beparvo va loqayd javob qaytaradi. Boy hamma narsani – inson qadrini ham, obro‘-e’tiborini ham boylik bilan o‘lchaydi; o‘z boyligi tufayli hamma-hamma ularni «izzat qilishadi» degan fikr bilan yashaydi. Dramada boyning eng katta xatosi ziyoli kishilarning so‘zlariga quloq solmasdan, quloq solsa ham, noilojlikdan, mudrab, o‘z jigarbandining taqdiriga befarq qaraganidir. Bilamizki, sharqona madaniyatimizda farzand, eng avvalo, otaga so‘zsiz itoat etishi lozim. Boy ham vaqtida insofga kelib bolasini yo‘lga solganida, bunday mudhish holat, balki yuz bermagan bo‘lar edi. Shu yerda dramaturg boyning tilidan bir narsani ta’kidlab o‘tadiki, «mani savodim yo‘q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman» – bu o‘sha zamonga monand ayni haqiqat edi. Boyning gapida yana bir xato mavjud, u boylik topishdan o‘zga ishni bilmaydi. Inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmaydi. Unda ma’naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik ham bo‘lishi lozim.

Muhtaram o‘quvchi, agar diqqat qilgan bo‘lsangiz, avval Boy huzuriga Domla kirib boradi. Boyni ilm-ma’rifatga, o‘g‘lini o‘qitish zarurligiga urg‘u beradi. O‘z zimmasidagi amri ma’ruf va nahyi munkar, ya’ni yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarishdek bir vazifasini bajaradi. Shuning uchun ketar mahali «Boy, man sizga amri ma’ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynimdan soqit qildim» degan gapni aytadi. Keyin Ziyoli Boy huzurida paydo bo‘ladi. Boy uni ham yoqtirmaydi. Shu bois «qordan qutulib, yomg‘irga uchraymiz» deb g‘udranadi. Domla aytgan fikr-mulohazaga yaqin gaplarni Ziyoli ham ta’kidlaydi. Muallif ishtirokchilarga ta’riflar ekan, Ziyoliga «millatchi musulmon» degan sifat beradi. Bu o‘rinda «millatchi» so‘zini «millatparvar» tarzida tushunish lozim. Chunki Ziyoli tabiatida musulmonchilik ham,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

millatparvarlik ham jamlangan. Behbudiy millatini sevib dinini esda tutadigan, ayni damda, dinini sevib millatini ham esdan chiqarmaydigan insonlarni shu obraz vositasida ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ziyoli «olimi diniy» – din bilimdoni va «olimi zamoniy» – zamon bilimdoni bo‘lish uchun qanday ilmlarni egallash zarurligini Boy bilan bo‘lgan suhbatida bir-bir sanab chiqadi.

Dramada Domla bilan Ziyolining turmushdagi yo‘l-yo‘rig‘i bir-biriga yaqin. Ular asardagi Boy, Toshmurod, Tangriqul, Artun kabi obrazlarga qarama-qarshi turadi. Dramatik asar voqealarini oradagi shu ziddiyat harakatga keltiradi. Bu qarama-qarshilikka ijtimoiy ma’no berib, ma’rifatlilar bilan johillar, ilmlilar bilan ilmsizlar, ogohlar bilan loqaydlar o‘rtasidagi kurash tarzida tushunish o‘rinli bo‘ladi.

Toshmurod do‘st kim, dushman kim – farqiga bormaydi. Shuning oqibatida Tangriqul bilan birga o‘z uyiga o‘g‘rilikka borishga rozi bo‘ladi. Otasining sandiqdagi mol-mulkini o‘marish yo‘llarini maishatparast sheriklari bilan rejalashtiradi. Ularni o‘z uyiga boshlab borganida otasi sezib qoladi; Boyni o‘ldirib, pulini olib ketishadi.

E’tibor bering, Boyning arzandasi, aynan sizning tengdoshingiz Toshmurod o‘qimagani, ko‘cha changitib yurgani sababli ham o‘zidan yoshi kattaroq o‘g‘ri, muttahamlarga qo‘shilib qoladi. Mavzuga diqqat qilinsa, oradan bir asrdan ortiqroq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ayni zamonamizda ham o‘qimagani bois turli aldovlarga ishonib, yomon yo‘llarga kirib qolayotgan yoshlar yo‘q emas. O‘g‘rilar ham Toshmurodning soddaligidan foydalanib, mahorat darslarining muqaddimasini aynan o‘zining uyida boshlab bermoqchi bo‘lishadi. Ya’ni yigitchani o‘z uyiga o‘g‘rilikka boshlab, ustiga-ustak: «Barakalla! Ilgari ham o‘g‘irlik qilganga o‘xshaysiz», – deb tag‘in maqtab ham qo‘yishadi. Toshmurodning atrofidagi shunday bema’ni, yomon odamlar bilan oshno tutinib, maishatga berilishi, buzuq yo‘llarga kirib, oxir-oqibatda ota qotili – padarkushga aylanishining asosiy sababi – bu o‘qimaganidir. Onasi Toshmurodni: «He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod!» – deb qarg‘ashga

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

majbur bo‘ladi. Toshmurodga otasi ta’lim-tarbiya bermadi; oqibatda ota ham, o‘g‘il ham «qurboni jaholat» – jaholat qurboniga aylandi. Drama oxirida Ziyoli muallif g‘oyasini «Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o‘qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmas... edi. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasida taraqqiy qiladi» degan tarzda bayon etadi.

Mulohaza qilib ko‘ring, muhtaram o‘quvchi! Ilm-fan hamma zamonlar uchun zarur va muhim bo‘lgan. Olimlar jamiyat taraqqiyoti uchun ma’naviy tayanch vazifasini bajaradi. Shu jihatdan «Padarkush» dramasida aytilgan ilmga doir qarashlar, jaholatga qarshi ma’rifat yo‘lidan yurish zarurligi bugun ham ahamiyatli.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu dramasi XX asr boshlarida yozilgan bo‘lsa-da, hozirgi kun bilan ham chambarchas bog‘liq. Chunki uning zamirida ma’naviy-ruhiy, tarbiyaviy ma’no yotadi. Tarbiya hech qachon eskirmaydigan hamda tugal yechimi topilishi mushkul bo‘lgan masalalardandir. Insonni yoshligidan tarbiyalash lozim. Odam farzandini ham navnihol daraxtga mengzash mumkin. Uni qay tomonga yo‘naltirib tarbiyalansa, umrining oxirigacha ana shu yo‘ldan boradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy juda qisqa sahna asari vositasida o‘z ma’naviy dunyosini, ilm-ma’rifatning qadr-qiymatini zo‘r mahorat bilan bayon qiladi. Aynan din ilmlaridan boxabar bo‘lgani uchun uning qahramonlari nutqida «Ilm olish barcha erkak va ayollar uchun ham farzdir», «Beshikdan mozorgacha ilm izlash lozim» yoki «Xitoyga borib bo‘lsa ham ilm talab qilinglar» kabi hadisi shariflarning mazmuni berib boriladi.

Domla va Ziyoli nutqini muallif hikmatlar, ibratli gaplarga boy tarzda beradi. Ilmdan yiroq bo‘lgan obrazlar nutqida esa ancha kambag‘al va ko‘cha-ko‘yda qo‘llanadigan so‘zlar ishlatiladi.

Aziz o‘quvchi! Siz bir narsani yodingizdan chiqarmangki, mehnat-mashaqqatsiz hech qachon biror narsaga erisha olmaysiz. Qachonki o‘qib bilim olsangiz, shundagina hayot yo‘lingiz saodatli, umringiz oxirigacha rohat-farog‘atda o‘tadi. Shuni

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ham unutmangki, farzandlar aynan ota-onasidan o‘rnak oladi. Bu hayotiy hikmatni Mahmudxo‘ja Behbudiy tengdoshingiz Toshmurod misolida sizlarga yetkazmoqchi bo‘lgan, albatta.

Xulosa qilib aytganda, «Padarkush» dramasi ana shunday ilm-ma’rifatga targ‘ib va tashviq qilish e’tiboridan juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan muhit xususida nimalarni bilasiz?
2. Behbudiyning hayoti va ijodi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar topib keling.
3. «Padarkush» dramasining yozilish sabablari to‘g‘risida mulohaza yuriting.
4. Asarni rollarga taqsimlab o‘qing.
5. Dramani o‘qish jarayonida siz qaysi qahramon sifatida ishtirok etdingiz? Bu sizda qanday taassurot uyg‘otdi?
6. Dramadagi asosiy obrazlarga ta’rif bering.
7. Asardan Ziyoli va Domlaning nutqlarini topib, ularga munosabat bildiring.
8. Drama matnini qayta o‘qib, sizga tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing va ularning izohini yozing.
9. «Padarkush» dramasini bugungi kun voqea-hodisalari bilan bog‘lab tushuntiring.
10. «Padarkush» dramasiga tayangan holda «Jaholatga qarshi ma’rifat» mavzusida ijodiy matn yarating.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ABDULLA QODIRIY
(1894–1938)

Abdulla Qodiriy adabiy siymosi XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. U o‘zbek romanchiligining asoschisi sanaladi.

Abdulla Qodiriy 1894-yili 10-aprelda Toshkentda bog‘bon oilasida tug‘ilgan. Dastlab musulmon maktabida, keyin rus-tuzem maktabi hamda Abulqosim shayx madrasasida ta’lim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida o‘qigan.

1917-yilgi oktabr oyidagi davlat to‘ntarishidan so‘ng Eski shahar oziqa qo‘mitasining sarkotibi, «Oziq ishlari» gazetasining muharriri, «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan biri sifatida ijtimoiy hayotga faol aralashadi. Uning asarlari vaqtli matbuotda Julqunboy, Ju-boy, Dumbulboy, Dumbulnisa, Kalvak Mahzum, Toshpo‘lat tajang, Ovsar kabi o‘nlab maxfiy imzolar bilan bosilib turadi.

Abdulla Qodiriy 1914-yili Rahbarnisa Rasulmuhammadboy qiziga uylanadi. Ulardan Nazifa (1916), Habibulla (1918), Adiba (1924), Mas’ud (1926) hamda Anisa (1928) ismli farzandlar dunyoga keladi.

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Dastlab millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan «To‘y», «Ahvolimiz», «Mil-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

latimga», «Fikr aylagil» kabi she’rlar, «Baxtsiz kuyov» nomli drama hamda «Juvonboz» hikoyasini yozdi. Abdulla Qodiriy ana shunday jadidona kayfiyatdagi asarlarida millatni ichdan yemiradigan xurofotlarni tanqid qiladi; xalqni o‘zligini anglashga, yangilikka chaqiradi. Yozuvchining «Baxtsiz kuyov» dramasi (1915) bevosita Behbudiyning «Padarkush» dramasi ta’sirida yozilgan. Dramada muallif hashamatli to‘y, ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko‘ngilsiz oqibatlarini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Uning 1916-yilda yozgan «Uloqda» hikoyasi bilan dunyo adabiyotdagi nazariy mezonlarga mos keladigan o‘zbek realistik hikoyachiligini boshlab berdi.

Abdulla Qodiriy o‘z ijodiy taqdirini matbuot bilan bog‘ladi. Yuzlab publitsistik maqolalar, «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo‘lat tajang nima deydir?» kabi hajviy asarlar yozdi. Hayotni kuzatib, voqealarga nisbatan turli yo‘sinda hajviy-tanqidiy munosabatlar bildirdi. Shu jarayonda «felyetonlar qiroli» nomini oldi.

Abdulla Qodiriyning mashhur «O‘tkan kunlar» romanining ayrim fasllari dastlab 1923–1924-yillari «Inqilob» jurnalida e’lon etildi. 1925–1926-yillari romanning har bir bo‘limi alohida kitob holida bosildi. «O‘tkan kunlar» yaratilgan davr o‘zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o‘rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Adib bu roman orqali xalqning milliy ongini uyg‘otmoqchi bo‘ldi. «Tariximizning eng kirlik, qora kunlari» – yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi «xon zamonlari» – XIX asr miqyosidagi mudhish tarixiy jarayonlarning haqiqatidan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ladi.

«O‘tkan kunlar» romanining ma’no-mundarija doirasi, aslida, ancha keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. El-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

«O‘tkan kunlar» romanining eski o‘zbek yozuvidagi (1926) hamda yangi o‘zbek alifbosidagi nashrlari muqovasi (2004)

«O‘tkan kunlar»da Otabek bilan Kumushning ishqiy sarguzashtlari juda katta mahorat bilan tasvirlanadi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Qodiriy ishq sarguzashtlari fonida o‘lkaning tutqunlikka yuz tutishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolar degan fikrni g‘oyat ustalik bilan bayon qiladi. Abdulla Qodiriy qalamining sehri shundaki, romanda ijtimoiy va maishiy hayot, odamlar turmushi, taqdiri, tabiati, ular ruhiyatidagi nozik jarayonlar bor holicha butun ziddiyatlari bilan ko‘rsatiladi.

Abdulla Qodiriy ijodiy merosida muhim o‘rinni tutadigan, «Xudoyorxon va munshiylari hayotidan olingan» ikkinchi «Mehrobdan chayon» nomli tarixiy romanini 1928-yilda yozadi. Asarda xon zamonidagi xalqning hayoti, saroydagi kirdikorlar bilan birga Anvar va Ra’nolar ishqining ziddiyatli visol tarixini g‘oyatda ta’sirchan tasvirlaydi. Ularning mu-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

habbat yo‘lidagi his-tuyg‘ularini, yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lgan «ag‘yorlar»ga qarshi kurashlarini juda tabiiy bayon qiladi.

Yozuvchi Anvar va Ra’no timsolida chin muhabbatni, romandagi Safar bo‘zchi siymosida to‘g‘rilik va sadoqatni tarannum etsa, Solih mahdum obrazi orqali hayoti ziddiyatlarga ko‘milgan g‘aroyib bir insonni, Abdurahmon qiyofasida pokiza mehroblarni bulg‘ab yurgan munofiq kimsalarni ko‘rsatdi. Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida ham, xuddi birinchi romanidagidek, voqelikning badiiy talqinida bag‘oyat mohir ekanini namoyon qildi.

Garchand adib original asarlar yozib, o‘z xalqining ma’naviyati xazinasini bebaho durdonalar bilan boyitayotgan bo‘lsa ham, mustabid tuzum uni dushmanlikda aybladi. Abdulla Qodiriy manglayiga qatag‘on qurbonlari qatoriga tizilishdek bir qismat bitilgan ekan. Adib 1937-yil 31-dekabr kuni hibsga olinib, 1938-yil 4-oktyabrida xalq dushmani sifatida qatl etiladi.

Faqat 1991-yilda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan so‘nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatila boshlandi. Adib Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti, «Mustaqillik» ordeni bilan taqdirlandi.

O‘TKAN KUNLAR

(*Romandan boblar*[1])

Otabek Yusufbek Hoji o‘g‘li

1264 inchi hijriy, dalv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish-kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytganlar, ko‘p hujralar kechlik osh

[1] Asardan olingan boblar juz’iy qisqartish hamda romandagi muallif nutqi bugungi adabiy tilga biroz moslangan holda berildi. (*Mualliflar*)

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qaraganda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek.

Saroyning to‘rida boshqalarga qaraganda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, ularda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora charog‘ sasiganda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo‘lganida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda: og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturguchi bu yigit Toshkandning mashhur a’yonlaridan bo‘lgan Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan birovi darboza yonidagi kimdandir so‘radi:

– Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko‘rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamalik bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otlik o‘g‘lidir; ikkinchisi uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lgan ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshigina davlatmand bo‘lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashkanda uning otiga taqilgan laqabni qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz «Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydirlar. Homidning Otabek bilan tanishligi bo‘lmasa ham Rahmatka yaqin qarindosh – Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog‘asi.

Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulug‘lab qarshiladi.

– Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – vaqtsiz kelib, sizni tinchsizladik...

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Otabek ularga yuqoridan joy ko‘rsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda:

– Tinchsizlamadingizlar, bil’aks quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizga birinchi martaba kelishim bo‘lg‘ani uchun tanishsizliq, yolg‘izliq meni juda zeriktirgan edi.

Shu orada hujraga bir chol kirib, ul ham mehmonlar bilan so‘rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otlik bo‘lib, oltmish yoshlar chamasida, cho‘ziq yuzlik, do‘nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to‘garak qora ko‘zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqligiga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi.

Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanalidan so‘radi:

– Tuzukmisiz, ota?

– Xudoyga shukur, – dedi Hasanali, – boyag‘idan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.

– Ba’zi yumushlar buyursam...

– Buyuringiz, o‘g‘lim.

– Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

– Xo‘b, begim.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashgandan keyin so‘radi:

– Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

– Qulimiz.

Bu so‘zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

– Qulingiz?

– Shundog‘.

Hasanalini bolalik vaqtida Erondan kishi o‘g‘irlab kelguchi bir turkman qo‘lidan Otabekning bobosi o‘n besh tillo barobariga sotib olgan edi. Hasanalining Otabeklar oilasida qulliqda bo‘lganiga ellik yillar chamasi zamon o‘tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a’zosi bo‘lib ketkan. Xo‘jasi Yusufbek hojiga, ayniqsa, xo‘jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo‘lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

hurmat ko‘rar edi. Hasanali o‘ttuz yoshlik vaqtida sotib olgan bir cho‘riga uylantirilgan bo‘lsa ham, ammo o‘g‘il-qizlari bo‘lmagan, bo‘lsalar ham yoshlikda o‘lib ketkanlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Otabekka ixlos qo‘yib, unga o‘z bolasi kabi qarar: «O‘lganimdan keyin ruhimga bir kalima Qur’on o‘qusa, bir vaqtlar Hasanali ota ham bor edi deb yodlasa, menga shunisi kifoya», deb qaror bergan va hozirdan boshlab Otabekka bu to‘g‘rida siporishlar[1] berib, undan samimiy va’dalar olib yurguchi oq ko‘ngil bir qul edi. Hasanali ustida bo‘lgan haligi gapdan keyin Rahmat so‘radi:

– Toshkanddan nimalar keltirdingiz, bek aka?

– Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy abzali[2] va biroz qozon.

– Marg‘ilonda gazmol bilan qalapoy abzalining bozori chaqqon, – dedi Homid. Otabek miqrozi[3] bilan sham’ so‘xtasini kesib tuzatdi. Orada yotsirashga o‘xshash bir hol bor, nima uchundir bir so‘zlab ikki to‘xtar edilar. Bu o‘ng‘aysiz holatdan chiqish va so‘zga ulab yuborish uchun Rahmat tirishkandek ko‘rinar edi.

– Marg‘ilonni qanday topdingiz, bek aka, xushlandingizmi, yo?..

Bu savolning javobiga Otabek ikkilangandek va o‘ng‘aysizlang‘andek bo‘ldi.

– Nima desam ekan... Marg‘ilonni har holda... xush ko‘rdim, Marg‘ilon Turkistonimizning to‘qug‘uchiliq hunarida birinchi shahridir.

Ikkilanib berilgan bu javobdan Homid bilan Rahmat bir-birlariga qarashib oldilar. Otabek bu holatni sezdi va o‘zining so‘zini kulgulikka olib izoh berdi:

– Kelgan kunimdan Marg‘iloning‘izni xushlamay boshlag‘an edim. Chunki tanishlarim yo‘q, musofirchilik bilinib qolayozg‘an edi. Endi bu soatdan boshlab Marg‘ilondan roziman, negaki yo‘qlab kelguchi sizning kabi qadrdonlar ham bo‘lur ekan.

---

[1] Siporish – topshiriq.

[2] Qalapoy abzali – oyoq kiyimning bir turi.

[3] Miqroz – qaychi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Kechiringiz, bek aka, – dedi Rahmat, – men sizning Marg‘ilon kelganingizni bu kun otamdan eshitdim. Yo‘qsa, albatta, sizni zeriktirmas edim.

– Aniqmi?

– To‘g‘ri gap, – dedi Rahmat, – otam Toshkand borg‘anlarida to‘p-to‘g‘ri sizning eshikingizga tushsinlar-da, siz saroyga tushing. Bu taraf bilan sizdan o‘pkani biz qilsaq arziydir.

– Haqqingiz bor, – dedi Otabek, – ammo, birinchidan, sizning havlingizni so‘rog‘lab topish menga qiyinroq ko‘rindi, undan so‘ng molimizni ortg‘an tuyakashlar shu saroyg‘a tayinlang‘an edilar.

– Har holda bu uzr emas.

Hasanali dasturxon yozib qumg‘on kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg‘ar ekan so‘radi:

– Yoshingiz nechada, bek?

Otabekning labi qimirlamasdan choy quyib o‘tirgan Hasanali javob berdi:

– Bekka xudo umr bersa, bu yil hamduna[1] bo‘lsa, to‘ppa-to‘g‘ri yigirma to‘rt yoshga qadam qo‘yadilar.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdimmi, ota? – dedi bek. – Chindan ham necha yoshga kirganimni o‘zim bilmayman.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdingiz, bek.

Homid tag‘in so‘radi:

– Uylanganmisiz?

– Yo‘q.

Hasanali Otabekning yolg‘iz «yo‘q» bilan to‘xtashiga qanoatlanmadi va bu to‘g‘rida o‘z tomonidan izohlar berishni lozim ko‘rdi:

– Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalingan bo‘lsa ham, – dedi, – avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka bo‘lg‘an qarshiliqlaridan bu kungacha to‘y qilolmay kelamiz. Ulug‘ xo‘jamizning qat’iy niyatlari bu safardan qaytg‘ach bekni uylandirishdir.

– Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo‘qdir, – dedi Rahmat va Otabekka yuz o‘girdi. – Uylangach, xotining

[1] Hamduna – bu yerda maymun muchali nazarda tutilmoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

tab’ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo‘qsa, munchalik og‘ir gap dunyoda bo‘lmas.

Otabek Rahmatning bu so‘zini samimiyat bilan qarshiladi.

– So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, – dedi, – ammo shuni ham qo‘shmoq kerakki, oladirg‘an xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiquttab’ bo‘lsin.

– Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, – dedi Homid e’tirozlanib, – xotinlarga «er» degan ismning o‘zi kifoya... Ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo‘lsa bas.

Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko‘z qirini tashladi.

– Uylanishdagi ixtiyorimiz, – dedi Rahmat, – ota-onalarimizda bo‘lg‘anliqdan, oladirg‘an kelinlari o‘g‘illarig‘a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o‘zlariga yoqsa bas. Bu to‘g‘rida uylanguchi yigit bilan er qilg‘uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo‘lmay, bu odatimiz ma’qul va mashru’ ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... Ammo xotinim ota-onamga muvofiq bo‘lsa ham, menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol, men ham xotinimg‘a muvofiq emasdirman... So‘zingiz juda to‘g‘ri, bek aka.

Otabek Rahmatning so‘zini ixlos bilan eshitdi va «sen nima deysan?» degandek qilib Homidga qaradi.

– Jiyan, – dedi Homid Rahmatka qarab, – boshlab uylanishing, albatta, ota-onang uchun bo‘lib, ulardan ranjib yurishingni o‘rni yo‘q. Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa, uchunchisini ol. Xotinim muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.

Rahmat Otabekka kulimsirab qaradi-da, tog‘asig‘a javob berdi.

– Xotin ko‘paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo‘lsin? – dedi. – Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha, eng ma’qul ish. Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig‘ingiz yo‘q.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Seningdek yigitlar uchun, albatta, bitta xotin ham ortiqchaliq qiladir, – deb kuldi Homid. – Ko‘b xotin orasida azoblanish o‘zi nima degan so‘z? Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o‘rtasida turib janjalg‘a to‘ygunimcha yo‘q, ammo xotinni uchta qilishg‘a ham o‘yim yo‘q emas.

– Sizga taraf yo‘q, tog‘a.

Homid mag‘rur bir tusda Otabekka qaradi. Otabek uning so‘zidan kulimsiragan edi.

Hasanali palovga urnash uchun tashqariga chiqdi. Otabek mehmonlarga choy quyib uzatdi. Homidning haligi so‘zidan keyin oradagi bahs kesilgan edi. Uchovlari ham bir narsaning xayolini surgandek ko‘rinar edilar. Bir necha vaqt shu holda qolishib, Rahmat tog‘asidan so‘radi:

– Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?

Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi:

– Bundan xabarim bo‘lmadi. Gumonimcha, bermagandir.

Rahmat so‘zdan chetda qoldirmas uchun Otabekni ham oraga oldi:

– Bizning Marg‘ilonda bir qiz bor, – dedi, – shundog‘ ko‘hlikki, bu o‘rtada uning o‘xshashi bo‘lmas deb o‘ylayman.

Homid bir turlik vaziyatda yer ostidan jiyaniga qaradi. Tog‘asining holidan xabarsiz Rahmat so‘zida davom etdi:

– Shahrimizda Mirzakarimboy otlig‘ bir savdogar kishi bor, bu shuning qizidir. Balki siz Mirzakarim akani tanirsiz, u bir necha vaqt Toshkandda qutidorliq qilib turg‘an ekan?

– Yo‘q... Tanimayman.

Homidning yuzidagi boyagi holat yana ham kuchlanib go‘yo toqatsizlangandek ko‘rinar edi, Rahmat davom etdi:

– Uning havlisi poyabzal rastasining burchagidagi imoratdir. O‘zi davlatmand bir kishi; Toshkand ashroflarining ko‘blari bilan aloqador bo‘lg‘anliqdan, balki otangiz bilan tanish chiqar.

– Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g‘ayriixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o‘zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi. Undagi bu o‘zgarishdan Rahmat xabarsiz bo‘lsa ham, ammo Homid uni yer ostidan ta’qib etar edi. Bu

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ta’qib Otabekdagi haligi o‘zgarishni payqabmi yoki tasodifiymi edi, bu to‘g‘rida bir mulohaza aytish, albatta, mumkin emas. Yana bir necha vaqt jim qoldilar.

– Endi biznikiga qachon mehmon bo‘lasiz, bek aka?

Rahmatning bu so‘zi bilan Otabek xayolidan bosh ko‘tardi:

– Xudo xohlag‘an vaqtda bo‘larmiz...

– Yo‘q, bek aka, – dedi Rahmat, – siz aniqlab bir kunni tayin qilingiz, biz bu yerga sizni taklif qilg‘ali kelganmiz.

– Ovora bo‘lmoqning nima zarurati bor?

– Bunda ovora bo‘lish degan narsa yo‘q. Iloji bo‘lsa, sizni bu saroydan havlig‘a ko‘chiramiz. Hozirga bir kunni tayin qilib bizga mehmon bo‘ling-chi... Otam sizning bilan o‘lturishib, Toshkand ahvolotini so‘zlashmakka mushtoqdirlar.

– Bu saroydan sizlarnikiga ko‘chishim og‘ir, – dedi Otabek, – ammo otangizning ziyoratlariga borishg‘a har qachon hozirman.

– Sog‘ bo‘ling, bek aka, boradirg‘an kuningizni tayin qila olasizmi?

– Ma’lumingiz, kechalari bo‘sh bo‘laman, shuning bilan birga otangiz qaysi vaqtni ixtiyor qilsalar ijobat etishdan o‘zga choram bo‘lmas.

– Salomat bo‘lingiz, – dedi Rahmat, – shuni ham sizdan so‘rayin: o‘lturishka begona kishilar ham aytilsa mumkinmi, ozor chekmasmisiz? Chaqirilg‘anda ham o‘zimizga yaqin va ahl kishilar bo‘lur, masalan, Mirzakarim qutidor kabi.

Bu vaqt Otabekning tusiga ham haligidek o‘zgarish chiqdi ersa-da, lekin sezdirmaslikka tirishib javob berdi:

– Manim uchun farqsiz.

Oshdan so‘ng mehmonlar bilan xayrlashib chiqdilar.

Bek oshiq

Saroy tinch uyquda, tun yarim. Hasanali hujraning uzun burama qulufini ochib ichkariga sham’ yoqdi va bekning to‘shagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi. Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigini ochil-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ganidan, sham’ yoqilib, o‘rin yozilganidan go‘yo xabarsiz kabi ustunga suyalgancha qotib turar edi.

– O‘rningizni yozdim, bek.

Otabek bu so‘z bilan hujraga kirdi va borib to‘shagi yoniga o‘lturdi. Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turar, chunki uni yotquzib, yoqilgan sham’ni o‘zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. Biroq Otabek to‘shagi yonig‘a o‘lturdi-da, yana o‘ylab qoldi... Otabek bir necha kunlardan beri Hasanalining ko‘ziga boshqacha ko‘rinar edi.

Hasanali Otabekda shu kungacha ko‘rilmagan qiziq bir holatka besh-olti kundan beri ajabsinib yurar edi. Hasanalini ajabsindirgan holat ham bekning shuning singari xayol ichida barchani unutib qo‘yishi va boshqa ishlarga e’tibor va parvosizligi edi.

Hasanali bekning hozirgi ipidan-ninasigacha bo‘lgan qiziq holini uzoq kuzatib turdi. Lekin Otabek xayol surishdan zerikmasa ham Hasanali kuzatishidan zerikdi.

– Menda yumushingiz yo‘qmi?

Otabek bu gapni anglamadi, shekillik, Hasanalining yuziga ko‘tarilib qaradi-da, yana ko‘zini bir nuqtaga tikib qoldi. Bu holatdan Hasanalining andishasi ortib, bekning bunchalik angravlanishig‘a qanday ma’no berishini ham bilmas edi. Otabek shu holda tag‘in qanchagachadir o‘lturdi, nihoyat uyqudan uyg‘ongan kishidek cho‘chib o‘zini kuzatkuchiga qaradi:

– Chiqib yotmaysizmi?

– Menda yumushingiz yo‘qmi?

– Nima yumushim bo‘lsin, sham’ni ham olib keting.

Hasanali sham’ni olib, o‘z hujrasiga chiqdi. Uning hujrasi Otabekning bilan bir qatorda bo‘lib, gazmol, poyabzal va shuning singari mollar ila to‘lgan va Otabekdan boshqa, alohida hujrada turishi ham shu mollarni saqlab yotish uchun edi. Hasanali o‘rnini yozar ekan «tavba» deb qo‘ydi.

Yuqorida so‘zlanganidek, Otabekdagi bu holatni biror haftalardan beri payqasa ham, hozirgidek andishaga tushmagan va bunchalik diqqat etmagan edi. Xo‘jazodasidagi bu holat uni har turlik mulohazalarga olib keta boshladi. To‘shagi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ustiga o‘lturib, oq soqolini o‘ng qo‘li bilan tutamlab o‘ylar edi: savdo to‘g‘risida biror xato qildimi, Ziyo shohichinikida taomdan tuzukroq totinmadi, biror og‘rig‘i bormikan... Musofirchiliqda og‘risa... Ammo bu mulohazalarining bittasiga ham o‘zi qanoatlanmadi. Zero, savdo to‘g‘rilari undan yashirin emas, og‘riganda ham, albatta, shikoyat eshitar edi.

O‘ylab-o‘ylab bir narsaga ham aqli yetalmagach, o‘rnidan turib toqchada yonib turgan sham’ni o‘chirdi. Hujra orqa-o‘ngni ajratib bo‘lmaslik ravishda qorong‘ilandi. Qorong‘ida turtinib hujra eshigiga keldi-da, avaylab g‘ijirlatmay eshikni ochdi va sekingina tashqariga bosh chiqarib saroyni kuzatdi. Kishi yo‘qliqqa qanoat hosil etib, mahsichan oyog‘ini ohista qo‘yib Otabek hujrasining yonida to‘xtadi, saroyni yana qarab chiqdi. Saroy qop-qorong‘i, tinch uyquda, ammo bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kart-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo‘rozlarning qichqirishlarigina buzar edilar. Hasanali sekingina daricha ostiga yotib hujra ichiga quloq soldi. Hujra ichi tinch edi. Oradan uch-to‘rt daqiqa fursat o‘tib hujradan ship etkan tovush eshitmadi. Tag‘in bir necha daqiqa quloq uzmay turib, so‘ngra o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘lgan edi, ichkaridan «ufff» degan ixrash eshitdi. Hasanalining quloqlari tikkayib o‘rnidan turdi, ko‘zi olalangan edi.

– Bek og‘riq, – dedi ko‘ngildan va jazmlanib hujra eshigiga yurib keldi. Eshikni ochib Otabek yoniga kirmoqchi edi. Eshikni itarishka borgan qo‘lini qoldirib: «Balki og‘riq emasdir», – deb to‘xtaldi. Yana kiraymi, yo‘qmi, deb ikkilanib turgandan keyin yurib, o‘zining hujrasiga keldi. Ammo Otabek to‘g‘risidagi tashvishi boyagidan o‘n qayta ortgan edi. Yechinib uxlarga yotgan bo‘lsa ham bekning xususi uni ko‘z yumgali qo‘ymadi. Bek to‘g‘risida har turlik xayollarga bormoqda edi. Yusufbek hojining: «O‘g‘lim yosh, sen dunyoning issiq-sovug‘ini tatig‘an va manim ishongan kishimsan. O‘g‘limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangdir», – deb ta’kidlashi, Otabekning onasi – O‘zbek oyimning yoshlig‘ ko‘z bilan: «Seni xudoga, Otamni senga topshirdim!» – deb yolborishlari, zorillashlari uning quloqlari ostida takrorlangandek bo‘lar edilar. Uxlab ketolmadi. Ko‘ynakchan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

egniga choponini yopinib o‘rnidan turdi, hujradan chiqib Otabek darichasi ostiga yana kelib o‘lturdi.

Tun ayoz, izg‘iriq yel to‘rt tarafka yugurib jon achitmakchi bo‘lar edi. Hasanali yarim yalang‘och holda junjayib daricha ostida, izg‘iriq quchog‘ida o‘lturar erdi. Ul yegan sovug‘iga iltifot etmas, vujudini izg‘iriqqa topshirib, fikrini hujra ichiga yuborgan edi. Hujra ichiga birmuncha quloq solib o‘lturgandan keyin, uzun tin olib boshini tirqishdan uzdi, Otabekning pishillab uxlagan tovushini eshitib bir darajada tinchlandi. Vasvasadan ariyozgan bo‘lsa ham o‘rnidan qo‘zg‘almadi, nima uchundir tag‘in ham sovuqqa junjib o‘ltira berdi. Oradan yana bir necha daqiqa fursat o‘tib, Hasanali tamom tinchlandi, ham turib ketmakchi bo‘ldi va shu holatda ichkaridan uyqusirash eshitdi:

– «Qora ko‘zlari, kamon qoshlari...»

– A-a-a, – dedi Hasanali va qaytadan qulog‘ini tirqishga olib bordi. Endi uning butun borlig‘i quloq bo‘lib aylangan, o‘zini unutib barcha diqqati hujra ichiga oqqan edi. O‘rtadan ko‘b fursat o‘tmadi, boyagi uyqusirash yana takrorlandi:

– «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar... Uff».

Hasanali uchun birinchida anglashilmay qolgan ma’nolar bu keyingi gap bilan yechildi. Hasanali endigi o‘lturishni ortiqcha topib o‘rnidan turdi, hujrasiga kirar ekan, boshini chayqab o‘zicha so‘zlandi:

– Bek oshiq!

O‘rni ustiga choponini yopdi-da, ko‘rpasi ichiga kirib o‘lturdi va «chindan oshiqmi?» degan savolni ko‘nglidan kechirdi. Tanish bo‘lmagan bir shaharda kimning bo‘lsa ham qiziga uchrashsin, besh-olti kun ichida bu yanglig‘ uyquda ham... masalaga bu jihat bilan qarab bekning ishqiga ishongisi kelmas edi. Ammo ikkinchi tomondan qulog‘i ostida bekning o‘z og‘zidan eshitilgan – «kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar...» jumlalari takrorlangandek bo‘lib xo‘jazodasidagi bir necha kunlik o‘zgarishka muhabbatdan boshqa hodisa, deb ma’no berolmas edi. Bu ikki turlik masalalarning o‘ng-tersini aylandirib muhokama qildi va o‘lchadi. Hasanalining o‘zi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

tarozuning ishonmaslik pallasida bo‘lsa ham – «kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar» hamon quloqlari ostida takrorlanar edilar. Tun tong otarga yaqinlashgan, uning uyqulik miyasi hech bir turlik bu muammoni yecha bilmas edi. Ko‘b o‘ylasa ham bir qarorga kela olmadi. Ammo ertaga bekning o‘zini sinab ko‘rmakchi bo‘lib ko‘zi uyquga ketdi.

Toshkand ustida qonliq bulutlar

Bu kunlarda Marg‘ilonda shunday xabar chiqib qoldi. «Toshkand hokimi bo‘lg‘an Azizbek Qo‘qong‘a qarshi bosh ko‘targan. Xon tomonidan xiroj (zakot, soliq) uchun yuborilg‘an devon beklarini o‘ldirgan!» Ikkinchi kun bu xabar tag‘i ham boshqacha to‘n kiydi: «Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo‘shib, Toshkand ustiga jo‘natqan!»

Bu xabarlar xalq tomonidan juda oddiy, ortiqcha sovuqqonlik bilan qarshi olindilar. Bu voqeaga hech kim ajabsinmadi va bunda favquloddalik ko‘rmadi. Xalq bunga haqli edi, chunki bunday tinchsizliklarni endi ko‘ra-ko‘ra juda ham o‘rganib qolgan, bu kun bo‘lmasa ertaga o‘zining botirboshisining, oftobachisining, xullas, kim bo‘lsa ham beklaridan birining shunday tinchsizlik chiqarishiga «mumkin va bo‘ladirg‘an ish» deb qarar edi. Ammo biz Otabekni bu to‘g‘rida xalq bilan birgalashtira olmaymiz. Chunki ul bu xabarga sovuqqonlik bilan qaray olmas edi va qaray olmadi. Bu xabarni eshitar ekan, yeb turgani og‘zida, yutkani bo‘g‘zida qoldi: bunday o‘zboshimchalik orqasidan o‘zining ochiq ko‘zi, o‘tkir zehni orqalik mudhish, falokatlik manzaralar ko‘rar, millatini – xalqini – musulmonini qo‘rqunch jar, tegsiz jahannam yoqasida, yiqilish oldida topar edi-da, seskanib: «O‘zing saqla, Tangrim!» – der edi. Bu xabarni eshitkandan so‘ng gangib esini yo‘qotdi. Yarasi yangilandi: oq bilan qorani ajratolmagan fuqaroning bir necha g‘arazgo‘y mustabidlar kayfi yo‘lida bir-birisining qoniga tashna bo‘lishlari va natijada istiqbolning vahm ko‘rinishlari!

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Shunday qayg‘ular ichida bo‘kib o‘lturar ekan, Hasanali qo‘lida bir maktub bilan hujraga kirdi. Maktubni Otabekka uzatib – «Toshkanddan emish, otangizdan bo‘lsa kerak» dedi. Otabek xatni ochdi: katta qog‘ozda, yo‘g‘on qalam bilan yozilgan uzun bir maktub edi. O‘qudi (aynan):

«Huvalboriy ...ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma’lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulilloh, biz duogo‘y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘stlaringiz munda Haq taoloning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo‘lib ko‘z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz. Janobi Haq bod fursatlarda, yaqin va sa’id soatlarda to‘kis-tugallik birlan diydor ko‘rishmakka nasib va ro‘zi qilsin, omin yo rabbulolamin. Ba’da so‘zimiz: o‘g‘lim, Marg‘ilong‘a sihhat va salomat yetish maktubingni olib haq taolog‘a shukurlar qildik. Bizning Toshkanddan ahvol so‘rasang, balki Marg‘ilong‘a ham eshitilgandir, munda Azizbek qandog‘dir bir kuchka tayanib Qo‘qong‘a isyon etdi. Xazina hisobini olish uchun kelg‘an devon beklarini o‘ldirib o‘rda darbozasiga osdi, bunga qarshi Qo‘qon ham tinch yotmag‘an bo‘lsa kerak. Bu kun Kirovchidan besh ming sipoh ila Normuhammad qushbegini Toshkand ustiga buyurilg‘anlig‘in eshitdik. Fuqaroning tag‘in qandog‘ ko‘rguliklari bor ekan, o‘g‘lim!

Kechagina qonliq qilichini fuqaro ustida yurguzib turg‘an Azizbekka uning tig‘i zulmi bilan qora qonig‘a belanilgan o‘g‘lining, otasining, onasining, og‘asining mazlum gavdasi tuproq ostida hali chirib bitmay turib bu kun xalq yana Azizbekka, o‘sha qonxo‘rg‘a o‘z qoni bilan yamin etdi; Azizbekni to o‘zining bir tomchi qoni qolg‘unchaliq himoya qilmoqqa ond ichdi. Azizbekning buyrug‘i bilan kecha o‘rda tegiga barcha Toshkand xalqi yig‘ilg‘an, bu yig‘inda ulamolar ham bor, fuzalo ham bor; xulosa, shaharning har bir sinfidan ham hozir edi. Azizbek o‘rda qorovulxonasidan turib fuqarog‘a salom qildi. Azizbekning salomiga musharraf bo‘lg‘unchilarning ko‘zlaridan yoshlar oqmoqda edi. O‘g‘lim, sen bir qadar oq bilan qorani ajrata olasan, yozg‘anlarimni diqqat bilan o‘qi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

O‘zbekiston xalq artisti Abbos Bakirov «O‘tkan kunlar» romani asosida suratga olingan filmda Yusufbek hoji rolida

Azizbek o‘rda darbozasig‘a osilg‘an ikki gavdani ko‘rsatib so‘radi:

«Fuqaro! Ko‘rasizmi bu ikki gunohkorni, nima uchun bu jazog‘a mustahiq bo‘ldilar?»

Xalq:

«Bilmaymiz, taqsir».

Azizbekning o‘zi javob berdi:

«Bular Musulmon cho‘loqni sarkardalaridan, qipchoqlarning yo‘lboshchilaridan va qora choponning dushmanlaridan bo‘lgan ikki to‘ng‘izning gavdalari! Men bularni siz qora chopon fuqarom tomonidan o‘ch uchun o‘ldirdim, siz qora chopon og‘aynilarning qipchoq qo‘lida shahid bo‘lg‘an qarindoshlaringizning ruhlarini shodlandirmoq uchun o‘ldirdim! Yoki bu harakatim adolatdan emasmi, fuqaro!»

Xalq javob berdi:

«Adolat! Xo‘b qilg‘ansiz, taqsir! Qipchoqlarning jazolari shunday bo‘lmog‘i kerak!»

Azizbek maqsadg‘a ko‘chdi:

«Siz qora choponliqlarg‘a xolisona qilg‘an bu xizmatimga qarshi, albatta, qipchoqlar qasdimg‘a tusharlar, meni Toshkand hokimligidan azl etmakchi va qo‘llaridan kelsa, hatto o‘ldirmakchi bo‘lurlar! Siz bu ehtimolga qandog‘ qaraysizlar?!»

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Xalq o‘zining quyidag‘i javobi bilan ko‘kni ko‘tardi:

«Bir tomchi qonimiz qolg‘uncha yo‘lingizda jon beramiz! Qipchoqlarda had bo‘lg‘aymiki, biz tirik turg‘an joyda sizning bir tola mo‘yingizni xam qilsinlar!»

Azizbek xalqqa tashakkur aytib yarasini yordi:

«Rahmat fuqaro! Eshitamanki, qipchoqlar Normuhammad qushbegi qo‘l ostida Toshkand ustiga harakat boshlag‘an emishlar. Bunga qarshi bizning hozirlanishimiz kerakmi, yo‘qmi, fuqaro?!»

Xalq:

«Kerak, albatta, kerak, taqsir! Agar ruxsat bersangiz, bu kundan boshlab qo‘rg‘onlarni tuzata beramiz!»

Azizbek:

«Rahmat fuqaro! Orqamda sizningdek fuqarom turg‘anda menga hech bir qayg‘u yo‘qdir!»

Xalq: «Siz omon bo‘lib osoyish o‘ltirsangiz, qipchoqqa yo‘l bermaymiz, taqsir! Qo‘rg‘on tuzatishka fotiha beringiz, taqsir!»

Azizbek fotiha berdi. Xalq urush hozirlig‘ig‘a kirishdi. Ana, o‘g‘lim, bizning xalqning holiga yig‘lashni ham bilmaysan, kulishni ham! Har holda Toshkand ustiga yana qonliq bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar – bu bir xudog‘ag‘ina ma’lumdir. Boshqa so‘zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o‘tayki, siyosat to‘g‘rilarida o‘ylanibroq so‘zla!

Arzimagan sabablar bilan talaf bo‘lgan jonlarni hamisha ko‘z oldingda tut! Sen bilan manim ko‘ngillarimizdagi yaratg‘uchig‘ag‘ina ma’lum bo‘lib, ammo Farg‘onada meni Azizbekning sherikidir, deb o‘ylashlari va seni bir fitnachining o‘g‘li, deb tanishlari ehtimoldan yiroq emasdir, shu jihatlarni mulohaza qilib oyog‘ bos! Bu tinchsizlik vaqtida sen bilan manim hayotimizning tahlika ostida bo‘lg‘anlig‘ini unutma! Shuni ham aytib qo‘yayki, bu tinchliksiz bosilmag‘uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir. Toshkand tinchlangandan keyin (agar salomat bo‘lsam) o‘zim xabar yuborurman. Munda barcha yor-u do‘st salomat, mendan Hasanaliga salom

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ayt! Addoyi[1] otang Yusufbek hoji. Toshkand, 27-dalv oyida 1264-yilda yozildi».

Otabek maktubni tugatib, tushunmay o‘tkan jumlalarini qayta ko‘zdan kechirar ekan, Azizbek voqeasi ustiga kelganda ixtiyorsiz «tulki» deb yubordi...

To‘y, qizlar majlisi

Qutidorning tashqarisiga er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to‘lganlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo‘sha sozandalar dutor, tanbur, g‘ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To‘y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qumtuproqdek ko‘b, biroq majlisning borishida tartib yo‘q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to‘lgan, qaysi havli yuzida bir tovoq oshni yeb o‘lturadir, kim yig‘lagan bolasini ovitish bilan ovora, birov yor-yor o‘qub, tag‘in bittasining quvonchi ichiga sig‘may xaxolab dunyoni buzadi, xullas, bag‘-bug‘ yetti qat ko‘kdan oshadir...

Oftob oyim qayg‘uliroq, tusi biroz siniqqansumon... Mehmon kutib charchaganidanmi, nimadan bo‘lsa ham, juda kalavlagan, ba’zan qiladirgan ishidan ham yanglishib ketkani, masalan, uyga kirmakchi bo‘lib tavanxonaga[2] kirib qolgani ko‘riladir. To‘yga kelgan xotinlarning «To‘ylar muborak, kuyav o‘g‘ul muborak!» deb so‘rashlariga ham ishonchsiz bir ohangda «Qutlug‘ bo‘lsin», deydir.

Oftob oyim donxonaning eshigidan turib xotinlar orasidan kimnidir o‘z yoniga chaqirdi. Yoshi ellidan oshgan, kulgusi ichiga to‘lib toshgan bir xotinni duvurdan[3] chiqib, o‘ziga qarab yurganini ko‘rgandan keyin donxonaga kirdi. Xotin ham ichkariga kirgach, Oftob oyim eshikni qiya bekladi-da, qayg‘ulik bir boqish bilan xotinga qaradi.

---

[1] Addoyi – duo qiluvchi, duogo‘y.

[2] Tavanxona – to‘ydagi dasturxonchilar xonasi.

[3] Duvur – davra.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Nega qayg‘uliq ko‘rinasan, Oftob?

Oftob oyim uzoq tin olib eshikka qaradi va yarim tovush bilan:

– Shu choqda ichimga charog‘ yoqsalar ham yorimaydirda, egachi, – dedi va ko‘ziga jiq yosh oldi.

– Nega?

– Qizim to‘g‘risidan...

– Qizingga nima bo‘ldi?

– Unashilg‘anig‘a bu kun yettinchi kun, – dedi Oftob oyim, – shundan beri Kumushingiz tun ham yig‘laydi, kun ham, sababini so‘rasam sira javob bermaydir-da, do‘lonadek ko‘z yoshisini oqiza beradir. Bu kun tag‘in yig‘isi oshib tushdi. Haytovur yalinib, yalpog‘lanib arang hammomga yubordiq.

Xotin Oftob oyimning bu gapidan hayron bo‘ldi va o‘ylab so‘radi:

– Nimabalo, kuyaving ko‘rksizmi?

– O‘zim ko‘rmadim, – dedi Oftob oyim, – ammo ko‘rguchilarning so‘zlariga qarag‘anda o‘xshashsiz ko‘rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish... Otasining o‘zi yigitni yaxshi ko‘rib kuyav qilg‘an edi.

– Kumushning o‘zi yigit to‘g‘risidan hech narsa bilmaydirmi?

– Biladir, – dedi oyim, uning oldida biz jo‘rttaga kuyavni maxtashamiz, lekin bu maxtovlarni eshitgusi kelmay, qaytag‘a yig‘isinig‘ina ortdiradir.

Xotinning ham bu gapdan hayrati ortdi va bundan qanday sir borligiga aqli yetmadi...

* * *

Qizlar majlisi – gullar, lolalar, to‘tilar, qumrilar majlisi! Bu uyda – Kumushbibining tog‘asining uyida qizlar majlisi, gullar majlisi!

Bu uyga o‘ttuz-qirq chamalik qizlar yig‘ilganlar, yig‘ilishdan maqsad: qizlar o‘zlarining eng latif, eng go‘zal bir a’zolarini bu kun kuyavga uzatmoqchilar. Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o‘tkazmak uchun barcha qizlar o‘zlarining eng

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqulodda yasanib, husn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar. Agar bu uyga kirib, bu majlis a'zolarini bir martaba ko'zdan kechirsangiz, hozirdanoq aytib qo'yish mumkinki, albatta, esingiz chiqib ketar:

– Bu gulmi, ko'hlik? Yo'q, narigisi! Undan ko'ra bunisi! Barisidan ham o'ttasi!.. Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorga kelolmay el ichida kulgiga ham qolursiz, rasvo ham bo'lursiz.

Mana, majlis a'zolari shunaqangi bir-birovidan o'toq malaklar, parilar edilar. Majlisning shoirlari, o'yinchilari, childirma va dutorchilari – barchasi ham hozir bo'lib, faqat Kumushbibigina hammomdan qaytmagan edi. Shuning uchun majlis ochilmagan, ochilsa ham ruhsizroq, Kumush kelgach, majliska ruh kirishiga barcha ishonadir va uni to'zimsizlanib kutadir.

Kimdir, oradan bittasi «kelishdi!» deb yubordi. Barcha qizlar uyning darichasi yoniga uymalashib havliga qaradilar. Chindan ham ul yonida ikki yangasi bilan kelgan edi. Shu choqda bizga Otabek kerak edi! Nega desangiz, ul kelsin edida, agar chindan ham shu qizni suygan bo'lsa – suyganini bir ko'rsin edi: hammom bilan ul... faqat jongina so'raydir, majruh ko'kslarga o'qqina otadir... Boshdag'i oq shohi ro'ymol, ichdagi oq shohi ko'ynak, ustdagi oq kumush zarrin sirilgan po'stin, baqbaqalarni o'rab o'pib turgan yoqa qunduzlarining kelishkani, solinib tushkan qora jinggila sochlarning bo'yin tevaragiga chirmashgani, xom nuqra yuzlarning bo'g'riqqani...

Yangalar Kumushni havlidan turib qizlarga topshirdilar:

– Mana Kumushbibi – sizlarga, qizlar! Kumushning ko'nglini yaxshilab ochinglar, qizlar!

Ikki-uch qiz chopib havliga tushdilar-da, Kumushbibidan paranjini olib uyga boshladilar. Yangalar Kumushni qizlarga topshirib ketdilar. Havli er va xotindan bo'sh, yolg'iz qizlargagina xoslanib qoldi.

Kumushbibi boshlaguchi qizlar bilan uyga kirdi, undan anqqan atir islari bilan uy to'ldi. Qizlar o'zlarining bir turlikkina so'zlashishlari bilan Kumush ila ko'risha boshladilar:

– Esonmisiz, sarupolar muborak?

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Kumushbibining qizlarga bergan javobi eshitilar-eshitilmaslik edi:

– Qutlug‘...

Kumushbibi uyning to‘riga o‘tquzildi. Qizlar uyning tevaragiga o‘lturishib olgandan keyin oraga nima uchundir bir jimjitlik kirdi...

Qizlar ipka chizilgan guldek uy tevaragini olganlar, buning ustiga yuvoshlik, o‘ychanlik ularning tuslariga ma’naviy bir husn va jiddiyat berib, birga yuz husn qo‘shgan edi. Agar biz shu kezda zarshunoslik uchun yeng shimarsak, ya’ni gulni guldan ajratadurgan bo‘lsak boyagidek esankirab, mutaraddid qolmaymiz, chunki Kumushbibi lolalar ichidagi bir gul va yo yulduzlar orasidagi to‘lgan oy edi.

Orada hamon boyagi jimjitlik hukm surar edi.

Har bir majlisning jonlandirguchi, idora qilguchi bir-ikki qahramoni bor bo‘lganidek, bu qizlar majlisi ham shunday qahramonlardan holi emas edi. Majlisni bunchalik ruhsizlanib, ma’yusiyat ichida qolishiga Gulsinbibi chidab turolmadi:

– Biz nima uchun yig‘ildiq-da, nimaga yer chizishib o‘lturamiz! – dedi. – Biz bu yerga aza ochqali keldikmi?

Gulsinning yoniga Xonimbibi qo‘shilishdi:

– Tur, Savra! Havlig‘a olov yoqib childirmangni qizit! Anorgul, sen dutoringni ol! Kumushbibi, siz uncha xayol surmang, kulib o‘lturing! – dedi-da, majlisni ost-ust kuldirib yubordi. Kumushbibi ham ixtiyorlik, ixtiyorsiz bu kulgulikka tortilib, uning yuvoshkina iljayishidan yoqutdek lablari ostidagi sadaf kabi oq tishlari biroz ko‘rinib qo‘ydilar.

Shundan keyin majliska kutilmagan bir ruh kirdi. Anorgulning qo‘lidagi dutor «O‘rtoqlar» kuyini tanlarga larza berib, tarona qildi. Xonimbibi qizlarga qistatib o‘lturmay o‘rnidan sakrab turdi-da, o‘ynab ham ketdi. Dutor yoniga childirmaning chertmagi kelib qo‘shilgandan keyin bazm tag‘in ham jonlandi. Chapaklar ham ko‘tarildi. O‘yin qizib borar edi, uning daricha eshiklari beklanib toqchalarga sham’ yoqilgandan so‘ng, bazmning ruhi yana oshdi. Yel bilan o‘ynashib yongan sham’ nuri qizlarni allaqanday ajib holatka qo‘ymoq-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

da, majlis ersa «Alf laylo»[1] hikoyalaridagi «parilar» bazmini xotirlatmoqda edi. Dutor «Ifor» kuyini chalib, childirma ham nozik yo‘l bilan unga qo‘shilisha bordi. O‘yin ham bir turlik nazokat kasb etib, Gulsinbibi yo‘rg‘alay ketdi. Dutor ko‘ngilning allaqanday ingichka joyini qitiqlaydir, childirma yurakni nimagadir oshiqdirib, Gulsin qizning yo‘rg‘alashi borliq a’zoni zirillatadir. Bazm juda qiziq, juda ko‘ngillik edi.

Kumushbibini ham bu qiziq bazmdan boshqalardek hissa oladir, suyinib quvonadir, deb o‘ylanmasin, chunki vujudi qizlar bazmi ichida bo‘lsa ham xayoli allaqayoqlarda uchib yurgandek, ko‘zlari o‘ynaguchi qizlarda bo‘lsa ham, ammo haqiqatda boshqa bir narsani ko‘rgandek... Ko‘rinishdan natija chiqarib aytkanda, bu qiziq majlis uning uchun bazm o‘rnini emas, aza joyini tutkandek...

Ikki soatlik qiziq bir bazmdan so‘ng qizlar charchadilar-da, o‘yinni to‘xtatdilar. Gulsin bilan Xonimbibi endi dutor bilan qo‘shiqqa o‘lturdilar. Gulsin o‘zining qo‘ng‘uroqdek tovushi bilan «Yig‘larman» kuyidan boshladi:

O‘rtoqlarim, qo‘lg‘a olsam torimni,
Beixtiyor yodlaydirman yorimni!

Ikkinchi qaytarib aytishda unga Xonimbibi qo‘shilishdi. Bir turlik, bir ohanglik nafis, musiqaviy tovushlar kishining borliq vujudiga, qon tomirlariga ajoyib bir o‘zgarish bergan edilar. Shu choqqacha mo‘ltayib, xayol ichida sho‘ng‘ib o‘lturgan Kumushbibi bir seskandi-da, qo‘shiqchi qizlarga qaradi.

Qizlar ikkinchi baytka o‘tdilar:

Bir ko‘rinib yag‘mo qilg‘an ko‘nglimni,
Qaytib yana ko‘rolmadim norimni!

Shu vaqt kutilmagan joyda Kumushning ikki ko‘zi jiq yoshga to‘lgan edi. Uchunchiga o‘tdilar:

Agar ko‘rsam edi yana yorimni,
Bag‘ishlardim hama yo‘q-u borimni!

[1] «Alf laylo» – bu yerda «Ming bir kecha» ertagi nazarda tutilmoqda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

To‘rtinchi:

Bilurmikin, bilmasmikin u zolim:
Kunlar-tunlar tortqan oh-u zorimni!

Kumush toqatsizlangan edi... Beshinchi:

Chindin ayting, o‘rtoqlarim, menga siz,
Qayta boshdan ko‘rarmanmi yorimni?

Keyingi:

Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar...
Sindirarman urib yerga torimni!

Bu keyingi baytka quloq solguchi qolmadi. Chunki yonidagi qizga osilib yig‘lay boshlagan Kumushbibiga har kim taajjubda, har kimning ko‘zi, qulog‘i shunda edi.

– Nima bo‘ldi, Kumush?

– Nega yig‘laysiz, Kumush opa?

– Birar joying og‘riydirmi, Kumush?

Kumushbibi o‘z ustiga duv yig‘ilgan qizlarga ko‘zini ochib qaradi-da, hushyor tortkanlardek bir harakat qilib qo‘ydi va tez-tez cho‘ntagidan ro‘ymolini olib ko‘zyoshisini quritdi...

Kumush juda xafa ko‘ringanlikdan uning ko‘nglini ochmoqqa to‘g‘ri kelar edi. Shuning uchun boshqa o‘yinlarni qo‘yaturib majlisning eng qiziq tarafi bo‘lib sanalgan lapar aytishka ko‘chdilar. Gulsin kuyav ro‘lini o‘ynar, Xonimbibi Kumush ro‘lida, ikkisining bir-birisiga qarab o‘qishgan laparlari barchani kuldirib, ichaklarni uzar darajada. Biroq Kumushning tishining oqini ko‘rish juda qiyin, uning hamma ishi faqat mungg‘ayib xayollanishgina...

Qizlarga to‘yxonadan oshlar, tavanlar[1] kelib tortildi. Oshdan keyin yangalar kelib, qizlardan Kumushni so‘radilar. Qizlarning, «Yo‘q, biz Kumushbibini sizlarga bermaymiz!» deb o‘ynab aytkan so‘zlari Kumushbibiga chindek bo‘lib eshitilar, yangalar bilan uydan chiqar ekan, ko‘mak so‘ragandek qizlarga termulib qarar edi...

[1] Tavan – xotinlar to‘yga olib keladigan noz-ne’matlar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Kutilmagan baxt

Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo‘ldi. Domlaning: «Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o‘zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘liga bag‘ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘liga topshirdingizmi?» degan so‘rog‘i olti, yetti qaytarilgandan keyin, shunda ham yangalar qistog‘i ostida arang uning rizoligi olindi.

Kechki soat beshlarda qutidorning havlisi to‘rt ko‘z bilan kuyav kelishini kutadir. Kuyav uchun palovlar, quyuq-suyuq oshlar, necha turlik ne’matlar hozirlanib, bular ham kuyavning intizorida turadirlar. Nihoyat, soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o‘ttiz chog‘liq yosh yigitlar – Rahmatning o‘rtoqlari, ular orasida Otabek – kuyav ko‘rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po‘stin, ichida o‘zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog‘ida qalapoy abzali, belida Kumushbibining usta qo‘li bilan tikilgan shohi qiyiq... Yuzlar qizil, og‘iz irpaygan, ko‘zlar o‘ynab allakimni qidiradir. Oshlarini yeb bo‘lsalar ham jo‘rttaga kuyav ko‘rish uchun o‘lturgan mahalla kishilari bir-birlarini turtishib: «Tuzuk-tuzuk, kuyavlikka arzigundek, chaki chakkiga tushmapti, olma-yu anor» deyishdilar. Tomda kuyav kutib o‘lturgan xotinlar ichidan Oftob oyimning egachisi oshiqib singlisi yoniga tushdi-da: «Oftob, darrav isiriq hozirla, kuyavingni yomon ko‘zdan o‘zi asrasin!» dedi. Qutidor eshik ostida qo‘l qovishtirib mehmonlarni kutib oladir, yer ostidan kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yadir. Mehmonxona ayvonida oq soqollik, ko‘rkam siymo va og‘ir tabiatlik domla bilan Ziyo shohichi, Hasanali, qiz vakili va tag‘in bir necha kishilar o‘lturadilar. Yigitlar kuyavni domlalar qarshisiga kelturib to‘xtatgandan keyin Otabek vakili bo‘lgan Ziyo shohichi bilan Kumush qiz vakili Muhammadrahim oralarida mahr masalasi ochiladir. Ko‘b tortishgandan so‘ng quyidagi mablag‘lar mahr qilib belgulanadirlar: uch yuz oltin pul, mundan keyin olib berish va’dasi bilan Marg‘ilondan o‘radek bir havli, sog‘ish

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

uchun sigir, asbobi ro‘zgor... Bunga Otabek ham o‘z rizoligini bildiradir. Domla xutba boshlaydir. Forsiycha o‘qulgan hamd, salovot va boshqalardan so‘ng xutba eng nozik bir o‘ringa kelib to‘xtaydir: «Sizkim Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li Kumushbibi Mirzakarim qizini o‘zingizga shar’iy xotinliqqa qabul qilasizmi?» – fors tilida so‘ralgan bu savol Otabekning kulgusini qistatib, ko‘nglidan kechiradir:

– Qabul qilasizmi-ya?

Ul birinchi so‘roqdayoq «uchib, qo‘nib qabul qilamiz» deb javob bermakchi bo‘lsa ham, biroq xalqning «o‘lib turg‘an ekan» deb qiladigan ta’nasidan cho‘chib, javob bermaydir. Yana bir qayta yuqoridagi «siz kim falonchi...» jumlasi domla tarafidan takrorlanadir. Kuyavlarga uchunchi so‘roqda javob berish odat hukmida bo‘lsa ham, Otabek bu takallufka chidalmaydir. Go‘yo uchinchi so‘roq o‘rniga «Endi olmas ekansiz Kumushbibini...» deb majlis buziladirgandek seziladir-da, hamma tovushini qo‘yib, barchaga eshitdirib «Qabul qildik!» deb yuboradir.

Domla alhamdulilloh, alhamdulilloh... bilan nikohni tugatib majlis tomonidan kelin bilan kuyavning haqlariga duo boshlanadir, hamma duoga qo‘l ko‘tarib, hatto tomdagi tomoshachi xotinlargacha «omin»ga ko‘maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir. Yigitlar kuyavni mehmonxonaga olib kiradirlar, ziyofat boshlanadir.

Otabekda bir daqiqaga bo‘lsin to‘zim bo‘lmagan bir vaqtda bir necha soatlarga qarab cho‘zilgan bu tomoq majlisi bilan, albatta, ul yaxshi chiqisha olmaydir. Xuftanga yaqin bana’ji bir ishtaha bilan yeyilib bo‘shatilgan lagan, tovoqlar olinib dasturxonlar yig‘ildi. Bizningcha, bir yarim soat, Otabekcha allaqancha yil hisoblangan bir fursat o‘tib, nihoyat, yangalar kuyav so‘radilar. Ikki yoshga muhabbatlik umr so‘rab fotiha o‘qilgandan so‘ng Otabek ichkariga uzatildi.

Hasanali mehmonxona ayvonida bekni kutib turar edi:

– Endi kuyavlik muborak bo‘lsin, begim?

– Qutlug‘ bo‘lsin.

Hasanali boshdan-oyoq bekni kuzatdi, otaliq muhabbati bilan bekning orqasini siladi va yoshli ko‘zlari bilan duo

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

qilib unga ruxsat berdi. Otabek yangalar kutib turgan tarafka yurdi. Ul hozir qiziq holatda edi: bu nima gap, tushimi, o‘ngimi, nima gaplar o‘tib, nimalar bo‘lmoqda, bo‘lib turgan ish haqiqatmi?

Biz ichkariga kiramiz: havlining ikki tomoni to Kumushbibining uyigacha qator kuyav kutkan xotinlar, bola-chaqalar bilan to‘lgan. Ba’zan kutkuchi xotinlarning qo‘lida yonib turg‘an sham’, kuyav tushadirgan uy to‘y mollari bilan juda ham bejalgan. Yuqorida yozilib o‘tilgan qutidor uyining aksar jihozlari shu uyga, Kumush qiz uyiga ko‘chirilgan. Bir bulargina emas, xotin-qizlar qo‘li bilan chatib ishlangan turlik ziynat chodirlari bilan ham bejalgan, shipda katta qandil, qandilda o‘ttuzlab sham’lar yonib uyni sirlik bir holatka qo‘yadirlar. Burchakda qizlar majlisida ko‘rilgan oq kiyimlar bilan Kumushbibi turadir... Uning husni bejalgan uyning oqlari, ko‘klari, sariqlari va qizillari bilan tovlanib xayoliy bir siymoda... Ko‘z yoshlarini oquzib yangasining so‘ziga quloq osmaydir. Tashqaridan eshitilgan «Kuyav! Kuyav!» so‘zi bilan tag‘in ham uning ko‘z yoshisi ko‘payib tusi ham o‘zgardi. Yangasi Kumushni shu holda qoldirib o‘zi yugurganicha eshikka chiqdi. Kuyav kelar edi: ikki tomonni sirib olgan xotin-qizlar o‘rtasidan Otabek kelar edi. Uning ketidan Oftob oyimning egachisi isiriq tutatar edi. Xotinlar qo‘llarida sham’ bilan unga qarar va kuzatib qolur edilar. Kuyav uyning yoniga yetdi. Uning yuzi uyatidan juda qizargan, qochgali joy topolmas edi. Shu kezda uyning eshigi ochildi-da, yanga tomonidan qarshilandi.

– Kiringiz, bek.

Otabekning yurak urishi, ehtimol, yangasiga ham eshitilar edi... Otabek uyga kirgandan keyin yangasi tashqari chiqib, eshikni o‘zi ko‘rarlik qiya qilib yopdi... Uyning to‘rida yonini Otabekka berib ro‘ymolining uchini tugibmi, yirtibmi Kumushbibi turadir va kim keldi, deb yoniga qaramaydir. Ro‘ymol tugish bilan mashg‘ul latif qo‘llarni chet qo‘l kelib siqdi:

– Jonim!

Kumushbibi begona qo‘ldan seskandi va qo‘llarini qutqazmoqqa tirishib:

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

O‘zbekiston xalq artisti Gulchehra Jamilova «O‘tkan kunlar» romani asosida suratga olingan filmda Kumush rolida

– Ushlamangiz, – dedi ham siquvchi qo‘ldan qutulish uchun orqaga tislandi. Titragan va qovjiragan bir tovushda:

– Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? – dedi bek. Kumushbibi shu choqqacha qaramagan va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda birmuncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlangan bir tovush bilan so‘radi:

– Siz o‘shami?

– Men o‘sha, – dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar. Kumushbibi og‘ir tin olib:

– Ko‘zlarimga ishonmayman, – dedi. Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab:

– Men ham, – dedi...

Kumushbibi Otabekning yuziga uzoq tikilib turdi-da:

– Kutilmagan bir baxt, – dedi va o‘zining otidek bir narsaning tovushi kabi qilib kulib yubordi. Bu kulish havlilargacha eshitildi. Qiya ochilib turg‘an uy eshigi ham qattiqqina beklandi...

* * *

Otabek Marg‘ilon kelganning ikkinchi kuni poyabzal bozorida bo‘lgan edi. Asr namozning vaqti o‘tib borganliqdan ul

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

shundagi do‘kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so‘radi. Ko‘chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do‘kondor unga suvning qulay o‘rnini ko‘rsatdi: «Mana shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib tahorat olursiz», dedi. Otabek do‘kondorning ko‘rsatishicha, qutidorning tashqarisiga kirdi. Shu vaqt tasodifan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib kelguchi farishtaga ko‘zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to‘xtagan chingilin[1] yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayriixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt ko‘z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho‘chigandek bo‘ldi, yengilgina bir harakat bilan o‘zini ichkari yo‘lak tomonga burdi. Bu burilishdan uning orqa-o‘ngini tutib yotgan qirq kokillari to‘lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo‘l ustidan ariq-bo‘yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo‘ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirda ko‘zini katta ochib o‘tkan daqiqada uchrashgani xayoliy go‘zalni istab xayollandi. Biroq haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo‘yiga o‘lturdi. Ammo ko‘zi xayol yashiringan yo‘lakda edi. Tahoratlanib bo‘ldi, yana ko‘zini o‘sha tarafdan uzolmadi. Artinib olgandan keyin yana oyoq ustida to‘xtab qoldi. Yashiringan go‘zal ikkinchi qayta ko‘rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog‘lab, o‘zi qaysi burchakdan bo‘lsa ham asirini tamosha qilar edi.

Ko‘b kutdi, asr namozini qazo qilib kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mojarosi tug‘ilgan edikim, bu yog‘i o‘quvchimizga ma’lumdir. Kumushbibining yuqorida «Siz o‘shami!» deb so‘rashi shunga binoan bo‘lib, ammo unga masalaning anglashilmay qolishi va chin baxtni bil’aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari qovishish bilan natijalandi.

[1] Chingilin – kelishgan, ko‘rkam.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yusufbek Hoji

Rayimbek dodxohning yonidagi bizga tanish olabayroq to‘nlik kishi Hasanalini ko‘rishi hamono:

– Ha-a-a, bizning Hasanali-ku! – dedi, – kel, Hasan, ko‘rishaylik, Otabek esonmi?

Hasanali kelib ko‘rishdi, Yusufbek hoji ko‘rishar ekan, Azizbekka dedi:

– Bu bizning kishimiz, taqsir, Marg‘ilondan keladir.

Azizbek labini tishlab qoldi. Chunki darboza taqillatib, otini hurkitkan Hasanalini jallodga topshirish niyati, albatta, yo‘q emas edi. Yusufbek hojining so‘ziga javob bermay yo‘lida davom etdi. Hasanali sipohlar orqasidan, Yusufbek hoji Azizbek ketidan o‘rdaga qarab yurdilar. O‘rda darbozasiga yetkandan keyin kutib turgan o‘rda begi Azizbekning qo‘ltig‘idan olib otdan tushirdi. Azizbek o‘rda ichiga kirmakda ekan, Yusufbek hoji otdan qo‘nib so‘radi:

– Menga ruxsatmi, bek?

Azizbek yo‘l ustidan hojiga qaradi:

– Ruxsat, ertaga choyni o‘rdaga kelib iching.

– Yaxshi, taqsir.

Yusufbek hoji sipohlardan birining qo‘ltiqlashi bilan otiga minib, narida kutib turgan Hasanaliga qarab yurdi. Sipohlar ham o‘rda ichiga ot yetaklashib kira boshladilar.

Yusufbek hoji Hasanalining vaqtsiz ham Otabekka qaytishidan tashvishlangan va qanday bo‘lsa ham bir falokat yuz berganiga ishongan edi:

– Nega vaqtsiz kelding, Otabek sog‘mi? – deb so‘radi.

Yusufbek hoji Hasanaliga yetmasdanoq bu savolni berdi, Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga solindimi, har nechuk javob bermadi.

– Nega indamaysan?

– Otabek salomat...

– Bo‘lmasa, nega vaqtsiz kelding, Otabek qani?

Otabekning qamalishidan xabar berish Hasanali uchun juda og‘ir tuyulgan edi. Nihoyat ko‘zidagi yoshini artdi-da:

– Otabek Marg‘ilon hokimi tarafidan qamaldi, – dedi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Nega, nega? – dedi hoji, otidan sachrab yiqilishga yetkan edi. – Sababi nima?

– Sababi ma'lum emas.

– Astag'firulloh, – deb qo'ydi hoji, o'zini biroz to'xtatgan edi.

Hasanali Otabekning Marg'ilon borg'anidan tortib, qamalishigacha bo'lg'an hikoyalarini so'zlab ketdi. Yusufbek hoji bekning uylanishini ham oddiy gaplar qatorida eshitib o'tkardi.

– Marg'ilonda turib bir ish chiqarishg'a ko'zim yetmagandan keyin Toshkand kelishka majbur bo'ldim, – dedi Hasanali va shu gap bilan mojaroni so'zlab tugatdi. Hoji voqeani eshitib, chuqur bir mulohaza ichida borar edi. Uning qanday kishi bo'lganini Toshkandning yetti yosharidan yetmish yosharigacha bilganlikdan guzar va mahallalarda unga duch kelgan kishilar joylaridan turib salom berarlar, hoji bo'lsa javob qaytarishni bilmas, go'yo kishilarni ham ko'rmas edi. Nihoyat shu holda ko'b yurgach, orqasida kelmakda bo'lgan Hasanaliga qarab otining boshini burdi va:

– Otabek bilan birga qamalg'anlarni necha kishi deding? – deb so'radi.

– Uch kishi: biri – Mirzakarim qutidor; ikkinchi – Ziyo shohichi; uchunchi – Rahmat.

– Yaxshi, sen bu to'rtavining o'lturishlarida bo'lg'anmiding?

– Bo'lg'an edim.

– Nima va qaysi to'g'rilarda so'zlashdilar, Otabek qipchoqlarg'a qarshi so'zlamadimi?

– So'zlamadi. Boshqalarning ham bu to'g'rida so'zlari bo'lmadi.

– Ularning majlislarida bo'lmagan vaqting ham bo'ldimi?

– Har bir o'lturishlarida men hozir edim.

– Yaxshi, sen ular bilan qay yerlarda o'lturishding?

– Birinchi martaba Ziyo akanikida bo'ldiq, ikkinchi...

– To'xta, Ziyo akanikida mehmonlar necha kishi edilar?

– Qutidor, Otabek, andijonlik Akram hoji, men, Ziyo akaning qaynisi – Homid degan birav. Ziyo aka va uning o'g'li... Hammasi yetti kishi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yusufbek hoji otining yolini qamchisi bilan tarar ekan, uch-to‘rt daqiqa o‘ylab qolib, so‘ngra so‘radi:

– Ikkinchi o‘lturish qayerda bo‘ldi?

– Ikkinchi o‘lturish Ziyo akanikidan ikki kun so‘ng qutidornikida bo‘ldi. Bu majlisda ham o‘sha birinchidagi kishilar edilar. Yolg‘iz Homid yo‘q edi.

– Tag‘in qayerda o‘lturishdingiz?

– Boshqa joyda o‘lturishmadik... Mundan yigirma kundan keyin to‘y bo‘ldi. To‘yda, albatta, bunday so‘zlar gapurishilmaydir.

– Ikkinchi majlisingizda kim hali, Homid dedingmi, nega yo‘q edi?

– Bilmadim, nega yo‘q edi... Qutidor aytmagan bo‘lsa kerak.

– Qamalg‘uchilar: Otabek, qutidor, Ziyo aka, Rahmat, shundog‘mi?

– Shundog‘, hoji.

– Seni ham qo‘rboshi yigitlari qidirdilar?

– Qidirdilar.

– Akram hoji Andijon ketkan edi. Shuning uchun uni topolmadilar, shundog‘mi?

– Shundog‘.

– Homidni-chi?

– Uni qidirmadilar, shekillik... Otabek qamalg‘andan so‘ng allaqayerda ko‘rgandek bo‘laman.

– Bizga kelin bo‘lmishni go‘zal, dedingmi?

– Ilohi Otabek salomat qutilsin, muhabbat qo‘yg‘anicha bor...

– Kelinning suluvligi Marg‘ilonda ma’lum ekanmi?

– Ma’lum ekan, tillarda doston ekan.

– Homid uylangan yigitmi, bildingmi?

– Uylangan. Bizning hujraga kelganda, ikki xotini borlig‘ini o‘z og‘zidan eshitkan edik.

– Homid sizning hujraga nima uchun kelgan edi? – deb so‘radi hoji, – nega buni boya so‘zlamagan eding?

– Esimdan chiqibdir, – deb uzr aytdi Hasan, – Homid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyo akanikiga taklif qilg‘ali

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

kelgan edi va biz ularga osh-suv qilib jo‘natqan edik. Ammo ularning unday-bunday so‘zlari bo‘lmag‘an, to‘g‘rilikcha kelib ketkan edilar.

– Yaxshi, o‘sha Homidni sen qanday odam, deb o‘ylaysan?

– Qo‘lansa so‘zlik, ichi qoraroq bir yigit edi, – dedi Hasanali, biroz borgach so‘radi. – Otabekning ishini og‘ir, deb o‘ylamassiz?

Hoji javob bermadi. Ul javob bergali ham qo‘rqar edi. Uningcha, ish juda nozik, g‘oyatda qo‘rqunch edi. Chunki Marg‘ilon zindonida yotguchi qipchoq dushmani bo‘lgan Azizbek otalig‘ining o‘g‘li edi. Toshkandning isyon chiqargan bir zamonida Otabekdek bir yigitning Marg‘ilonda qanday gunoh bilan bo‘lsa-bo‘lsin ushlanishi har jihatdan ham mudhish edi.

Ul o‘g‘lining qutulishi yo‘lida har bir mulohaza ko‘chasiga kirib chiqmoqda, ammo har birisidan ham bo‘sh va umidsiz qaytmoqda edi. Eng so‘ng o‘g‘liga hujum qilgan bu falokatning tadbiridan aqli ojiz qoldi, miyasi ishlashdan to‘xtadi va shundan so‘ng: «Parvardigoro, keksaygan kunlarimda dog‘ini ko‘rsatma», – dedi va ko‘z yoshlari bilan soqolini yuvdi.

– Hasanali, zinhor uning qamalg‘anini onasi bilmasin.

– Albatta.

Shundan so‘ng otlarini yetaklashib ichkariga kirdilar.

Hukmnoma

O‘tkir, qonsiragan xanjarini beliga osib, oyboltasini ko‘targan jallod qushbegining hukmiga muntazir edi. Qushbegining o‘ng tomonida qo‘rboshidan tortib shahar a’yonlari, qarshisida Otabek, qutidor, Ziyo shohichi va uning o‘g‘li Rahmat – gunohkorlar va ularning orqasida muhofiz yigitlar. Otabek bilan qutidorning gunohlari ulug‘ bo‘lganlikdan qo‘llarida kishan, Ziyo aka bilan Rahmatning qo‘llarida bu narsa yo‘q edi. Qutidorning yuziga o‘lik tusi kirgan, Otabek bo‘lsa garangsigan qiyofatda. Anovilar o‘zlarini birmuncha tetik tutmoqda edilar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Qushbegi o‘zining yozilib qo‘yilgan hukmnomasini qo‘liga olib o‘qishga hozirlandi. Hamma tip-tinch, yerga qaragan edi:

«Menkim, Marg‘ilon hokimi O‘tabboy qushbegi, o‘z hukmimni xoqon ibni xoqon janobi oliy Xudoyorxon ismi sharif-laridan eshitdiraman...»

Xudoyor ismini eshitkuchi a’yon uning ta’zimi uchun o‘rinlaridan turib yana o‘lturdilar.

Qushbegi hukmini o‘qudi: «E’timodlik bir kishining shahodatiga binoan toshkandlik Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek, bu kunda xonimizg‘a qarshi bosh ko‘targan Aziz parvonachi va o‘z otasining vakolatlari bilan Marg‘ilon kelib, bu yerdagi fuqarolarni ham xon janobig‘a qarshi oyoqlandirmoqchi bo‘lg‘an Otabekning bu harakati ululamir bo‘lg‘an janobga bog‘iyliq[1] bo‘lib, uni, ya’ni Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lini o‘lim jazosi bilan jazolash taqozo etadir. Ikkinchi, Otabekka yo‘lda ko‘makchi bo‘lib yurgan Marg‘ilon fuqarosi Mirzakarim qutidor ham shu jazoga sazovor tutiladir. Ziyo shohichi bilan o‘g‘li Rahmat bu bog‘iyliqdan xabardor bo‘laturib, vaqtida hukumatka ma’lum qilmag‘anlari uchun bir yildan zindon jazosiga mahkum bo‘lurlar!»

– Haqsiz jazo, – deb Otabek kulimsirab qo‘ydi...

Qutidor bo‘lsa chin o‘lik tusiga kirgan edi.

Ziyo aka bilan o‘g‘li zindong‘a jo‘natildilar va Otabek bilan qutidor jallod qo‘liga topshirildilar-da, shuning ila hukm majlisi tamom bo‘ldi.

Oradan o‘n daqiqa chamasi fursat kechkan edi, qushbegining a’yonga so‘zlab o‘lturgan hikoyasini tezroq bitishini kutmakda bo‘lgan qo‘rboshi nihoyat chidolmay o‘rnidan turdi va:

– Dor ostig‘a borib hukm ijrosi vaqtida hozir turishimg‘a ijozatlari bo‘ladirmi? – deb so‘radi. Ul bu so‘zni tugatar-tugatmas o‘rda qorovuli Pirmat ko‘rindi-da, qushbegiga qulluq qildi:

– Bir xotin kishi arzim bor deydir, kirsinmi?

Qushbegi qo‘rboshig‘a ruxsat ishorasini berib, Pirmatga dedi:

[1] B o g‘ i y l i q – isyonkorlik.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Kirsin.

O‘xshamagan yerda bir xotinning arzga kelishi qo‘rboshining ko‘ngliga shubha soldi. Majhula xotinning qanday arzi bo‘lganligini bilib ketishga tilasa ham qushbegidan ruxsat olib qo‘ygani uchun mahkamadan chiqishga majbur edi. Qo‘rboshi mahkama eshigidan dahlizga chiqar ekan, eskigina paranjiga o‘ralgan bir xotin qushbegi to‘g‘risiga to‘xtab, bukilib ta’zim qildi. Xotinda hayajon va entikish holatlari bor edi. Shuning uchun qo‘rboshining boyagi shubhasi yana kuchaydi, qushbegining ko‘zidan yo‘qolib turish maqsadida o‘zini eshikning orqasiga olib ketmay to‘xtadi.

Xotin shoshilib kavshini yechdi-da, eshik ostida nimanidir paranji ichidan axtarindi. Xotinning bu harakatiga tushunolmay ajablangan qushbegi:

– Ichkariga kirib arzingizni so‘zlang, opa, – dedi.

Xotin ichkariga kirdi va qushbegi oldiga borib unga nimadir berdi-da, orqasiga qaytib eshik yoniga kelib turdi. Xotinning berib ketkan narsasi uch-to‘rt buklangan bir qog‘oz edi. Qushbegi sekin-sekin qog‘oz taxtlarini ocha boshladi...

– Xudo rizosi uchun tezroq. Yo‘qsa... ikki gunohsizning qonlariga botarsiz!

Xotinning bu so‘zidan a’yon bir-birlariga qarashdilar. Qushbegi tez-tez qog‘oz taxlarini ochib bitirdi va yo‘g‘on qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni o‘qimoqqa oldi. Maktubni o‘qib chiqish uzoqqa cho‘zilganlikdan nihoyatda toqatsizlashgan edi. Oxirda qushbegi maktubning so‘ngrog‘iga kelib to‘xtadi-da, chaqirdi:

– Pirmat, Pirmat!

Pirmat yugurib kirdi.

– Labbay, taqsir!

Qushbegining tovushida shu choqqacha eshitilmagan bir holat bor edi:

– Darrov haligi osilish uchun yuborilg‘an gunohkorlarning orqasidan ot bilan yugir! Dor ostidan bo‘lsa ham qaytarib kel! Buyrug‘imni qo‘rboshig‘a aytsang unar!

Pirmat qulluq qilib dahliz tomonga qaradi:

– Qo‘rboshi ham shu yerdalar, – dedi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Chaqir!

Dahlizdan qo‘rboshi kirib qulluq qildi.

– Xizmat, taqsir.

– Yaxshi, siz ketmagan ekansiz, – dedi qushbegi, – Pirmat bilan borib, darhol boyag‘i gunohkorlarni qaytarib kelingiz.

Shubhasini bekorga bo‘lmaganini sezgan qo‘rboshi yonida tik turguchi xotinga qarab oldi:

– Sabab, taqsir?

– Sababini surishtiradigan vaqt emas, chop dedim, chop!

Qo‘rboshi qulluq qilib Pirmat bilan chiqdi. Uning keyinidan qushbegi «padar la’nat» deb so‘kinib a’yonlarga qaradi. Endi xotinning hayajoni biroz bosila tushkan edi. Qushbegi qo‘lidagi xatni yana o‘qishga tutindi. A’yoni shahar buncha-lik ishka yaragan qushbegining qo‘lidagi maktubga va uni keltirguchi xotinga qarashmoqda edilar. Qushbegi maktubni ikkinchi martaba o‘qib chiqib xotinga qaradi:

– O‘lturingiz, singlim, – dedi.

Xotin o‘ltirmakchi bo‘lgan edi paranji ichidan uning atlas ko‘ylaklari va nafis oq qo‘llari ko‘rinib ketdi. Qushbegi yer ostidan xotinni kuzatdi-da, qo‘lidagi maktubning orqa, o‘ngini tekshirib qaradi. Maktub anchagina uringan, qog‘ozi shaloq-langan edi. So‘ngra xotindan so‘radi:

– Qutidor bilan Otabekning kimi bo‘lasiz, singlim?

– Qutidorning qizi, Otabekning xotini.

Bu so‘zni eshitkuchi a’yon bir-birlariga qarashib qo‘ydilar.

– Buni nega ilgariroq olib kelmadingiz?

Qushbegining bu savolidan Kumushbibi qo‘rqunch bir ma’noni angladi. Go‘yo «ish o‘tkan so‘ng kelibsan» degandek tushungan edi. Shuning uchun ul titroq bir ovoz bilan so‘radi:

– Endi yaramaydimi?

– Yo‘q, yo‘q, qizim, – dedi qushbegi, – men nega kecha va o‘tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman.

Kumushbibi bir entikib qo‘ydi va o‘zini to‘xtatib:

– O‘zim ham bu maktubni shu bukun ko‘rdim, – dedi.

– Maktubni ilgari ko‘rmagan edingizmi?

– Ko‘rmagan edim.

– Maktub qayerda ekan?

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Uning eski kamzulining cho‘ntagida ekan.

Shu gapdan keyin qushbegi maktubni o‘ziga yaqin o‘lturgan Azim ponsad boshiga uzatdi:

– Siz ham o‘qub ko‘ring-chi, ponsad, – dedi va Kumushdan so‘radi, – o‘qug‘anmisiz?

– O‘qug‘anman.

– Eringizning hukumatka qarshi harakatini ilgari ham bilar edingizmi?

– Qanaqa harakatini?

– Masalan, biz otangiz bilan eringizni nima uchun osmoqchi bo‘ldiq?

– Haqsiz, gunohsiz!

– Bu maktub bilan eringizni o‘limdan qutila olishini sizga kim aytdi?

– O‘zim bildim.

– Bo‘lmasa ilgaridan eringizning o‘sha harakatini ham bilar ekansiz-da?

– Yo‘q, taqsir, – dedi Kumush. Qushbegining maqsadiga endi tushunib olgan edi, – men onam bilan to shu kungacha ularning nima gunoh bilan qamalg‘anlarini bilolmay hasratda edik. Faqat bu kun kishilarning og‘zidan eshitib bildikki, siz uni Toshkanddan isyon chiqarg‘ali kelguchi, deb gunohkor qilur ekansiz. Onam bilan manim baxtimga kutmagan joydan mo‘jizadek bu maktub topildi-da, men xizmatingizga yugirdim... – Kumush so‘zini tugata olmadi, chopishidan hallos lagan Pirmat dahlizdan ko‘rinib, bekka qulluq qildi:

– Dor yonidan qaytishdilar!

Kumushbibi sachrab Pirmatning yuziga qaradi va uzoq tin olib qo‘ydi. Shu choqqacha xat o‘qib o‘lturgan ponsadboshi maktubdan yaxshi asarlangan edi. Maktubni yonidagiga berar ekan, qushbegiga dedi:

– Bu xat toshkandlik Yusufbek to‘g‘risidagi fikrimizni tamom o‘zgartadir, taqsir! Uning Azizbek tomonliq bir kishi ekanligi Farg‘onaning har bir xos va omi og‘zida naql qilinsa ham ammo hech bir kimsa uning ichiga kirib chiqmagandir. Har kimning ko‘nglidagini yolg‘iz bir xudodan boshqa kim bilsin!

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

O‘zbekiston xalq artisti O‘lmas Alixo‘jayev «O‘tkan kunlar» romani asosida suratga olingan filmda Otabek rolida

«Yov qochsa botir ko‘payar» qabilidan shu choqqacha lom demay o‘lturgan shahar a’yonlari ham masalani anglab, so‘zga aralasha ketdilar:

– Xudo haqni nohaq qilmadi, bechora yosh yigitning haqsizga qoni to‘kilmadi.

– Qutidordek qo‘ymizoj bir odamning bunday zo‘r ishka oralashqanlig‘iga aql ham bovar qilmas edi.

Go‘yo bu so‘zlar Kumushbibining o‘chkan charog‘ini qaytadan yoqarlar, umid osmonining yo‘qolib, yashirinib ketkan yulduzlari yana qaytadan o‘z o‘rinlariga kelib qo‘ngandek bo‘lurlar, uning ko‘z o‘ngida joy olgan qoraliqlar shu yoqila boshlagan najot sham’lari partavi bilan o‘z-o‘zlaridan yo‘qolgandek ko‘rinarlar edi.

Dahliz eshigi ostida bir durkum oyoq tovushlari eshitilib qo‘rboshi ko‘rindi.

– Kelishdilar, taqsir, kirsinlarmi?

Qushbegi javob berish o‘rniga maktubni olib ko‘rpacha ostiga yashirdi va Kumushbibini tanbehladi: «Majlisda manim ruxsatimdan boshqa so‘zlashingiz otangiz bilan eringizning o‘limlarini tilashingizdir, tushundingizmi?» Kumush qabul

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ifodasini bergandan so‘ng qushbegi dahlizda qarab turgan qo‘rboshiga «Kirsinlar» dedi.

Kumushbibi ularni boya yo‘l ustida, yigitlar orasida ko‘rgan bo‘lsa ham, biroq dahshat ichida faqat o‘rdaga qarab yugira bergan edi. Endi «Kirsinlar» jumlasini eshitgach, yuragi ortiqcha shopirinib ketdi, uning istiqboliga turishni va bo‘yniga osilib yig‘lashni tilasa-da, qarshisidagi «olabo‘jilar» bunga mone’ edilar. Shu vaqt yigitlar oldida, qo‘llarida kishan bo‘lgani holda Otabek bilan qutidor kirdilar.

– Yigitlar, siz chiqingiz! Qo‘rboshi, siz kishanlarni yechingiz! – deb buyurdi qushbegi. O‘zining mundan keyingi ko‘rguliklarini fojialar vodiysida ko‘rgan qo‘rboshi boshlab kishan kalidini qutidor qo‘liga soldi. Kalidni burar ekan, uning qo‘li dir-dir qaltiramoqda edi. Homidning noma’lum bir g‘arazi yo‘lida qurbon qilinayozgan va bu g‘arazda o‘zining ham ishtirokining borligiga qoyil bo‘lgan qo‘rboshi ishni bu yanglig‘ akslanishidan sirning ochilganini muqarrar bilib, o‘zini shu soat jallod qo‘liga topshirilishini aniq kutmakda edi. Ming balo bilan qutidor qo‘lini bo‘shatib, gal Otabekka yetdi. Otabek qo‘llarini bo‘shatguchi qo‘rboshining bunchalik titrab, qaltirashidan o‘z raqiblaridan bittasi shu kishi bo‘lganini o‘yladi. Garchi o‘zining najoti hali qorong‘i ersada, qo‘rboshini bir sinab ko‘rish uchun hamma kuchini ikki ko‘ziga yig‘di-da, unga qaradi. Favqulodda dahshat kasb etkan uning ko‘zlari qarshisida qo‘rboshining gunohkor ko‘zlari chiday olmadilar-da, yerga boqdilar, Otabekning bu sinashi o‘z fikrining to‘g‘ri bo‘lishi bilan natijalandi.

Qushbegining buyrug‘i bilan ikki gunohkor tiz bukib o‘lturdilar. Qo‘rboshi ham to‘rbasini yo‘qotqan gadoydek qushbegining chap yoniga, Kumushbibining yuqorisiga borib o‘lturdi. Otabek va qutidorning ko‘zlari Kumushbibiga tushkan bo‘lsa ham, o‘z qayg‘ulari bilan bo‘lib unga iltifot qilmaganlar, hokim mahkamasida paranjilik xotinning nima qilib yurganligidagi favquloddalik ham eslariga kelmagan edi. Dor ostidan qaytish siri, qo‘ldan kishanlarni olinish sababi ularni juda shoshirgan, shuning uchun qushbegining og‘ziga qaragan edilar. Qushbegi bo‘lsa negadir uzoq o‘ylab o‘lturar, tezda

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

gap ochmas edi. Bu holda butun majlis ahli qabziyatda, qirq quloq bo‘lib uning og‘ziga tikilgan edilar. Ammo bu holga qo‘rboshi jon-u dildan tarafdor, shu holda bir necha kunlab emas, yillab so‘zsiz qolishni tilar edi.

– Otabek, – dedi qushbegi so‘z boshlab, – qo‘lg‘a olin-g‘an kuningiz menga o‘zingiz bilan otangizning qanday kishi-lar bo‘lg‘aningizni, ya’ni maslakingizni so‘zlag‘an edingiz. Ammo biz o‘shal so‘zlaringizga dalil va isbotsiz ishona ol-maymiz. Sizni dor ostidan qaytarib kelishimiz ham o‘shal da’vongizga birar isbotingiz bormi yoki quruq bir gapmi, deb hukmning ijrosini biroz fursatka to‘xtatishdir. Endi siz o‘shal da’vongizni isbot qila olasizmi?

– O‘shal kungi manim so‘zlag‘anlarim, otam bilan manim ichki sirlarimiz edi, – dedi bek, – albatta, bunga guvoh va isbot topish qiyindir. Agarda otam kelib manim so‘zimni quvvatlag‘anda ham, baribir, siz, o‘g‘lini qutqazish uchun so‘zlaydir, der edingiz-da, ig‘vogarlarning gapiga ishonib o‘z hukmingizni qilaberar edingiz.

Yashindek so‘qqan uning bu so‘zlaridan qushbegi o‘zini arang to‘xtatdi:

– Demak, o‘sha so‘zlaringizni isbot qilish uchun hujjati-ngiz yo‘q?

– Yo‘q... Isbot uchun vijdonimdan boshqa shohidim yo‘q.

– Yaqin orada Toshkanddan birar narsa olg‘anmidingiz?

– Ya’ni nima?

– Masalan, xat.

Otabek ko‘b o‘ylay olmadi, butun borlig‘i bilan harakat qilib qichqirdi:

– Oldim, oldim! Isbotim ham bor!

A’yoni shahar uning bu holiga chidab turolmay ko‘zlariga yosh oldilar. Otabek yana dedi:

– Odam qo‘shsangiz men keltiray guvohimni!

– Tinchlaningiz, Otabek, – dedi qushbegi, Otabek biroz o‘zini yig‘ib olgandan keyin so‘radi, – nima olg‘an edingiz?

– Maktub.

– Kimdan?

– Otamdan.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Qachon?

– Toshkandda isyon boshlanish oldidan.

– Undan keyin-chi?

– Olmadim.

– Otangiz o‘sha xatida nimalardan bahs qilar edi?

– Tushunmagan Toshkand xalqini Azizbekning makriga uchkanidan, eng oxirda... – asarlanib to‘xtab oldi, – manim shu holga tushmog‘imni karomat qabilidan so‘zlab, menga birmuncha nasihatlar ham qilgan edi.

Otabekning bu so‘zidan keyin ponsadboshi – «endi bo‘lar» degandek qilib qushbegiga qaradi. Qo‘rboshi ersa Otabekning ustida hali bunchalik tergashlar borlig‘i uchun o‘zini biroz to‘xtatib qoldi. Qushbegi ko‘rpacha ostidan xatni olib Otabekka ko‘rsatdi.

– Bu qanaqa maktub, taniysizmi?

Otabek ko‘rguchi ko‘zlariga ishonmagandek:

– Taniyman, – dedi, ta’rifini sizga so‘zlag‘anim, otam maktubi! Taajjub, buni sizga kim keltirdi, taqsir?

Qushbegi yengilgina iljayib Kumushbibiga ishorat qildi:

– Najot farishtasi, – dedi. Qutidor bilan bek yalt etib Kumushka qaradilar. Endi Kumush ortiq chidab turolmadi:

– Otajon, men qizingiz!

Otabekning qulog‘iga eshitilgan bu tovush uning yuragini ingichka yeriga borib tekkan edi. Esini yo‘qotib turgan qayin otasiga qaramay:

– Sizmi, Kumushmi? – deb so‘radi.

– Men, men!

Bu savol-javob ila ikki vujudning hamma hasratlari, alamlari bir-birlariga anglashilgan, ikki tovushning bir-birisiga kelib qo‘shilishidan ikkisiga ham til bilan anglatib bo‘lmaslik bir hol yuz bergan edi.

– Bu senmi, qizim?

– Men, otajon!

Bu o‘ringacha boshqa bir mulohazada o‘lturgan qushbegi ularning so‘zlarini bo‘lib, Otabekdan so‘radi:

– Qulingiz Hasanalini nega shu kungacha topib bo‘lmadi?

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Qamalg‘an kunimdan beriga undan xabarim yo‘q, taqsir, – dedi-da, Otabek Kumushka qaradi.

– Bu kun o‘n ikki kun; Hasanali ota Toshkand ketmishdir, shundan beri undan darak bo‘lmadi, – dedi Kumush.

– Toshkand ketishka uni nima majbur qildi? – deb o‘rinsiz bir savol bergan edi qushbegi, Kumushbibi uning nima uchun ketkanligini aytib qanoatlantirdi.

Masala yana xat ustiga o‘tib, Otabek qushbegidan so‘radi:

– Qo‘lingizdag‘i maktub bilan, ehtimol, biz oqlang‘an chiqarmiz? – Qushbegidan tasdiq ishorasini olib davom etdi. – Hozir biz sizning adolatlik hukmingizdan bir narsani so‘raymiz: ul shuldurkim, bizning to‘g‘rimizda yomon maqsad bilan sizga chaqimchiliq qilg‘uchi ig‘vogar va g‘arazgo‘ylar bu majliska hozirlansinlar-da, o‘zlarining mash’um kashflarini va yo ko‘rgan-eshitkanlarini isbot qilib bizni qayta boshdan dor ostig‘a yuborsinlar. Bil’aks isbot qilolmas ekanlar, bizga qazig‘an chuqurlarig‘a o‘zlari yiqitilsinlar! Adolatingizdan bizning talabimiz shul! – dedi va qo‘rboshig‘a qaradi. Uning yuzida qo‘rqish va iztirob alomatlari ko‘rdi.

– Talabingiz o‘rinlik, – dedi qushbegi, – ammo xasmingizni bu majliska hozirlash uchun vaqtimiz ozdir va lekin bu kun uni qo‘lg‘a olarmiz va birisi kun beshovingizni bir yerga jamlab o‘z hukmimizni berarmiz, – dedi. Kumushbibiga yuzini o‘girdi. – Qizim, sizning bunchalik zakovat va jasoratingizga otangiz bilan eringiz har qancha tashakkur aytsalar va o‘zlarining mundan so‘ngg‘i umrlarini sizning baxshishingiz, deb bilsalar arzir. Men ham sizning bu xizmatingiz evaziga eringiz bilan otangizni hozirdan boshlab ozod qildim. Ammo Otabek ish bir taraflik bo‘lg‘uncha o‘zining qochmaslig‘i uchun kafil berishka majburdir.

Hamma mol va mulki bilan qutidor Otabekka kafil bo‘ldi va qushbegining haqiga duo qilib, uchovlari mahkamadan birgalashib chiqdilar.

– Ziyo aka bilan o‘g‘li Rahmatni bo‘shatingiz, so‘ngra anovini qo‘lg‘a olingiz! – degan amrni olib, qo‘rboshi ham siljidi. Shuning ila bu kungi hukm majlisi tamom bo‘lib, shahar a’yonlari taajjub ichida tarqala boshladilar.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

«O‘TKAN KUNLAR» ROMANIDAN OLINGAN BOBLAR HAQIDA

Aziz o‘quvchi! Siz «O‘tkan kunlar» romani to‘g‘risida ko‘p eshitgansiz. Kinofilmini ham tomosha qilgansiz. Bugun esa romanning asliyatini o‘qish o‘zgacha zavq bag‘ishlashini ham his etdingiz.

«Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li» bobida yozuvchi dastlab sizga asarning markaziy qahramoni Otabekni tanishtiradi. Uni «og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit» sifatida tasvirlaydi. Bunday tashqi ko‘rinish tasviri adabiyotshunoslik ilmida portret deb ataladi. Shuningdek, adib ayni bobda romanda ishtirok etadigan Homid, Hasanali kabi obrazlarning tarixi, oilaviy muhitini bayon qilib, ularga tavsif beradi.

Badiiy adabiyot insonlararo munosabatni, yaxshilik va yomonlik mohiyatini anglatishi lozim. Roman boshidayoq Otabek bilan Homidning o‘zaro suhbatlaridan uylanish, oila qurishdek o‘ta muhim maishiy masalalarga nisbatan ularda ikki xil qarash va ziddiyat borligi kuzatiladi. Obrazlararo bunday konflikt roman davomida ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi ziddiyat darajasiga ko‘tariladi. Shu jihatdan «O‘tkan kunlar» romani faqat Otabek bilan Kumushning ishq tarixi emas, balki tarixda beqiyos shon-shuhratga ega bo‘lgan Turkistonning tanazzuli sabablari badiiy jihatdan keng yoritilgan romandir.

Darvoqe, Otabek bilan Hasanali obrazi o‘rtasidagi o‘zaro ma’naviy-ruhiy yaqinlikni har kim sezib turadi. «Bek oshiq» bobida Hasanalining qanchalik zukko, Otabekdagi har bir o‘zgarishni naqadar teran anglashini yozuvchi juda katta mahorat bilan tasvirlaydi. Otabekdagi ruhiy-psixologik o‘zgarishlar, xayol surib uzoq jimib qolishlar Hasanalining qalb prizmasi vositasida bayon etiladi. Chunki Otabekning otasi Yusufbek hoji, onasi O‘zbek oyim Hasanaliga o‘z farzandini ishonib topshirgan. Bu xususda maxsus topshiriqlar ham beradi.

Hasanali Marg‘ilonga kelgandan keyingi Otabek tabiatida yuz bergan o‘zgarishlarni avval betoblikka yo‘yadi. So‘ngra vaziyatni yaxshiroq bilish niyatida uning hujrasi eshigi oldida

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

poylashga majbur bo‘ladi. Romanda bu yashirincha kuzatish jarayoni juda real, aniq va ishonarli chiqqanini alohida ta’kidlash lozim. Tasavvur qiling, Hasanali Otabek hujrasi ostonasida – eshigi oldida o‘tiribdi. Hamma yoq tinch, saroy qop-qorong‘i. Ammo tungi «tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kart-kurt xashak chaynashlari» buzadi. Bu tasvirda otlarning xashak chaynayotgani ko‘z oldimizga keladi, hatto «kart-kurt» tovushi quloqqa eshitiladi. Bunday nuqtalar adibning badiiy mahoratidan darak beradi.

Bir mahal uyquga ketgan Otabek alahsiragan holda «Qora ko‘zlari, kamon qoshlari...» deb qo‘yadi. Hasanali buni eshitib, birdan taajjubga tushadi, ikkilanadi. Keyin hujradan uyqusiragan Otabekning «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar... Uff» degani eshitiladi. Hasanali xotirjam o‘z hujrasiga ketadi. U Otabekning kimgadir oshiq bo‘lganiga, kimnidir sevib qolganiga aniq ishonadi.

Yozuvchilikda shunday bir usul bor – bu sir saqlash. Otabekning kimga oshiqligi sir saqlanadi. Hasanali ham, o‘quvchi ham hayratga tushadi, o‘ylanadi. Voqelik davomida Hasanali Otabekni o‘ziga xos imtihondan o‘tkazadi. Oshiqligining tagiga yetadi.

Aziz o‘quvchi! «O‘tkan kunlar» romanidagi voqealar Marg‘ilon va Toshkent shaharlarida bo‘lib o‘tishini eslab qolishingizni istar edik. Shu bilan birga, romanni yaxshiroq anglash uchun XIX asrdagi Turkiston xonliklari tarixini ham, xususan, romandagi voqealar yuz bergan davrni ham bilish lozim. Chunki Abdulla Qodiriy bu romanini yozishda tarixchi olimlarning asarlaridagi hujjatlarga ham tayanib ish ko‘radi.

Ma’lumki, tarixda xonlik markazi Qo‘qonda joylashgan bo‘lib, Toshkent ahli unga tobe bo‘lgan. «Toshkand ustida qonliq bulutlar» bobida yozuvchi tarixiy voqea va shaxslarga e’tibor qaratadi. «Toshkand hokimi bo‘lg‘an Azizbek Qo‘qong‘a qarshi bosh ko‘targan» degan ma’lumotdan so‘ng romanning keyingi boblarida shaharlararo, ikki hududdagi qipchoq hamda qora choponlilar orasidagi ijtimoiy konflikt bayon qilinadi. Otabek va Yusufbek hojining naqadar adolatpesha, xalqparvar inson ekanligi shu ziddiyatlar girdobida sinaladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Barcha zamonlarda tinchlik eng oliy ne’mat sanalgan. Adib xon zamonlarida odamlar yurtning notinch holatiga o‘rganib qolganini yozadi. Ammo el-yurtdagi bezovtaliklarga Otabek hamma qatori qaray olmaydi. Uning qalbida vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ulari bor. Shu bois Toshkentdagi isyon xabarini eshitib o‘yga toladi. Toshkent voqealari to‘g‘risida otasi Yusufbek hoji tomonidan bitilgan maktubdan batafsil ma’lumot oladi.

Yozuvchilikda asarda kechadigan voqelikni, syujet zanjirini maktub vositasida o‘zaro bog‘lash usuli ham bor. «O‘tkan kunlar» romani matnida ko‘plab maktublar beriladi. Shulardan birinchisi – Yusufbek hojining Otabekka yozgan maktubi. Bu o‘rinda maktub mazmunini qayta so‘zlab o‘tirishga zarurat yo‘q. Ammo uning tuzilishiga diqqat qaratish kerak. Barcha ma’lumot «... yetib ma’lum va ravshan bo‘lg‘aykim...» bilan «... duogo‘y otang» degan birikmalari orasiga jamlanadi. Bu bilan «O‘tkan kunlar» romani tarixdagi shaxslarning maktub yozish madaniyatidan ham xabar beradi. Yusufbek hoji yozgan maktub qahramonlarning hayot-mamot masalasida hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Shu o‘rinda, talqin taqozosiga ko‘ra, romandagi Kumush obraziga to‘xtalish zarurati bor. Adib Kumush obrazini «quyuq jinggila kiprak»lari ostidan «tim qora ko‘zlari» boqib turguvchi, «qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi» ko‘ringuvchi, «to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuz»lik o‘n yetti-o‘n sakkiz yoshlaridagi qiz sifatida tasvirlaydi. «To‘y, qizlar majlisi» bobida Kumush juda xomush, xayolchan, sirli va ko‘zyoshlariga ko‘milgan holda ko‘rsatiladi. Tasvirlangan to‘y jarayoni Marg‘ilondagi Qutidorning hovlisida, qizlar majlisi esa Kumushbibining tog‘asi uyida bo‘lib o‘tadi. To‘yga tayyorgarlik ko‘rayotgan Kumushning onasi Oftob oyim juda bezovta. Sababini yozuvchi boshqa qahramonlar bilan o‘zaro suhbat jarayonida ochib beradi. Kumushning xafagarchiligi, qosh-qabog‘ining ochilmagani, nuqul yig‘lashlari – bulardan Oftob oyim o‘yga toladi.

Qizlar majlisi – qizyig‘in degan to‘y marosimi tarixda qanday bo‘lganini ushbu bobda berilgan tasvirdan to‘la tasavvur qilish mumkin. Yozuvchi qizlar majlisini zavq-shavq bilan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yozadi, davra qurib o‘tirgan qizlarni gullarga qiyoslaydi. Kumushbibiga: «lolalar ichidagi bir gul va yo yulduzlar orasidagi to‘lgan oy», – deb ta’rif beradi. To‘y – bu qurilayotgan yangi oilani odamlarga e’lon qilish anjumani. To‘yda xursandchilik, soz-u suhbatlar bo‘lishi, qo‘shiqlar kuylanishi lozim. Buni qarangki, qizlar aytgan qo‘shiqning har bayti Kumushga juda g‘alati ta’sir ko‘rsatadi. Uning ikki ko‘zi yoshga to‘ladi.

Qo‘shiqning «Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar... Sindirarman urib yerga torimni!» degan oxirgi baytni eshitganda esa, Kumushbibi yonidagi qizga osilib yig‘laydi. Hamma taajjubda. Kumushning yig‘isi – sir. Ammo to‘y to‘ydek o‘tishi kerak. Qizlar lapar aytib, sahnaga kelin va kuyov rollarida chiqib Kumushbibining ko‘nglini olmoqchi bo‘lishadi.

Qizlarning ushbu majlisida o‘ziga xos go‘zallik, quvnoqlik, latiflik – nafosat bor. Majlisdagi shu go‘zal holatlar ruhiga zid ravishda Kumushbibining xomush o‘tirishi ham, yig‘lashi va xayollanishi ham bobga – qizlar majlisiga o‘zgacha nafislik bag‘ishlagan, albatta. Shu o‘rinda bir mulohazani aytish o‘rinli: mazkur bobda ishtirok etgan epizodik obrazlar – nomlari tilga olingan qizlar romanning keyingi voqeligida qatnashmaydi. Ular Kumushning ruhiy kayfiyatini yuzaga chiqarishdek muhim bir adabiy vazifani bajarganidan keyin sahnadan chiqib ketadi.

«Kutilmagan baxt» bob romandagi eng qiziq va hayajonlarga to‘la epizodlardan biridir. Kumushbibidan rozilik olish juda qiyin bo‘ladi. Sababi – yana sirli. Chunki u kimga turmushga uzatilayotganini bilmaydi. Otabek esa, aksincha, rozirizolik so‘rash jarayonida shoshadi. Shar’iy nikoh o‘qilayotganda imom domlaning savoliga tezda rizolik javobini beradi. Shariatga ko‘ra kelin bo‘lmish qizga kuyov tarafidan beriladigan mahr masalasi muhokama qilinadi. Bu epizod ham qiziqarli va islom dini hukmlari hamda o‘zbekona urf-odatga juda mos tasvirlardir. Adibning davrni, to‘y marosimlari qoidalarini, shariat hukmlarini teran anglaganini shundan ham bilib olish mumkin. Otabekning to‘yxonaga biroz iymanish va viqor bilan kirib kelishi, Kumushning unga qayrilib ham qaramasligi, kuyovga beixtiyor ko‘zi tushganida hayajon bilan: «Siz o‘shami?» – deb so‘rashlari – barcha-barchasi o‘quvchini aslo befarq qoldirmaydi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

«Yusufbek hoji», «Hukmnoma» boblarida roman voqealari rivojlanishda davom etadi. Yusufbek hojining Hasanali bilan bo‘lgan suhbatida Sharq ulamolariga xos donishmandlik, farzandi uchun qayg‘urayotgan otaning qiyofasi namoyon bo‘ladi. Tuhmat bilan hibsga olingan Otabek bilan qutidorning ruhiy ahvolini diqqat bilan o‘qishni tavsiya qilar edik. Darvoqe, «Hukmnoma» bobi o‘tgan voqealar bilan bevosita bog‘liq. Bu bog‘lanish Kumushbibining o‘rdaga olib kelgan xati va shu asosda Otabek bilan otasining o‘limdan qutulishiga tegishlidir. Bu Yusufbek hoji yozgan maktub bo‘lib, uning mazmuni sizga ma’lum. Romandagi eng qiziq, ta’sirli, ota va turmush o‘rtog‘ining hayot-mamot masalasi o‘rtaga qo‘yilgan bir vaziyatda «najot farishtasi»ning paydo bo‘lib, ularni nohaq hukmdan qutiltirishi o‘quvchining qalbiga farah bag‘ishlaydi.

Adib badiiyatida betakror joziba mujassam bo‘lgani bois «O‘tkan kunlar» necha qayta o‘qilsa ham, odam to‘ymaydi; qayta mutolaaga ehtiyoj seziladi. Qayta o‘qish jarayonida uning yangidan yangi qirralari kashf etiladi. Bir o‘qilganda e’tiborsiz o‘tilgan epizodlarga boshqa safar diqqat qaratiladi. Bu hol, tabiiyki, adibning badiiy tildan foydalanish, so‘z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chizish mahorati bilan ham bog‘liq. Abdulla Qodiriy so‘zida insonni o‘ziga bog‘lab turadigan, o‘quvchini o‘ziga ohanrabodek tortib turgan quvvat bor.

Adib bor mahorati bilan o‘zbek adabiy tilining boyligini, o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini namoyish qiladi. Abdulla Qodiriy maqolalaridan birida: «O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar», – degan fikrni aytadi.

Oybek Abdulla Qodiriy ijodiga baho berib: «Abdulla Qodiriy iste’dodli, qalbi butun va o‘ziga xos ravishdagi shaxs edi... Abdulla Qodiriyning prozasi, birinchi navbatda, g‘oyatda hayotiyligi bilan ajralib turadi», – degan haq gaplarni yozgan edi.

Xullas, «O‘tkan kunlar» romani to‘qima qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg‘unligi jihatidan ham, kompozitsion butunligi va tilidagi nafosati tarafidan ham o‘zbek adabiyoti xazinasidagi bebaho durdonalar qatorida turadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Abdulla Qodiriy romanlari o‘zidan keyingi o‘zbek adiblari uchun mahorat maktabi vazifasini o‘tadi. Adib hayoti va ijodini o‘rganish, «O‘tkan kunlar» romanidan bahramand bo‘lish – bu doimo davom etadigan, avlodlar nazdida yangilanib turadigan adabiy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Bilasizki, «O‘tkan kunlar» romani asosida ikki marta film suratga olingan. Aslida, mazkur roman bir necha o‘nlab qismli film uchun adabiy manba bo‘la oladi. Bu kelgusi avlodlar zimmasidagi vazifa, albatta.

Savol va topshiriqlar

1. Romandan olingan parchani diqqat bilan o‘qib chiqing va undagi tushunarsiz so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing.
2. Otabek Marg‘ilonga nima uchun boradi? Adib Otabek portretini qanday ko‘rsatadi?
3. Hasanali Otabekning oshiqligini qanday bilib oladi?
4. Azizbek kim? U nima sababdan isyon ko‘tardi?
5. Yusufbek hoji maktubini qayta o‘qing. Maktub yozish madaniyati deganda nimani tushunasiz?
6. Oftob oyim kim? U nega bezovta?
7. Yozuvchi majlisga jamlangan qizlarni nimalarga o‘xshatadi? Kumushni-chi?
8. Kumushbibi nega xomush? Nega tinimsiz yig‘laydi?
9. Qizlar majlisidagi o‘zbekona urf-odatlarga munosabat bildiring.
10. Sinfdagi qizlarga savol: qizlar majlisiga hech borganmisiz? Bugungi qizlar majlisi bilan hozirgina siz o‘qib chiqqan manzaralarni qiyoslang.
11. Yusufbek hojiga xos bo‘lgan zukkolikni matndan misollar keltirib izohlang.
12. Kumush nima uchun Otabekni ko‘rganda: «Siz o‘shami?» – dedi? Otabek Kumushni qayerda va qachon uchratgan edi?
13. Otabek bilan qutidorning dor ostiga borishi va u yerdan qaytish sabablarini batafsil tushuntirib bering.
14. «O‘tkan kunlar» romanini bugungi davr bilan bog‘lab izohlang.
15. Romanni to‘liq o‘qib chiqing. «O‘tkan kunlar» filmi bilan romanni qiyoslab munosabat bildiring.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

HAMID OLIMJON
(1909–1944)

Hamid Olimjon g‘oyat qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa ham, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining umrboqiy asarlari bilan o‘chmas iz qoldirdi. Shoirning o‘n jildlik to‘la asarlar to‘plamida jam bo‘lgan adabiy merosi she’riy asarlari bilan birga, ko‘plab hikoya va ocherklar, dramalar, publitsistik va adabiy tanqidiy maqolalar hamda tarjimalarni o‘z ichiga olgan. Bu adabiy merosda shoir she’riyatining o‘rni alohida.

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug‘ildi. To‘rt yoshga yetar-yetmas otasidan yetim qolgan Abdulhamid Azimbobo qo‘lida tarbiya topdi. Xat-savodli Azimbobo nevarasida ham o‘qish-yozishga havas uyg‘otdi. Mashhur xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ahyon-ahyonda Bulung‘urdan jizzaxlik do‘st-yorlarini yo‘qlab kelganida, uning uyida ham to‘xtar, shunda Abdulhamid bobosi pinjida o‘tirib, ulug‘ shoirning doston va termalarini jon-u dili bilan tinglar edi. Abdulhamidning onasi Komila aya ham ko‘plab ertak va dostonlarni, maqol va matallarni yod bilar edi. Bo‘lajak shoir uzun qish kechalarida onasining Oygul bilan Baxtiyor, Tohir va Zuhra, Yoriltosh haqidagi ertaklarini tinglab, bolalik chog‘laridanoq xalq og‘zaki ijodidan bahramand bo‘lib o‘sgan.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Abdulhamidning bolalik xotirasida bir umrga saqlanib qolgan, hatto «Men bir qaro kunda tug‘ildim. Tug‘ildim-u shu on bo‘g‘ildim» satrlarining tug‘ilishiga sabab bo‘lgan voqea 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘olonining shafqatsiz ravishda bostirilishidir. Jazo otryadi tomonidan jazirama dashtga haydalgan jizzaxliklar orasida yetti yashar Abdulhamid ham bor edi.

Oradan ikki yil o‘tgach, bo‘lajak shoir to‘liqsiz o‘rta maktabga o‘qishga kirdi. Shundan so‘ng Abdulhamid bilim yurti va O‘zbekiston Oliy pedagogika institutida tahsil oldi. Abdulhamidning dastlabki ijodi mana shu o‘qish yillarida boshlandi. Uning «Ko‘klam» nomli ilk she’rlar to‘plami va «Tong shabadasi» hikoyalar to‘plami talabalik yillarida chop etildi. Shoir shu davrdan boshlab qaynoq ijodiy va ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullana boshladi. Uning «Olov sochlar», «Poyga», «O‘lim yovga», «Daryo kechasi», «She’rlar», «O‘lka», «Oygul bilan Baxtiyor», «Baxt» she’riy to‘plamlari, dostonlari, tarjima asarlari ketma-ket nashr qilindi. 1939-yilda u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga mas’ul kotib etib tayinlandi.

Yangi o‘zbek she’riyatining kamol topishi, lirik janrlarning rivojlanishi, lirik qahramon tuyg‘ularining badiiy mujassamlanishida Hamid Olimjonning ham munosib o‘rni bor. U tabiatan lirik shoir, nozik hissiyot va kechinmalar musavviridir.

Shoir sevgi mavzusiga murojaat qilganida ham, tabiat tasvirini chizganida ham lirik qahramon tuyg‘ulari baxt-saodat yog‘dulari bilan nurafshon bo‘ladi.

Hamid Olimjonning lirik qahramoni uchun eng muhim narsa – baxtdir. U go‘zallik bilan uchrashar ekan, baxt bilan yuzma-yuz kelgandek bo‘ladi. Shuning uchun ham shoirning sevgi va tabiat tasviriga bag‘ishlangan she’rlarida quyoshli tuyg‘ular mavjlanib turadi. Beg‘ubor insoniy tuyg‘ular, jozib kechinmalar, baxt sururidan shodon lirik qahramonning ruhiyati shoir she’riyatida xalqona, musiqiy ravon ifoda tarziga ega.

Hamid Olimjonning urush davrigacha bo‘lgan ijodida «Ofeliyaning o‘limi», «Holbuki tun...», «Ishim bordir o‘sha ohuda», «Har yurakning bir bahori bor», «Janub kechasida»,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

«Xayoling-la o‘tadi tunlar...», «Mizimta daryosi», «Daryo tiniq, osmon beg‘ubor», «Dunyo go‘zal ko‘rinur senga», «Eng gullagan yoshlik chog‘imda» singari o‘nlab lirik durdonalari borki, oradan qancha yillar o‘tmasin, ulardagi nafis tuyg‘ular shalolasi kitobxonga, she’riyat shaydolariga huzur bag‘ishlab kelmoqda. Bu she’rlarida shoir ruh musavviri sifatida namoyon bo‘lib, lirik qahramonning nozik tuyg‘u va kechinmalarini mohirona tasvirlagani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

Novdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi.
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli, deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar.
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.
Men yurganda bog‘larga to‘lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda.
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

«O‘RIK GULLAGANDA» SHE’RI HAQIDA

Hamid Olimjon ijodiy merosida tabiat lirikasiga bag‘ishlangan she’rlar ko‘plab uchraydi. Ular orasida «O‘rik gullaganda» she’ri alohida ajralib turadi. «Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi...» satrlari bilan boshlangan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

she’r o‘zbek diyoriga keluvchi bahor nashidasining madhi sifatida yangrab keladi.

«O‘rik gullaganda» she’ri faqat bahor faslidagi tabiat tasviridan iborat emas. She’rda shoirning ruhiy kayfiyati yetakchilik qiladi. She’rdagi hissiy oqim tabiat tasviridan shoir «men»iga ko‘chadi; shoir bilan yellar orasida kichik bir ziddiyat kuzatiladi. Shoir bahorning nafis qilig‘iga nisbatan o‘zida g‘ashlik sezmaydi va aytadi:

Mayli, deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so‘rayman.

Ayni banddagi «xayolni gulga o‘rash» ta’biri chinakam shoirona tafakkur mahsulidir.

Shoir bu she’rda qiyosiy tasvir ва jonlantirish san’atidan foydalanadi. Natijada o‘rik gullari bilan lirik qahramon o‘rtasida uyg‘unlik bayon qilinadi:

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar.
Etgan kabi go‘yo bir talab
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Yellar, shabboda, qushlarning chug‘urlashi – barcha-barchasi shoir nazaridan chetda qolmaydi. Quyidagi murojaati ifodalangan band she’rning kulminatsiyasi va yechimidek taassurot uyg‘otib, unda ziddiyatli hayot va ikki xil vaziyat kuzatiladi:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol.
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Mazkur she’rda shoirning tuyg‘ulari shu darajada teran tasvirlanganki, har qanday vaziyatda o‘rik gullashiga doir hodisa tilga olinganida beixtiyor ushbu she’rning mazmun-mohiyati esga keladi.

Umuman olganda, Hamid Olimjonning «O‘rik gullaganda» she’rini asr oshib shu kungacha yashab kelgan va bundan keyin ham ko‘plab o‘quvchilar qalbiga bahoriy xush kayfiyat bag‘ishlab yashaydigan asarlar qatoriga kiritish o‘rinli bo‘ladi.

CHIMYON ESDALIKLARI

Tog‘da yurar ohu bir juvon,
Sochimni taraydi shabboda.
Menga bugun yaqindir osmon,
Bulutlardan teppamda poda.

Qashqa tog‘ning yarqirar qori,
Yonbag‘irda xuddi chumoli –
O‘rmalayman va borgan sari
Ochiladi bu holning foli:

Bunda gulning eng asllari,
Baxmal gilam, alvon poyandoz,
Tabiatning bor fasllari:
Bahor va yoz qarshimda peshvoz.

Qoyalarda asrlik doston,
Daralarda oppoq, mangu qor.
Cho‘qqilarda otash saraton,
Yonbag‘irlar binafsha bahor.

Go‘zallikda tuganmas buloq,
Shamolda o‘ynaydi shalola.
Bahor yurar ko‘chib tog‘ma-tog‘,
Qo‘llarida lola piyola.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yo‘llarimda zangori ko‘llar
Oyna kabi tiniq va bejon.
Men umrimda ko‘rmagan gullar...
Nom qo‘yishda ojizdir inson.

Bu go‘zaldir, bu ajab bir hol,
Ham vahshiydir hamda osuda.
Bo‘lmasinmi shoir tili lol,
Shamol uchib o‘ynasa suvda?

Bolaligim tutdi va bir bor,
Buloq uzra yotdim uzalib
Va san’atga bermasdan ozor,
Hovuch-hovuch suv ichdim qonib.

«CHIMYON ESDALIKLARI» SHE’RI HAQIDA

Chimyonga chiqqan shoir ushbu she’rida tog‘ manzarasini xuddi rassomdek chizib beradi. Tog‘ga chiqqan odamga osmon yaqin kelgandek, tunda pokiza osmonga qo‘lini cho‘zsa, yulduzlarga ham yetadigandek tuyuladi. Osmonga qarasangiz, qudratli qo‘llar bulutlardan turli shakllar yasaydi. Ayniqsa, yozning jaziramasida ham tog‘ daralarida uzoqdan oppoq yo‘l-yo‘l chiziqlar ko‘rinadi. Ha, ular qishda yog‘gan qorlar. Shunda siz bir vaqtning o‘zida ham yoz, ham qish, barq urib ochilgan gullardan esa bahor tarovatidan bahramand bo‘lasiz. Shuning uchun ham shoir «Bahor va yoz qarshimda peshvoz» deb ta’kidlaydi. Shu zaylda shoirning ko‘z oldida tabiatning bor fasllari bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi. Shulardan zavqlanadi. Odatda, shoirlarga bahor fasli ko‘proq ilhom beradi. Bahor go‘zalligi shoir so‘ziga, iste’dodiga qanot bag‘ishlaydi va natijada:

Bahor ko‘chib yurar tog‘ma-tog‘,
Qo‘llarida lola piyola,

kabi hech kimning xayoliga kelmaydigan misralarni yozadi. Bu piyolalarni esa shoir misli bahorning qo‘lida turgandek

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ta’riflaydi. Tog‘ lolaqizg‘aldoqlar bilan bezangan. Shoir yura-yura yo‘lida ko‘llarga duch keladi. Bu ko‘llarni esa tosh-oynaga o‘xshatadi. Ha, balki bu toshoynalarda har bir fasl o‘z aksini ko‘rsatar. Tog‘ tepasida turgan odamning ko‘ziga bir olam narsalar ko‘rinadi. Oyog‘i ostiga qaraydi. Poyida turli-tuman o‘simlik va gullar yastanib yotibdi. Shoir ularning ko‘pchiligini biladi. Ammo ayrimlariga aslo duch kelgan emas, shuning uchun ularga nom qo‘yishdan ham ojiz. Ko‘rinib turgan tabiat manzarasi ziddiyatli: vahshiy va osuda. Shoir hayron, shoirning tili lol. Shunda u tabiat qoshida bamisoli beg‘ubor bolaga aylanadi:

Bolaligim tutdi va bir bor,
Buloq uzra yotdim uzanib
Va san’atga bermasdan ozor,
Hovuch-hovuch suv ichdim qonib.

Shoir tabiatga yaqinlashadi. Uning lirik qahramoni san’atning, go‘zallikning qadriga yetadi. Ko‘z oldida namoyon bo‘lgan tengsiz san’at asari – tabiat go‘zalligi poymol bo‘lmasligini istaydi. Bunday vaziyatlarda shoirlarning naqadar tabiatga oshufta, qalblari go‘zallikka qanchalar oshno ekanini idrok qilish lozim bo‘ladi.

G‘AZAL

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yanog‘ing uzra xol bo‘lsam,
Labing yaprog‘idin tomgan ki, go‘yo qatra bol bo‘lsam.

Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,
O‘pib g‘unchangni ochmoqliqqa tong chog‘i shamol bo‘lsam.

Bo‘yingni tarqatib olamni qilsam mast-u mustag‘riq,
O‘zimning san’atimga so‘ng o‘zim hayratda lol bo‘lsam.

Sening birla qolib bu mast-u lol olamda men yolg‘iz,
O‘zimni ham topolmay, mayliga, oxir xayol bo‘lsam.

Agar bog‘ingda gul bo‘lmoq mening-chun noravo bo‘lsa,
Ki ming bor roziman qasringga, hattokim duvol bo‘lsam.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Boshim hech chiqmasa, mayli, malomat birla bo‘htondin,
Raqiblar rashkiga ko‘krak keray, mayli, qamol bo‘lsam.

Kezib sahro-yu vodiylar yetishsam bir visolingga,
Fido jonimni qildim yo‘lingga, mayli, uvol bo‘lsam.

SHOIRNING «G‘AZAL»I HAQIDA

Hamid Olimjon she’riyati o‘zbek mumtoz adiblarining pokiza ijod bulog‘idan bahramand bo‘ldi. Yuqorida siz o‘qigan g‘azal shu fikrni isbot qiladi.

Bu ishqiy g‘azal yor madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, oshiq o‘z ma’shuqasiga yetishmoqni, uning e’tibori va e’tirofiga erishmoqni istaydi.

Tasavvur qilish mumkinki, yor bag‘oyat go‘zal. Uning visoliga yetishish uchun oshiq barcha tadbirlarga rozi. Xol, qatra bol, bulbul va shamol bo‘lish oshiqning orzusi. Guldek ochilgan yor bo‘ylarini turli tomonga taratish ham mumkin. Lirik qahramon raqiblarga duch kelishdan ham qo‘rqmaydi.

Oxirida:

Kezib sahro-yu vodiylar yetishsam bir visolingga,
Fido jonimni qildim yo‘lingga, mayli, uvol bo‘lsam,

deganicha xuddi mumtoz adabiyotdagi oshiqlar kabi yor yo‘lida jon fidolikdan ham qaytmaydi. Odatda, sharq adabiyotida g‘azal janri aruz vaznining muayyan bir bahrida yoziladi. Hamid Olimjonning bu g‘azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan. G‘azalning ruknlari va chizmasi quyidagicha:

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun / mafoiylun

Umuman, Hamid Olimjon she’rlari o‘ziga xos uslubi, go‘zalligi va ko‘plab badiiy san’atlar qo‘llagani bilan ajralib turadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Savol va topshiriqlar

1. Shoir o‘z bolaligini qanday eslaydi?
2. Hamid Olimjonning badiiy adabiyotga qiziqishiga nimalar turtki bo‘ldi?
3. Shoirning ijodiy merosida qanday janrdagi asarlar mavjud. Uning lirik asarlariga munosabat bildiring.
4. «O‘rik gullaganda» she’ridagi «Qancha tirishsam ham u beor Yellar meni aldab ketadi» misralari bilan «Yuzlarimni silab, siypalab, Baxting bor deb esadi yellar» misralari o‘rtasidagi ziddiyatni izohlang?
5. «O‘rik gullaganda» she’rida o‘rik guli shoirning qanday xotiralarini uyg‘otadi?
6. «O‘rik gullaganda» she’ri bilan ijro etilgan qo‘shiqni topib, tinglang va «Qo‘shiqni tinglagach...» nomli ijodiy matn yarating hamda uni taqdimot qiling.
7. «Chimyon esdaliklari» she’rida Hamid Olimjonga xos kuzatuvchanlik, ayniqsa, qaysi misralarda namoyon bo‘ladi? «O‘rik gullaganda» she’rida-chi?
8. Shoir «Va san’atga bermasdan ozor» misrasida nimani nazarda tutadi?
9. Shoirning «G‘azal»ini ifodali o‘qing va lirik qahramon tuyg‘ularini matnga tayangan holda izohlang?
10. Shoir g‘azali mumtoz o‘zbek g‘azallaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
11. Hamid Olimjon she’rlari bilan aytiladigan yana qanday qo‘shiqlarni bilasiz? Ularni tinglab, munosabat bildiring.
12. Shoir she’rlaridan birini yod oling va undagi shoirning badiiy mahoratiga baho bering.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

SAID AHMAD
(1920–2007)

Said Ahmad (Husanxo‘jayev) 1920-yili Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida dunyoga keldi.

Said Ahmad dastlab «Mushtum» jurnalida, O‘zbekiston radiokomitetida, «Qizil O‘zbekiston», «Sharq yulduzi» jurnalida ishlagan. Uning birinchi hikoyalar to‘plami «Tortiq» 1940-yilda nashr etiladi. Urush va urushdan so‘nggi yillarda Said Ahmad ko‘plab felyeton, ocherk va hikoyalar yozgan. Uning «Er yurak», «Farg‘ona hikoyalari», «Muhabbat» kabi to‘plamlari nashr etilgan. U «Xazina», «Hayqiriq», «Rahmat, azizlarim» kabi hikoyalarida ikkinchi jahon urushining dahshatli oqibatlarini hayajonli tasvirlaydi, urush qahramonlarini ulug‘laydi.

Said Ahmad «Qadrdon dalalar» va «Hukm» qissalarini, keyinchalik «Ufq» trilogiyasini yozdi. «Jimjitlik» romanida ijtimoiy hayotdagi turg‘unlik davri yoritilgan. Said Ahmad dramaturg sifatida «Kelinlar qo‘zg‘oloni», «Kuyov» kabi sahna asarlarining muallifidir.

Said Ahmad ham qatag‘on davrining ikkinchi to‘lqiniga duchor bo‘lgan, qamoq azoblarini tortgan ijodkordir. U «aksilsho‘roviy millatchilar guruhi a’zosi, zararli g‘oyalar targ‘ibotchisi» sifatida ayblanib, Qozog‘istonning Qarag‘anda viloyati Jezqazg‘an lagerida hibsda bo‘ladi. Shu davr mahsuli o‘laroq «lager turkumi» hikoyalari maydonga keldi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning ko‘pgina asarlari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Adib 2007-yilda vafot etgan.

Said Ahmad «Buyuk xizmatlari uchun» va «Do‘stlik» ordenlari, «O‘zbekiston Qahramoni» yuksak unvoni bilan taqdirlangan.

QORAKO‘Z MAJNUN

Qur’oni karimdan:

«Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar».

(«*Baqara» surasi, 217-oyat*)

Hadisi sharifdan:

«Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu «As’hobi kahfning vafodor itidir».

(«*Al-Jome al-Kabir*»)

Saodat aya bomdod namozini o‘qib, joynamoz poyida uzoq o‘tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o‘tgan eri usta Turobga atab Qur’on tilovat qildi. O‘ris shaharlarida daydib qolib ketgan o‘g‘li Bo‘rixonga Xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo‘layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginaning yo‘lini och, deb Allohga iltijo qildi.

Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. U qo‘l cho‘zib, joynamozning bir burchini qayirib o‘rnidan turdi.

Sentabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog‘imi, qoshiqmi shundoqqina ko‘rinib turibdi. Qirg‘oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so‘ramay qo‘ygan palla.

Qo‘shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib-yolborishlari eshitilib

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Said Ahmad va Saida Zunnunovaning Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy bog‘ida o‘rnatilgan haykali

turibdi. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib, kulib qo‘ydi.

Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo‘lgandi. Sochlari taqimini o‘pardi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo‘llari sochining uchigacha yetmasdi. Yarmini qismlab turib, bu yog‘ini tarardi. Opasi bu sochlarni qirqta qilib o‘rganda, yana shunchasi ortib qolardi.

– E, soching qursin! – derdi opasi. – Qo‘llarim tolib ketdi, sochingni o‘rdirishga odam yollash kerak.

Ko‘chada amirkon mahsi-kovushni g‘irchillatib, sochlarini selkillatib yurganda qaragan ham qarardi, qaramagan ham. Yosh qizaloqlar orqasidan kelib, sochlarini ko‘ziga surtib qochishardi.

Mana, yillar o‘tib soch ham oqardi, siyraklashdi-yu, baribir, o‘sha uzunligicha qoldi. Uchiga biror narsa taqmasa, hurpayib, bo‘yni, yelkalarini tutib ketadi. Shuning uchun ham u sochining uchiga o‘g‘ritutar sandiqning kalitini osib qo‘yadi. Sandiqni ochayotganda kalitni yechib olmaydi. Sochi uzun bo‘lganidan tizzalasa, kalit bemalol qulfga yetadi. Endi yangi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

uylarga sandiq urf bo‘lmay qoldi. Hamma uyni po‘rim javonlar bosib ketdi.

Bundan tashqari, qulfni daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.

Kampirning sochlari hamon yoshligidagidek. Faqat yarmidan ko‘pi oqarib ketgan. Orqasiga tashlab qo‘yadigan, uchi birlashtirilgan ikki o‘rim sochining uchiga erining frontdan olib kelgan og‘irgina medalini osib qo‘ygan. Tayyor ilgagi ham bor, sochni pastga tortib turadi.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg‘aya boshlagan. Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg‘alari skeletdek bo‘lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to‘lg‘onadi.

Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita – biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor. Xuddi kimdir ataylab bo‘yab qo‘yganga o‘xshab ko‘rinadi. Tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora. Bir ko‘zining tepasida to‘mtoq qoshi ham bor. U kampirning oyoq tovushidan bir ko‘zini erinibgina ochdi-yu, chala yarim kerishib, yana uyquga ketdi.

– Ha-a, joningni huzurini bilmay o‘l-a! Supurginiyam harom qilding.

– Qo‘y, urishma, opasi, Qorako‘z hali bola-da!

– Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o‘lgurga men nega opa bo‘larkanman?! – dedi Qumrixon nolib.

– Agar Qorako‘zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo‘y, ukalaringnikiga ketib qolaman.

– Voy, oyijon-ey, it o‘lsin, odamdan aziz bo‘lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo‘ying-e!

– Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo‘q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo‘ni-qo‘shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Oyijon, qo‘ying endi... – dedi Qumri norozi bo‘lib.

Itning bir qulog‘ida, bo‘ynida, oyoqlarida qon qotib qolgan edi.

– Ahmoq! – dedi kampir. – Qayoqlarda sanqib yurgan-ding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo‘lmay ket-kur! Ahvolingni qara, xotin talashib rosa ta’ziringni yebsan-ku! E o‘lmagin-a, shilinmagan joying qolmapti... Endi o‘zingdan ko‘r. Majnun, yaralaringga dori surtaman. Illo, dod demaysan!

Qumrixon itning bo‘ynidan bosib turdi, kampir yaralariga yod surta boshladi. It g‘ingshiydi, ingillaydi. Qumrixonning qo‘llarini tishlamoqchi bo‘ladi.

– Ana, bo‘ldi. Endi ovqatingni beramiz.

Bir oydan beri o‘g‘li surunkasiga kampirning tushiga kira-di. Na yotishida, na turishida halovat bor. O‘g‘lini o‘ylagani-o‘ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko‘rmay o‘lib ketamanmi deb kuyib-yo-nadi.

O‘g‘li Bo‘rixon oltmish yettinchi yili armiyaga ketgan. Harbiy xizmati tugadi hamki, uyga qaytmadi. O‘sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo‘lib, qolib ketdi. Ba’zi-ba’zida undan «Ya zdorov» degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o‘n besh yildirki, adresni unutib qo‘yganmi, ishqilib, shu o‘rischagina xat ham kelmay qo‘ygan.

Kampir qo‘ni-qo‘shnilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o‘ti-raverib qon bo‘lib ketadi. Ba’zan kiyimboshlarini apil-tapil tugib – o‘g‘illari yo qizlaridan birinikiga otlanib qoladi.

Baribir, borgan joyida ham halovat topmaydi. Qizi Qum-rixonni o‘ylab qaytib keladi. Qumrixonning baxti chopmadi. Ikki bor turmush qildi, farzand ko‘rmadi, qaytib keldi. Biron joyda ishlab ovunay desa, hayhotdek hovliga, munkillab qol-gan onasiga kim qaraydi. Aka-ukalari, singillari: «Opa, qo‘y, ishlama, tirikchiliging bizning bo‘ynimizda, onamga qara», deb qo‘yishmadi.

Kampirning o‘g‘illari, biznikida turing, oyi, deb xudoning zorini qilishsa ham, otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman, deb ko‘nmadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Kampir juda dono xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to‘ladi, albatta, ular quruq kelishmaydi, shu bahona Qumrining ham kuni o‘tadi, deya qadrdon uyidan jilmasdi. Onalar shunaqa – baxti chopmagan bolasi bilan birga bo‘ladi.

O‘tgan yili o‘tli-shudli, har ish qo‘lidan keladigan nevarasi Anvarjon, tog‘amni topib kelaman, deb chiqib ketdi. Shu ketgancha yigirma kun deganda daragini topib keldi.

Bu gapdan xabar topgan qo‘shni xotinlar kampirni qutlagani kirdilar.

– Buvijon, tashvishlanmang, tog‘amning ishlari «besh». Ro‘zg‘ori but, tirikchilikdan kami yo‘q. Uchta bolasi bor. O‘zi o‘zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o‘rischa gaplashdi. Bitta sog‘in echkisi, to‘rtta qanor qopdek cho‘chqasi, o‘ntacha cho‘chqachalari bor ekan. Qish zabtiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo‘chka-bo‘chka samogon-aroq yasab, qishi bilan ichisharkan. Qishloqdagilar tog‘amni «Bo‘rixon» demay, «dyadya Borya» deb chaqirishar ekan.

Bu gaplarni eshitib, kampir yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi. Bolasi tushmagur-ey, qo‘shni xotinlarning oldida shu gaplarni aytib o‘tiribdi-ya! Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi.

Qachongacha chilla o‘tiraman, deb kampir bugun qizinikiga otlanib qoldi. Kampirning niyatini sezgan Qorako‘z ostonaga borib o‘tirib oldi. Yaqin bir oydan beri hech qayoqqa bormagan Qorako‘z o‘zida yo‘q shod edi. Boshini bir tomonga egib irg‘ishlar, tezroq chiqmaysizmi, degandek, har xil ovoz chiqarib g‘ingshirdi.

Kampir shoshilmasdi. O‘sma ekilgan bir bo‘yra yer oldida cho‘nqayib, o‘smalarning sersuv, bo‘liq barglarini tagidan kertib uzardi. Oxiri kafti o‘smaga to‘lgach, rayhonning gul otmagan shoxlaridan sindirib olib, o‘smaga qo‘shib dastro‘moliga o‘radi. U qiz nevaralariga, kelin-u qizlariga, albatta, o‘sma olib borardi. Nihoyat, kampir tugunni qo‘ltiqlab chiqdi. Qorako‘z o‘tirgan joyidan bir sapchib ko‘cha tomon otildi. Kam-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

pir uning ketidan borarkan: «Hoy, muncha shoshasan, sekinroq», – deb javrardi.

Qorako‘z uning gapiga tushungandek, ko‘cha o‘rtasida to‘xtab orqasiga qaraydi. Kampir yetib kelguncha yayrab qulog‘ini qashlaydi. Bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik qiladi. Orqa oyog‘ida turib bir-ikki aylanadi. Kampir yetib kelishi bilan yana o‘ynoqlab yugurib ketadi. Yo‘lda uchragan mushuklarni tiraqaylatib quvib, nim qizil tilini osiltirgancha hansirab qaytib keladi. Daraxtlardagi musichalarga irg‘ishlab akillaydi. Ariqdan shapillatib suv ichadi. Ba’zan yo‘l chetiga chiqib, paxsa devor tagini ho‘l qilib qaytadi. Velosiped minib o‘tgan bolalarga ergashib uzoqlarga ketib qoladi.

Kampir uning qiliqlariga andarmon bo‘lib yo‘l yurganini sezmaydi. Qorako‘z donlab yurgan tovuqlarni qaqag‘latib, to‘rt tarafga to‘zg‘itib yuboradi. Yo‘lda uchragan itlar bilan iskashib, quvlashmachoq o‘ynaydi. Ko‘cha betidagi uy ostonasida tinmay akillayotgan kalamushdek kuchukni tuproqqa qorishtirib bulg‘aladi. Ariq bo‘yidan qo‘porib tashlangan to‘ngak soyasida yotgan bo‘ribosar itga ham zo‘rlik qilmoqchi bo‘lgandi, ta’zirini yedi. Bo‘ribosar uning gardanidan tishlab, uloqtirib tashladi. Yo‘l o‘rtasiga borib tushdi, tuproqqa qorishdi.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

– Hoy, jinni, senga kim qo‘yibdi otang tengi it bilan olishishni!

Qorako‘z unga qaray olmadi. Yo‘lning bu yog‘iga ma’yus alpozda, yugurmay, ohista ketdi. Baribir, Qorako‘z it-da, itligini qiladi. Bir qora itning dumini hidlab, ochiq turgan eshikdan kirib ketdi. Birozdan keyin uning vangillagani eshitildi. Eshikdan chiqayotganda ichkaridan otilgan eski tufli qoq beliga tushdi.

Katta yo‘lga chiqishdi. Bu yo‘lning o‘ng yog‘i Chirchiqqa, chap yog‘i Toshkentga olib boradi. Oldinlab ketgan Qorako‘z, qayoqqa yuraylik, degandek, kampirga qaradi.

– Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o‘ynab turasan.

Qorako‘z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko‘cha boshiga kelganda, albatta, kampir shu gaplarni takrorlaydi.

Olisdan baland imoratlarning qorasi ko‘rindi. Qorako‘zning sabri chidamadi. Ildamlab ketdi. Kampir unga yetolmay halloslab qoldi. Qorako‘z yugurib emas, g‘ildirab ketayotganga o‘xshaydi. Bir zumda ko‘rinmay ketdi. Uchinchi qavatning boloxonasida o‘ynayotgan bolalar Qorako‘zni ko‘rib, buvim kelyapti, deb qiyqirishdi. Tapir-tupur qilib zinaning ikki poyasini bitta qilib, pastga yugurib tushishdi. Bittasi Qorako‘zga konfet, bittasi sergo‘sht suyak berdi. Birpasda hovli bolalarga to‘lib ketdi. Qorako‘zning boshini, orqasini silashdi. U erkalanib turib berdi. Boloxonada Dilbarxon ko‘rindi. Onangiz kelyapti, degan xushxabar olib kelgan Qorako‘zga mehr bilan boqdi. Unga qand tashladi.

Nihoyat, hansirab kampir yetib keldi. Bolalarga qurt, yong‘oq, turshak ulashdi. Qorako‘z ham umidvor bo‘lib qo‘liga qaradi.

– Senga yo‘q, bevafo! Meni yo‘lga tashlab ketgansan. Orqangdan halloslab yugurib, tilim og‘zimga sig‘may qoldi.

Qorako‘z gunohkorona bosh egib turdi. Kampir konfet tashladi. Qorako‘z ilib oldi-yu, quvonchdan hovlini shamoldek aylanib chiqdi. Kampir qizi bilan kechgacha ezilib gaplashdi. O‘g‘lini eslab ko‘z yosh ham qilib oldi. Qumrining betoleligidan, men bir balo bo‘lib ketsam, u sho‘rlik nima bo‘ladi, deb afsus-nadomatlar qildi. Gap orasida Qorako‘z esiga tushib, ovqat-povqat berdingmi, deb so‘rab qo‘yardi. Kampir asr namozini o‘qib, ketishga shoshildi.

– Endi ketay, shom namozini uyginamda o‘qirman.

– Ovqat qilyapman, oyijon, yeb keting. Bir kechagina yotib ketsangiz nima bo‘ladi. Uyingizni bo‘ri yeb ketarmidi!

Kampir tugunni qo‘ltiqlab pastga tushdi. Hovlida bolalar bilan yayrayotgan Qorako‘zning ketgisi kelmaydi. Bolalar tuflab uloqtirgan kaltakni o‘tlar orasidan topib keladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Kampir yo‘lga tushdi. Qorako‘z erkalanib, irg‘ishlab goh undan o‘zib, goh orqada qolib qulog‘ini qashlaydi. Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini tarqatadigan, ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi.

U uyiga yaqinlashganda eshigi oldida u yoqdan-bu yoqqa shoshib yurayotgan odamlarni ko‘rib, yuragi hapqirib ketdi. Qadamini tezlatdi. Eshik oldida turganlar unga, qulluq bo‘lsin, sevinib qoldingizmi, qariganingizda dilingizga yorug‘lik tushgani muborak bo‘lsin, deyishardi.

Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini «Hoji badal» uchun berib yuborgan edi. Haj qabul bo‘ldi, degan xushxabar kelgan bo‘lsa kerak, o‘zingga shukr, Allohim, deb ostona hatladi.

Shoxiga katta lampochka osilgan tut tagidagi supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish odam o‘tirardi. Uning ko‘zlari... bundan o‘ttiz ikki yil oldingi Bo‘rixonning ko‘zlari edi. Kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, uchib bordimi, bilmaydi. Bag‘rida o‘g‘lini ko‘rdi. Undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi. G‘oyibining hozir bo‘lganidan mast-alast edi. Karaxt edi, baxtiyor edi. O‘g‘lining boshlariga, yelkalariga ko‘z yoshlari to‘kilardi.

O‘g‘li uning bag‘ridan chiqishga urinar, ammo kampirning qoq suyak, chayir qo‘llari uni bo‘shatmasdi.

– Ну зачем, зачем плачеш, мама, вот и приехал, хватит, хватит, – derdi o‘g‘li.

Ona bu gaplarni eshitmasdi. Eshitganda ham, baribir, tushunmasdi.

Kampir hushini yig‘ib, bolasini bag‘ridan bo‘shatdi. Serrayib turgan Qumriga:

– Nega baqrayib turibsan, Rahmon qassobni chaqir, bolamning oyog‘i tagiga og‘ildagi qo‘yni so‘ysin! Qo‘shnisinikida telefon bor, aka-ukalaringga, singillaringga, akam keldi, deb xabar qil! – dedi.

Qorako‘z kampirning oyog‘i tagiga o‘tirib olgan. Bu notanish odamga g‘ashlik qilib tinmay irillardi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Qayoqlarda yurganding? – dedi kampir o‘g‘liga. O‘g‘li onasi nima deyayotganini tushunmay yelka qisdi. – Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo‘lib ketibsan.

Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo‘pti. Basharasiga ham o‘sha tomonlarning nuqsi urib, o‘zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo‘lib qo‘ya qopti.

Rahmon qassob allaqayoqqa ketib qolgan ekan, topib kelishdi. Ko‘cha tomonda qo‘sh mashinaning gurillagani, o‘g‘il-qizlarining ovozlari eshitildi.

Abdumalik qo‘y yetaklab kirdi. Qizlari, kuyovlari karton qutilarda, xaltalarda meva-cheva, olma-uzum ko‘tarib kirishdi. Bir zumda hovli gavjum bo‘lib qoldi.

Bo‘rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanishmadi.

Bo‘rixon begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi. To‘g‘ri, nima deyishni bilardi. Ammo til bilmasa nima qilsin? O‘ylab-o‘ylab, «Salyam!» dedi. Jigarlari kulishni ham, yig‘lashni ham bilmay hayron turib qolishdi.

Qassob og‘ildan kattakon, boquvdagi qo‘yni sudrab chiqdi. Bo‘rixonning oyog‘i tagiga yotqizib: «Ukam, qani, bir fotiha bering, – dedi. – E, darvoqe, o‘zbekcha bilmasligingizni esimdan chiqaribman. Qani, omin denglar, kampir enamizning umrlari uzun bo‘lsin, g‘oyiblari hozir bo‘lgani rost chiqsin, omin!»

Qassob shunday deb qo‘yning bo‘g‘ziga pichoq tortdi.

– Ну зачем, зачем? – dedi Bo‘rixon. – Ведь барана жалько, все равно я столько мясо не ем! У нас баранина не едят.

To yarim kechagacha kampirning hovlisi to‘yxonaga aylanib ketdi. Tarqash paytida Abdumalik akasini mehmonga taklif qildi.

Hovli jimib qoldi. Qumri ona-bolaga supaga joy solib berdi. Kampir bolasiga tikilib mijja qoqmadi. Bo‘rixon to‘ygunicha ichgan edi. Og‘zidan gup-gup aroq hidi kelib turibdi. Kampir ro‘molining uchi bilan burnini berkitgancha o‘tiribdi. Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb o‘ylardi kampir. Qa-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

rib ketibdi, sochlari to‘kilib, boshining yarmi yalang‘ochlanib qopti. Ko‘p ichadigan odamlardagina bo‘ladigan zaxil bir befayzlik zohir edi uning yuzlarida. Ko‘zlarining tagi salqigan, tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan. U otasi o‘tgan uyda, tuqqan onasiga, jigarlariga begona bo‘lib beparvo yotibdi.

Saodat kampir uni chaqaloqligida xuddi shu supada beshikka belab tebratardi. Uch yoshga kirguncha shu supada bag‘rida olib yotgan edi. Bo‘rixon do‘mboqqina bola bo‘lgandi. Uni yomon ko‘zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko‘zmunchoqlar taqib qo‘yardi. Sultonimga atab unga kokil qo‘ygandi. Olti yoshga to‘lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kestirishgan, qo‘y so‘yib xudoyi qilishgan edi.

Bo‘rixon u yonboshidan bu yonboshiga ag‘darildi. Shunda... shunda uning ustidagi oq choyshab sirg‘alib yelkalari, ko‘ksi ochilib qoldi. Kampir badanidan chayon o‘rmalagandek seskandi. O‘zini orqaga tashladi.

Bo‘rixonning bo‘ynidagi zanjir uchida but yaltiradi. Kampirning ko‘zlari tindi. Bir dam uni shuur tark qildi. Telbadek sapchib o‘rnidan turdi-yu, ayvon tomonga chekindi...

Bo‘rixon armiya xizmatini o‘tagandan keyin ham uyga qaytmadi. O‘rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo‘ng‘iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq-u beqaror bo‘lib qoldi. Qallig‘ining otasi, boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi. Qiz Bo‘rixonni xristian diniga kirishga undadi. Ishq-muhabbatdan ko‘zini parda bosgan Bo‘rixon hech ikkilanmay rozi bo‘ldi. Uni cherkovda cho‘qintirishdi. Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o‘qidi.

Ana shundan keyin Bo‘rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni cherkovga borib cho‘qinadigan bo‘ldi. Qaynotasi o‘lgandan so‘ng uning o‘rniga cherkov qo‘ng‘iroqchisi qilib qo‘yishdi. Nimaiki ish bo‘lsa, barini u bajaradigan bo‘ldi. Piligi so‘xta bo‘lgan shamlarning uchini qaychilaydi, yonib tamom bo‘lganlarini almashtiradi.

1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi...

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Oh, otaginasi tirik bo‘lganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya! Kampir ayvon tomon tisarilib borar ekan, ana shunday o‘ylardi. U ayvonga yetolmay hushidan ketib yiqildi. Qorako‘z uning atrofida ulib aylanardi. Qumri yotgan uyning eshigini timdalab, uni uyg‘otmoqchi bo‘ldi. Qumri uyqusini buzgan itni qarg‘ay-qarg‘ay hovliga chiqdi. Qorako‘z uning etagidan tortib, kampir yotgan joyga sudradi. Qumri onasining behush yotganini ko‘rib qo‘rqib ketdi. Qarib, mushtdekkina bo‘lib qolgan onasini dast ko‘tarib ayvonga olib chiqdi. Boshi ostiga yostiq qo‘yib, suv ichirdi. Yelkalarini uqaladi. Kampir ko‘zini ochdi. Hali tong yorishmay turib, Abdumalik mashinada kelib akasini olib ketdi. Unga Toshkentning mustaqillikdan keyingi manzarasini ko‘rsatmoqchi, Chorsu bozoridan uning bolalariga sovg‘a-salomlar olib bermoqchi edi.

Bo‘rixon uchun O‘zbekistonda mustaqillik bo‘ldimi, bo‘lmadimi baribir edi. U o‘zga yurtning fuqarosi, o‘zga e’tiqodning sig‘indisi edi. Tug‘ilgan yurtga muhabbat tuyg‘usi uni tark qilganiga ko‘p yillar bo‘lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi.

Ertalab kampir hech narsa bo‘lmagandek o‘rnidan turdi. Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko‘payib ketibdi.

Qumri onasining nega bunaqa bo‘layotganini bilib turardi. Boya akasi tong yorishmay hovli etagidagi yong‘oq tagida devorga qarab cho‘qinayotganini ko‘rib hayron-u lol qolgandi. Ayollar, umuman, titimsak xalq bo‘ladi. Akasi Abdumalik bilan hovlidan chiqib ketgach, ichkari uyda turgan chemodanini titkiladi. Shunda sariq baxmalga o‘ralgan bir narsaga ko‘zi tushdi. Ushlab ko‘rdi. Qutichaga solingan narsa to‘pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. U xristianlarning muqaddas kitobi Injil edi. Uni ushlagan qo‘llari kuyayotgandek shoshib yana baxmalga o‘rab qo‘ydi.

Kampir bomdod namozini o‘qiyotib, har sajdaga bosh qo‘yganida joynamozga ko‘z yoshlari tomardi. U joynamoz

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

burchagini qayirib, eriga atab Qur’on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag‘ishlab shu farishtaginaning yo‘lini och, deb Allohga iltijolar qildi. G‘oyibdan hozir bo‘lgan o‘g‘lining nomini tilga ham olmadi.

Saodat aya shu bolasiga to‘lg‘oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg‘ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: «Bo‘ri bolalayapti», degandi. Shuning uchun ham o‘g‘liga u Bo‘rixon deb ism qo‘ygandi. Oradan ellik bir yil o‘tib, bu bolani men emas, bo‘ri tuqqan ekan, degan xayolga bordi.

– Oyi, kiyinasizmi? Abdumalikning mashinasi hozir kelib qoladi. O‘g‘lingiz tayinlab ketgan.

– O‘zing boraver, men shu yerda qolaman, – dedi kampir.

– Axir, akam kechqurun poyezdga chiqadi. Xayrlashmaysizmi?

– O‘zi kelgan, o‘zi ketaveradi. Mashina kelsa, chemodanini tashlab qo‘y. Bu uyga endi qaytib kelmasin, – dedi kampir qat’iy qilib.

– Oyijon-ey, juda qahringiz qattiq-da! Bugun ketadi, qaytib ko‘ramizmi-yo‘qmi, bolam-bo‘tam, deb kuzatib qo‘ya qolsangiz nima qiladi-ya! – dedi zorlanib Qumri.

– Bu bolani men emas, bo‘ri tuqqan... Bir marta dadam qani, deb so‘ramadi-ya! Qandoq ota edi-ya rahmatli.

Ko‘chadan mashina ovozi keldi. Qorako‘z o‘qdek otilib chiqib ketdi. Birozdan keyin kampirning nevarasi Abdunabining atrofida gir aylanib kirib keldi.

– Iya, hali ham kiyinmay o‘tiribsizmi? Uyimiz qarindosh-urug‘larga to‘lib ketdi. Dadamning o‘rtoqlari ham kelishgan. Qani, bo‘la qolinglar!

– Men bormayman, – dedi kampir. – Qumri boradi. Chemodan o‘lgurni ola ketinglar.

– Iya, qiziq bo‘ldi-ku! Amakim bugun ketadilar-ku!

Kampir indamay uyga kirib ketdi, keyin derazadan boshini chiqarib:

– Sen boraver, bolam. Men bilan o‘tirib qon bo‘lib ketding. Jigarlaring bilan birpas yozilib kelasan, – dedi Qumriga.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Mashina ketdi. Kampir hayhotdek hovlida bir o‘zi qoldi. Uning ko‘ksiga allaqaydan kelib tushgan bir parcha muz kechadan beri erimay, vujud-vujudini qaqshatardi.

U uyga kirib tugun ko‘tarib chiqdi. Undan Bo‘rixonning go‘dakligida, bolaligida kiygan kiyimlarini olib qaradi.

Ilgari kampir ba’zi-ba’zida bu kiyimlarni hidlab yig‘lardi. Endi ko‘ksidagi muz uni yig‘lashga qo‘ymadi. U hovli o‘rtasiga xazon to‘plab gugurt chaqdi. Gurillab yonayotgan gulxanga Bo‘rixonning kiyimlarini birma-bir tashlay boshladi. Gulxanda Bo‘rixonning bolaligi yonardi. Qorako‘z gulxan atrofida aylanar, goh alanga taftiga chidolmay nari ketardi. Bir bo‘xcha kiyim zum o‘tmay yonib kulga aylandi. Shamol kuyindilarni hovlining to‘rt tarafiga uchirib ketdi.

Qumrining ko‘ngli bir nimani sezdimi, ko‘cha boshiga yetmay mashinadan tushib qoldi. Uyga kelganda, onasi kaftini iyagiga tirab, qimirlamay o‘tiribdi. Qorako‘z uning xayollariga sherik bo‘lgandek, u ham old oyoqlariga dahanini qo‘ygancha ko‘zlarini yumib, qimirlamay yotibdi. Qumri u yoq-bu yoqqa qaradi. Hovlidan kuygan latta hidi kelyapti. Qo‘shnilardan birortasi eski-tuskilarni yondiryapti, shekilli, deb o‘yladi. Hovlining supradek joyi qorayib qolganini ko‘rib hayron bo‘ldi. Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko‘ylagiga qadaladigan o‘n-o‘n beshta qovjiragan tugma sochilib yotibdi. Qumri nima bo‘lganini bildi. Ichidan zil ketdi.

– Oyi, – dedi u, – nima ovqat qilib beray? Ertalab ham hech narsa tatimadingiz. Bunaqada toliqib qolasiz-ku.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

– Ishtaham yo‘q, bolam. Ichim to‘la muz. Tanamga asta tarqalyapti.

Qumri qo‘rqib ketdi.

– Ko‘p kuyinmang endi, bo‘lar ish bo‘ldi. Xudoning irodasi bu.

– E, qizim-a, bola tug‘magansan-da, bilmaysan!

Kampir qiziga hech qachon «tug‘magansan» deb aytmagan. Aytsa, ta’na qilayotgandek bo‘lardi. Qizining shundoq ham dardi ichida. Bu gapni begona aytsa chidash mumkindir.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ammo o‘z onang aytsa, yuragingni kimga ochasan? Qumri onasining gapini malol olmadi.

– Farzand dog‘i yomon bo‘ladi, bolam.

– Axir akam tirik-ku, shukr qilmaysizmi?

Kampir uning gapini cho‘rt kesdi:

– U yo‘q endi!

Kampir so‘zini oxiriga yetkaza olmay yonboshiga behush yiqildi. Qorako‘z bezovtalanib sapchib turib ketdi. Qumri onasini ko‘tarib, ko‘rpacha ustiga yotqizdi.

Eshik taqilladi. Qorako‘z darvoza tomon yugurdi. Qumri onasi bilan ovora edi. Hovliga mahalla machitining imom-xatibi bilan mutavallisi kirdi. Kampirning ahvolini ko‘rib, bir-biriga qarab olishdi.

– Qizim, – dedi mutavalli, – bemavrid kelib qopmiz. Ona-xondan suyunchi olmoqchi edik.

Ular ayvon oldiga kelishdi. So‘nggi nafasini olayotgan kampirga:

– Onajon, kecha muborak haj safaridan qaytdik. Sizning hajingiz qabul bo‘ldi, – deyishdi.

Imom-xatib Saodat ayaning «Hoji badal» bo‘lgani to‘g‘risidagi hujjatni uzatdi. Kampir qo‘lini ko‘tara olmadi. Ko‘zini arang ochib: «O‘zingga shukur, Allohim», – deya oldi, xolos. U qiziga bir nima demoqchi bo‘lgan edi, tili kalimaga kelmadi.

Qumri uning nima demoqchiligini bildi. Yugurib uyga kirdi-yu, ikkita ohorli to‘n ko‘tarib chiqdi.

– Oyim shu kunga atab saqlab yurgan edilar.

U shunday deb ikkovining yelkasiga to‘n tashladi.

Kampir ikki kun shu alpozda yotib, sal o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Tilga kirdi.

Aslini olganda, uning umri tugagan edi. Bu xushxabar uning tugab borayotgan umriga umr ulagan edi. Bu hol shamning o‘chish oldidan bir lop etishiga o‘xshardi.

– Ukalaringni, singillaringni chaqir! Vasiyat qilib qo‘yay. Sen qo‘rqma, qizim. O‘lim haq. Bu jon degani Allohning tandagi omonati. Undan qochib qutulib bo‘lmaydi. Puf etadi-yu, chiqadi-ketadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Kampirning bolalari yetib kelishdi. Qumri onasining orqasiga yostiq qo‘yib berdi. Qator o‘tirgan bolalariga, nevaralariga qarar ekan, kampir mamnunlik bilan:

– Xudoga shukr, tobutim oldida boradigan hassakashlarim ko‘p ekan, – dedi. – Eshitinglar, bolalarim. Abdumalik, endi bularga sen ota o‘rnida otalik qilasan. Qumri, qizim, endi sen mening o‘rnimga qolasan. Abdunabini shu hovlida uylantiringlar. Yilimni kutib o‘tirmay to‘y qilaveringlar. Shundoq qilsalaring, arvohim shod bo‘ladi. Abdunabi kelin bilan Qumrining oldida qolsin. Shu uy uniki. Onam go‘rida tinch yotsin desanglar, Qumrini aslo yolg‘izlatib qo‘ymanglar.

Kampirning lablari quruqshadi. Qumri piyoladagi suvga paxta botirib og‘ziga tomizdi.

– Shoshib turibman, bolalarim. Meni otalaring oldiga olib ketishga kelishyapti. Endi buyog‘ini eshitinglar. Hamma tadorigimni ko‘rib qo‘yganman. Yilim o‘tguncha bo‘ladigan marosimlarga yetarli pulni Qumriga berib qo‘yganman. Qizim, qulog‘imdagi ziragimni, mahsi-kovushimni g‘assolga bergin. – U endigi aytmoqchi bo‘lgan gapidan iymandi, shekilli, jilmaydi. – Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o‘sma...

Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi.

Hovliga tumonat yig‘ildi. Unga «Hoji ona» deb janoza o‘qishdi. Tobutni ko‘tarishayotganda Qorako‘zni qabristonga bormasin, yomon bo‘ladi, deb qo‘shnining hujrasiga qamab ketishdi.

Kampirning qirqi o‘tgandan keyingina hovlidan odam oyog‘i tovsildi. Egasi ketib fayzi yo‘qolgan hovlida Qumri va Qorako‘z mung‘ayib qolishdi.

Bir kun Qorako‘zning mijjalarida yosh ko‘rib Qumrining yuraklari ezilib ketdi. Qorako‘zga qo‘shilib u ham yig‘ladi. Asta qo‘l yuborib, uning boshlaridan siladi. Oldin bu itni jinidan ham yomon ko‘rardi. Necha marta kosov bilan urgan. Oyog‘i ostida o‘ralashganda tepib yuborgan. Qorako‘z ham uni unchalik suymasdi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ana endi ikki munglig‘ bir-biriga qarab yum-yum yosh to‘kishyapti.

Qorako‘z endi kechalari daydib ketmay qo‘ydi. Har kuni hali tong yorishmay turib (kampir bomdodga turgan-da) uyg‘onib ketardi.

Kampirning bolalaridan ikkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydi. U tong otgandan to kun botguncha hammasining uyiga borardi. Kampirni topolmay, horib-charchab qaytib keladi.

Bugun ham tong sahardan Qorako‘z chiqib ketdi. Pildiragancha Chirchiq tomonga yo‘l oldi. Kimyogarlar shaharchasida kampirning kenja qizi turadi. O‘g‘li magnitofon jinnisi. Hammaning ovozini tasmaga yozib yuradi. Shu yil bahorda buvisining ovozini ham bildirmay yozibdi. O‘shanda kampir supada o‘tirib, allaqayoqlarda daydib kelgan Qorako‘zga tanbeh berayotgan edi.

Qorako‘z Kimyogarlar shaharchasining eng chekkadagi «dom»iga yetib kelganda kampirning nevarasi shisha bankada sut olib kelayotgan edi. Qorako‘z unga dumini likillatib yaltoqlandi. Unga ergashib uchinchi qavatga chiqdi. Uyga kirmay qaytib tushdi. Birozdan keyin kampirning ovozi eshitila boshladi. Qorako‘zning qulog‘i ding bo‘ldi. Yaqin ikki oydan beri yo‘qotgan qadrdon kishisining ovozini eshitib yig‘layotgandek g‘ingshidi. Qorako‘z uchinchi qavatga otilib chiqdi. Eshikni timdalab vovulladi. Yana qaytib tushdi. Boloxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi...

Magnitofondan kampirning ovozi kelardi.

«Qorako‘zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o‘tirasanmi-yo‘qmi? Qorning ham ochgandir? Tentakkina.

Gapimga quloq sol, nega beozor musichani quvasan?..»

Qorako‘z akillar, yerni timdalab orqasiga tuproq otardi. Shu hovlida kecha to‘y bo‘lgandi. Shirakayf yigitlar mikrofonni baland qo‘yib, hech kimni uxlatmagan edi. Uyquga to‘ymagan odamlarga tong mahali akillayotgan itning bu qilig‘i malol kelardi. Quturgan bu it qayoqdan paydo bo‘ldi, uni yo‘qotish kerak, deb o‘ylashardi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Qorako‘z odamlarni jonidan bezor qilib, tinmay vovullar, u yoqdan bu yoqqa yugurib, akillagani akillagan edi.

– Daydi itlarni tutadiganlarni chaqirish kerak, – dedi birinchi qavat boloxonasiga choyshab yopinib chiqqan kasalmand bir kishi.

– Quturgan bu, bolalarni tishlab olmasin-da! Uni otib tashlash kerak! Hoy, kimning miltig‘i bor? – deb asabiy qichqirdi uchinchi qavatdan bittasi.

Kampirning ovozi hamon eshitilib turibdi. Qorako‘z akillashini qo‘ymaydi.

Shu payt to‘rtinchi qavatdan kimdir varanglatib o‘q uzdi.

Qorako‘z vangillab yonboshiga ag‘darildi. Orqa oyog‘ini bir-ikki silkitib jimib qoldi.

Magnitofon tasmasi hamon aylanardi.

«... Qorako‘z o‘lmagur, Majnungina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma’shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko‘rsatasan? Laylingni bir olib kel, ko‘ray...»

Qorako‘z kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha jonsiz yotardi.

1999-yil, yanvar

«QORAKO‘Z MAJNUN» HIKOYASI HAQIDA

San’atkor yozuvchining nigohi oddiy odamlar nazaridan farq qiladi. Insonlar tabiatidagi juda nozik qirralarni, nafaqat insonlar, balki hayvonlarga xos xususiyatlarni ham aniq va ravshan ko‘radi.

Muhtaram o‘quvchi! Agar yodingizda bo‘lsa, siz yozuvchi Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasidan parcha bilan o‘tgan sinflarda tanishgan edingiz. Parcha «Qochoq» deb nomlangan edi. O‘sha parcha siz o‘qigan ushbu «Qorako‘z majnun» hikoyasiga qaysi bir tomondan o‘xshab ketadi. Ona va bola munosabati, ular o‘rtasidagi mehr-muruvvat ildizlari. Agar shu insoniy fazilat va ildizlar qurisa, oradagi ko‘ngil yaqinligi ham barham topadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

«Qorako‘z majnun» Said Ahmadning mustaqillik yillarida yozgan eng yaxshi hikoyalari sirasiga kiradi. Hikoya voqeasi juda murakkab emas. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha o‘n yillardan beri harbiyga ketib, o‘sha tomonalarda uylanib, bola-chaqali bo‘lgan o‘g‘li Bo‘rixonni kutadi. Xudoning bergan kuni sahar namozida uni eslaydi.

Saodat aya tabiatida o‘zbekning chin muslima buvilariga xos bu dunyosini ham, u dunyosini ham o‘ylashdek mulohazakorlik mujassam. O‘g‘lining xabarini nevarasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo‘ladi. Adib kampirdagi bu o‘zgarishni: «Birovga so‘zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o‘tirib qoldi», degan tarzda bayon qiladi.

Kunlarning birida Saodat aya iti Qorako‘z bilan qizining uyiga qarab yo‘lga chiqadi. Ularning borish va kelish jarayoniga diqqat qarating. Yo‘l bo‘yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandlig-u xafagarchiligi, deylik, «bir qulog‘ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik» qilishlarini, yo‘lda uchragan mushuklarni «tiraqaylatib quvishi», «daraxtlardagi musichalarga irg‘ishlab» akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirlaydi. Kampir itini o‘z uyining bir a’zosidek e’zozlaydi. Shuning uchun ham u itiga qarab: «Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o‘ynab turasan», – deb bemalol gapiradi. Yo‘l bo‘yi Saodat kampir iti bilan shu zaylda suhbatlashib boradi va suhbatlashib iziga qaytadi.

Qaytsa, uyida uni g‘aroyib bir yangilik kutib turadi. Bo‘rixon kelibdi, ya’ni kampirning «g‘oyiblari hozir» bo‘libdi. Bu yangilik «Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini» tarqatishi, «ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni» ushatishi lozim edi. Biroq voqelik o‘zgacha tus oladi. Ona va bola uchrashuvi... Qiziq, bu jarayonda it negadir bezovta, u nimanidir sezadi; shu bois «notanish odam-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ga g‘ashlik qilib tinmay irillaydi». Ona bag‘rida Bo‘rixon begonaga o‘xshaydi. Chunki «undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi». Xursandchilikdagi ona avval bunga e’tibor bermaydi. Sekin-asta o‘g‘li Bo‘rixonning ota-bobolari e’tiqod qilgan islom dinidan qaytib, boshqa dinni qabul qilgani ma’lum bo‘ladi.

Ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo‘rixondan ko‘ngli soviydi, uni yo‘qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o‘giradi. Endi ona sahar namozida o‘g‘lini eslamay qo‘yadi.

Hikoyada Saodat ayaning go‘zal yoshlik pallalari, Bo‘rixonning tug‘ilishi va uning boshqa yurtlarda yurib onasi ko‘nglini o‘ksitgan noxush qilmishlarining mo‘jaz tarixi bayon qilinadi.

Vafot etar mahalida ham Saodat ayaning hayot mazmunini, bu dunyoga kelish va ketish hodisasini juda tabiiy – muslimona anglagani farzandlari hamda nevaralarini chaqirib, ularga qilgan vasiyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Albatta, hikoyani o‘qish mobaynida sarlavhadagi Qorako‘z majnun nima ekanini bilib oldingiz. Ha, bu o‘sha, yozuvchi mehr bilan ta’riflagan «kichkinagina, belida belbog‘dek ikkita – biri qora, biri jigarrang chizig‘i bor», «tumshug‘i bilan ikki ko‘zi qop-qora, bir ko‘zining tepasida to‘mtoq qoshi bor» it. Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, hikoyaning boshidan oxirigacha yozuvchi Qorako‘zni Saodat kampirga doimiy hamrohlikda tasvirlaydi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo‘lsa xafa, xursand bo‘lsa xursand, kampir o‘yga cho‘msa, u ham o‘y surgandek bir nafas tinchiydi. Garchand kampirni sog‘intirgan bo‘lsa ham, Bo‘rixon itdan ko‘ra Saodat ayaga begonaroqdir.

Hikoyada Saodat kampir vafotidan so‘ng yozuvchi ham Qorako‘zning ruhiyatini siz o‘quvchilarga anglatish maqsadida o‘tkir qalami bilan uning qora ko‘zlariga ikki tomchi yoshni chizib qo‘yadi. Hikoya oxiridagi Qorako‘z majnunning o‘limi o‘quvchini mahzun qiladi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Hikoya boshida Qur’oni karimning «Baqara» surasidan oyat epigraf sifatida keltiriladi. Bu ko‘chirmalar aynan hikoyadagi Bo‘rixon obraziga taalluqli ekanini hech qiynalmasdan ilg‘ab olish mumkin. As’hobi kahf to‘g‘risidagi hadisi sharif esa hikoyada xuddi ongli va oqil insondek tasvirlangan Qorako‘z majnunga taalluqli, albatta.

Hikoyada juda katta ma’no-mazmun jamlangan. O‘zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko‘rsatish orqali ta’kidlanadi. To‘g‘risi, itning vafosi bir o‘g‘ilning ona ko‘nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma’naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug‘vorlik kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Hikoya nima uchun «Qorako‘z majnun» deb nomlangan?
2. Hikoyadagi Saodat aya obraziga tavsif bering. Saodat ayaning yoshligi qanday tasvirlangan?
3. Nima uchun Saodat kampir o‘z namozlarida o‘g‘lini tilga olmay qo‘yadi?
4. Hikoyadagi Bo‘rixon obraziga tavsif bering.
5. Bo‘rixon nima uchun o‘zbekka o‘xshamay qolgan? Uning e’tiqodida qanday bo‘shliq bor deb hisoblaysiz?
6. Saodat aya nima sababdan Bo‘rixonning go‘daklikdagi kiyimlarini olovga tashlaydi?
7. Hikoyadagi «... Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi» degan gapga e’tibor bering. Saodat ayaning nima uchun ichidagi muzi erimay vafot etdi?
8. Hikoyadagi ona obrazini boshqa asarlardagi ona obrazlari bilan solishtiring. Farqli tomonlarini ayting.
9. Itning o‘limiga kim aybdor?
10. Hayvonot olamiga doir qanday g‘aroyib voqealar sizni hayratga solgan? Bir eslab ko‘ring.
11. Inson va hayvonlar tabiati xususida gapiring.
12. Ushbu hikoyaga o‘xshaydigan yana qanday badiiy asarlarni bilasiz? Ularning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslang.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ABDULLA ORIPOV
(1941–2016)

KO‘RGAN-BILGANLARIM
(*Parcha*)

Mening tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘ng‘irtov etaklaridir. Qishlog‘imizning nomini Neko‘z deydilar. Har holda u qadimiy o‘zbek urug‘larining bir shoxobchasi bo‘lishi mumkin.

O‘sha Qo‘ng‘irtovda bizning bolalik yillarimiz o‘tgan. Bahor kelganda havoni o‘t-o‘lanning yoqimli xushbo‘y hidi qoplar, sharros yomg‘ir quyganda biz tog‘ cho‘qqisi unguridagi kichik-kichik g‘orlarga bekinib olardik. O‘sha yuksaklikdan shimol tarafdagi yam-yashil bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, to‘yib-to‘yib nafas olar edim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go‘zal bo‘lar edi. Tim qora osmonda qo‘l cho‘zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi. Hayotimda bunday go‘zal manzaralarni keyin uchrata olmadim...

Akalarim Buxoro, Toshkent oliy o‘quv yurtlarida til-adabiyot fakultetlarida o‘qishardi. Tabiiyki, ular ko‘tarib yurgan kitoblarning aksariyati badiiy adabiyot namunalari edi. Mening allaqachon savodim chiqqan, kitoblarni sharillatib

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

o‘qiy olardim... Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon she’riyati va yana boshqa ko‘p ro‘mon-u qissalar bo‘lardi. Darvoqe, qish kunlarida to‘ylarga qo‘shni tumanlardan nomdor baxshilar kelib, tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uxlab ham qolar edik. Yanglishmasam, o‘shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko‘p eshitganman...

Mendan katta akam, hozir u qishloq xo‘jaligi sohasida professor, she’r yozib, muttasil bolalar gazetasiga jo‘natib turardi. Gazetadan kelgan javob xatini akamga bildirmay o‘qirdim. Xatda, jumladan, bunday gaplar yozilgan bo‘lardi: «Abdurazzoqjon, she’ringizning mavzusi yaxshi, lekin qofiya-turoqlari chatoq va hokazo». Keyin men qofiya-turoqni o‘rganish uchun rosa kitob titardim. Akam bo‘lsa, unga kelgan javobni o‘qiganimdan bexabar, men qayta yelimlab qo‘ygan konvertni ochib o‘qir, «nima yozibdi» deb so‘rasam, jahl bilan «ishing bo‘lmasin» deb xatni burda-burda qilib yirtib tashlar yo bo‘lmasa yoqib yuborardi...

She’rlarim avval tuman, viloyat gazetalarida bosilib turgan bo‘lsa-da, birinchi marta respublika bolalar gazetasida «Qushcha» degan she’rim bosilib chiqqan. Men she’rim chiqqan kun bu gazetani «To‘qimachilar saroyi» kinoteatrining «Qizil burchagi»da ko‘rib qolganman. Bu orada qanchadan-qancha she’rlarim, to‘plamlarim chop etildi. Biroq ilk she’rim bosilib chiqqan o‘sha daqiqalar, uning quvonchi sira-sira esimdan chiqmaydi. Balki bu ham adabiyotdagi birinchi muhabbat nash’asidir.

* * *

Mening deyarli har bir she’rim hayotdagi ma’lum bir voqea, hodisa bilan bog‘liq, jo‘nroq qilib aytganda, har birining turtkisi bor. Masalan, «Ayol» degan she’rim urushdan qaytmagan amakilarimning bevalariga bag‘ishlangan. Men ularning iztiroblarini ko‘rib, kuzatib ulg‘ayganman. Yoxud «O‘zbekiston» qasidasining yozilishi-chi? Vataning butun Sovet Ittifoqi, deb uqtirib turilgan bir paytda, O‘zbekiston nima bo‘ldi ekan, degan savol yuragimning tubida paydo bo‘lib, hoyna-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

hoy, «Vatanim – O‘zbekiston» deb she’r yozgan bo‘lsam, tilimizning har qadamda yerga urilayotganini ko‘rib «Ona tilimga» nomli she’rni yozganman.

O‘sha yillari mening yosh idrokimni ikki-uch savol qattiq qiynardi. Birinchisi, nega mening xalqim ikkinchi sort, ikkinchisi, nega mening tilim beobro‘, nega mening Vatanim mavhum, nega tabiat ato etgan his-tuyg‘ularni ham oshkora izhor qilish mumkin emas, masalan, yaqin qarindoshing o‘lsa marsiya yozish mumkin emas, muhabbating baxtsiz bo‘lsa, nadomat chekish gunoh va hokazolar. Endi o‘ylasam, hamma xalqlar katta bir yilqi uyuri singari bitta qamchining ishorasiga bo‘ysunib yashar ekan... Men bu o‘rinda boshimdan o‘tgan turli mayda-chuyda tazyiqlarni eslab o‘tirmayman. Lekin bir gapni aytmasam bo‘lmas. Mening ijodimda yolg‘izlik, mahzunlik tuyg‘ulari ko‘p uchraydi, deya dakki berishgan va buning sababini turlicha sharhlashgan ham. Aslida esa mening tabiatim o‘zi shunaqaroq bo‘lsa kerak. Ikkinchidan, meni qiynagan savollarga javob topolmay o‘rtangandirman; uchinchidan, shu hasad degan baloning hujumiga juda erta duch keldim. Bularning barchasi satrlarimda qandaydir shaklda aks etgan bo‘lsa, ajab emas. Chunonchi, hajviy ruhdagi she’rlar ham qandaydir sun’iy ravishda yaratilgan emas. Ko‘p qatori meni ham laqillatgan, aldagan odamlarning son-sanog‘i yo‘q. Haligiday achchiqroq she’rlarning yozilishiga, albatta, o‘shalar sabab bo‘lgan.

Men tarjimachilik bilan ham shug‘ullandim. Ushbu mashg‘ulotimning eng asosiysi Dantening «Ilohiy komediya»si deb bilaman. Tarjima jarayoni men uchun eng ulug‘ maktab bo‘ldi. Agar qog‘oz ustida eng ko‘p ter to‘kkan bo‘lsam, o‘sha tarjima ustida to‘kkanman. Ona tilimizning naqadar boy ekanligiga imon keltirgan bo‘lsam, o‘sha tarjima jarayonida imon keltirganman. Ishondimki, bizning tilimiz hech bir mubolag‘asiz jahondagi eng go‘zal va eng badavlat tillardan biridir...

Mening inson va ijodkor sifatida baxtim – O‘zbekistonimning Mustaqilligini ko‘rdim va nebaxtkim, ozod Vatanimga baholi qudrat xizmat qilib yuribman.

2000-yil 23-yanvar

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

«MUNOJOT»NI TINGLAB

Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni, ohang.
Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am!

Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Qaylardan kelmoqda bu oh-u faryod.
Kim u yig‘layotgan, Navoiymikin,
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!

Bas, yetar, cholg‘uchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko‘ksimga urmagil xanjar,
Nahotki dunyoda shuncha g‘am bordir...
Agar shu «Munojot» rost bo‘lsa agar.

Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo.
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!

Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Asrlar g‘amini so‘ylar «Munojot».
Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

«MUNOJOT»NI TINGLAB» SHE’RI HAQIDA

Siz «Munojot» kuyini hech tinglaganmisiz? «Munojot» so‘zining lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

Bu she’rda shoirning «Munojot» kuyini tinglagandan keyingi kayfiyati juda teran ifodalangan. She’r shoirning kuyga, rubob va chalg‘uvchiga murojaati uslubida yozilgan. Munojot – g‘amli kuy.

«Munojot» so‘zi arabcha bo‘lib, yordam so‘rash, yolvorish, yalinish, najot so‘rash ma’nolarini anglatadi.

Ma’lumki, «Munojot» – o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida juda katta o‘rin tutadigan asarlardan biri. Uning ohangida g‘amginlik, inson qalbiga mahzunlik beradigan dard bor. Shu

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

dard tufayli lirik qahramon ko‘ziga yosh keladi, bag‘ri tilkalanadi.

Kuy shoirga kimlarningdir yig‘isi, oh-u faryodi bo‘lib eshitiladi. Shunda Navoiy, Xayyom bejiz eslanmaydi. G‘am ko‘lami katta, u kecha yo bugun paydo bo‘lgan emas, uning yukini odamzod ko‘tarishi oson emas. Kuy shunchalar mahzun bo‘lsa, asil dard-u g‘amning o‘zi qanday ekan?

Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

Shoir shuni mulohaza qiladi. O‘quvchini fikrga chorlaydi.

Asrlardan oshib kelgan g‘am va alamlardan kuy paydo bo‘lgan. Kuy, qo‘shiq va she’r hamisha inson dardi, qalb holatining in’ikosi tarzida dunyoga keladi. «Munojot»ni tinglab» shulardan biriga juda yaxshi misol bo‘ladi.

YURTIM SHAMOLI

Yo‘llarda yildirim misoli yeldim,
Ellar vodiysiga boshladi havas.
Elvagay Hisorning boshiga keldim,
Sen esding – taraldi siym tanda atlas,
Sen esding – ochildi yorning jamoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Men-ku, bu dunyoda bir zori visol,
Karbalo dashtida Majnun sifatman.
Shamollar ichida men ham bir shamol,
Chechaklar atridan men ham sarmastman.
Lekin sen ruhimning mangu xayoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,
Ulardan esdilar turfa xil nafas.
Ularda goh qayg‘u, goh shodlik ko‘rdim,
To‘xtamay o‘tdilar bari ham birpas.
Faqat qayg‘ulardan sen o‘zing xoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,
Shamollar goh quyun, gohida dovul.
Ular goh oshkora, goho ro‘yoda
Qancha bo‘stonlarni sovurgan butkul.
Lekin sen bo‘lmagin bog‘lar zavoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Esgin-ey bog‘larning jamoli kulsin,
Moviy nafas bilan to‘lsin etaklar.
Uchqur qo‘shiqlarga bu olam to‘lsin,
Sha’ningga shoirlar aytsin ertaklar.
Esgin, Vatanimning taralsin boli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Meni chorlayotir oliy bir jamol,
Bilmasman, oh, unga qachon yeturman.
Bu gulshan vodiyda men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shunday keturman.
Lekin Abdullaning boqiy kamoli –
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

«YURTIM SHAMOLI» SHE’RI HAQIDA

Badiiy ijod namunalarini o‘qigan o‘quvchilar yaxshi biladiki, tabiat shoirlarga ilhom beradi. Shuning uchun tabiatning quyosh, oy, yulduz, yomg‘ir, qor, shamol kabi unsur va hodisalari she’riy matnlar tarkibida uchraydi. Abdulla Oripov she’ridagi asosiy obraz – bu shamol. Shamolning esishi shoirning lirik qahramoniga o‘zgacha ruhiy kayfiyat bag‘ishlaydi. Shamoldan fikr va his-tuyg‘ular oqimi maydonga keladi. Shoir o‘zini turli makon va holatlarda kuzatadi.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,
Ulardan esdilar turfa xil nafas.

Ushbu misralarda shamolni ramz sifatida ijtimoiy talqin qilish o‘rinli bo‘ladi. Turli holat, vaziyat, ko‘rsatma, o‘zgarish, har xil qayg‘u-g‘am va shodlik – barcha-barchasi «shamol» metaforasi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

vositasida ifoda qilinadi. Shamol goh quyun, goh dovuldek shiddatli, ba'zida oshkora, ba'zan yashirin esadi. Shamol tufayli bog'lar barbod bo'lishi, bo'stonlar zavolga yuz tutishi mumkin. Hatto inson umr yo'llarida noo'rin paydo bo'lgan «shamol» – tuhmat yo bo'hton – uning hayotini izdan chiqaradi. Shoir shamolga har band oxirida: «O, yurtim shamoli, yurtim shamoli», – deb xitob qilar ekan, fikr yo'nalishini «qayg'ulardan xoli» saodat va bunyodkorlik yo'llariga boshlaydi.

Shoir shamol sha'niga bag'ishlagan ushbu she'rida juda muhim bir falsafani ilgari suradi. Insonning dunyoga kelishi va ketishini:

Bu gulshan vodiyda men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shunday keturman, –

deb shamol obrazi vositasida ifodalaydi. Hayot – gulshan vodiy; inson – shamol. Bu gulshanga inson shamolday keladi va shunday tez ketadi. Ammo shoir falsafasining o'z ma'naviy-ruhiy borlig'iga taalluqli bo'lgan muhim qirrasi bor. Bu «Abdullaning boqiy kamoli» birikmasida mujassam, ya'ni yurt shamollari esib turar ekan, shoir o'z ma'naviy olamining barkamol bo'lishiga umid qiladi.

Abdulla Oripovning ijodiy merosida asrlardan asrlarga oshib o'tadigan va o'quvchilar qalbini zavq-shavqqa to'ldiradigan she'rlar ko'p. «Yurtim shamoli» ham shular jumlasiga kiradi.

BIRINCHI MUHABBATIM

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayri ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Lekin seni yo‘qotdim, birinchi muhabbatim,
Mangu g‘aflatda qotdim, birinchi muhabbatim.

Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan.
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.

Holbuki, orzulardan judo ham bo‘lganim yo‘q,
Yulduzday kulganim yo‘q, oy kabi to‘lganim yo‘q.
Erta xazon gul kabi sarg‘ayib so‘lganim yo‘q,
Seni eslab yig‘layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag‘rim tig‘layman, birinchi muhabbatim.

Yo‘lin yo‘qotsa odam – muhabbatga suyangay,
G‘ussaga botsa odam – muhabbatga suyangay.
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim.
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.

Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim,
Sirli tushlar ko‘rib men bor dunyoni unutdim.
Tongda turib nomingga ushbu she’rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg‘iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim.

«BIRINCHI MUHABBATIM» SHE’RI HAQIDA

Hazrat Alisher Navoiyning «So‘zki, ma’nosida ishq o‘ti nishoni bo‘lmag‘ay, Bir taharruksiz badan onglaki, joni bo‘lmag‘ay», ya’ni agar so‘zda ishq to‘g‘risida gap bo‘lmas ekan, uni jonsiz jism hisoblagin, degan mazmunda hikmatli bayti bor.

Abdulla Oripovning «Birinchi muhabbatim» she’ri inson qalbidagi bebaho ma’naviy javhar bo‘lgan hisni bayon qiladi. Unda «ishq o‘ti»dan nishon borki, she’r shoirning badiiy jihatdan eng pishiq, ta’sirli, jonli va tirik asarlari jumlasiga kiradi.

She’rda visolga erishmagan oshiq nolasi, g‘aflatda qolib muhabbat tuyg‘usiga beparvo bo‘lgan lirik qahramonning

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ichki dard va kechinmalari o‘z aksini topgan. Bu kayfiyat xayolga tolish, eslash uslubida ifodalangan. Osmondagi oy, charaqlab chiqqan yulduz ma’yus tortgan lirik qahramonga birinchi muhabbatini eslatadi. Eng qadrli narsalarini odam g‘aflatda qolgan pallada yo‘qotadi. Yo‘qotish esa pushaymonlikka olib keladi. Bu she’rda lirik qahramonning afsus-nadomati, pushaymonligi ham yaqqol sezilib turadi; u: «Nechun bilmovdim avval», – deb yozg‘iradi. O‘z vaqtida beparvo qaralgan voqelikni qayta idrok etishda har qanday inson o‘zi va boshqalar uchun juda muhim hayotiy xulosalar chiqarishi mumkin.

O‘tdi yoshlik zavq bilan, gohi to‘polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan.

She’riy matn tarkibidagi shu ikki misraning birinchisida yoshlikka xos ikki sifat keltirilgan: «zavq» va «to‘polon». Bu tuyg‘uni anglash sizga nisbatan oson. Biroq yaxshi va yomonlarga duch kelish – bu uzoq hayotiy tajribaga ega odamlar qismati. She’riy banddan murod g‘aflatda qolgan odamning o‘z muhabbatini eslashidir.

She’rda dunyoning sirliligi, «tuynuksiz qasr»ligi, muhabbat tuyg‘usi inson umriga suyanch, yo‘lini yoritadigan chiroq ekani bayon qilinadi. Bularning barchasi odamning peshonasiga bitilgani va hayotdan olgan saboqlaridir. She’rning beshinchi bandida «muhabbatga suyanish»ning uch bora takroridan keyin kelgan «Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim» misrasidagi oh-u faryoddan, qalb nolasidan o‘quvchining butun vujudi larzaga keladi. She’r so‘ngida shoir armonli muhabbatining «dildagi ohi» ekanini ochiq yozadi. «Yolg‘iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim» degan oxirgi misrada she’rning yana bir fazilatli qirrasi ochiladi. Ollohga muhabbat tushunchasining ifodasi shoirni o‘z salaflari, ya’ni mumtoz o‘zbek shoirlarining estetik olami bilan bog‘lashga imkon beradi.

Umuman olganda, Abdulla Oripovning ushbu betakror «Birinchi muhabbatim» she’ri odamga «hamisha bir hisga asir»likni eslatib turadi; bunday go‘zal his-tuyg‘uga nisbatan hech kim aslo beparvo bo‘la olmaydi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

QO‘RIQXONA

Asraymiz o‘simlik xillarin tayin,
Asraymiz hayvonlar kamyob zotini.
Hatto atroflarin o‘rab atayin
Qo‘riqxona deymiz so‘ngra otini.

Sayoq ovchilarga u yon yo‘l bo‘lsin,
Jarima solamiz, qamaymiz hatto.
To u jonzotlarni tinchiga qo‘ysin,
Qirilib bitmasin tirik dunyo to.

Munis mavjudotga mehr-u shafqat bu,
Bu inson qalbida balqqan hamiyat.
To yashar qaydadir bu yanglig‘ tuyg‘u,
Har nechuk qirilib ketmas tabiat.

Olamda ko‘p narsa kamyob bir qadar,
Ne-ne tuyg‘ular ham kamyobdir, alhol.
Men derdim sof qalbni uchratgan safar,
Darhol o‘rab oling atrofin, darhol.

Insof yo‘qolmasin, o‘rang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob.
Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdor turna kabi bo‘lmasin kamyob.

Oqibatni asrang, oqibat go‘yo
Ayiqday qaydadir topmasin zavol.
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo
Otashga duch kelgan polapon misol.

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon.
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ezgu, latif hislar bo‘lmasin tahqir,
Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor.
Xudbin va dilozor kimsaning, axir,
Og‘zi qon yirtqichdan qanday farqi bor?!

To‘qayga o‘t ketsa yongay bus-butun,
Adolat borliqqa yolg‘iz onadir.
Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun
Yovuzlikdan zada Qo‘riqxonadir.

«QO‘RIQXONA» SHE’RI HAQIDA

Abdulla Oripov she’rlarida insoniy fazilatlarni ulug‘laydi; inson tabiati bilan tabiat hodisalarini qiyoslab xulosalar chiqaradi. Odatda, eng noyob hayvon, qush va o‘simlik turlarining yo‘qolib ketmasligi uchun maxsus qo‘riqxonalar tashkil etiladi. Bunday maskanlarning qo‘riqchi egalari bo‘ladi. Ular qo‘riqxona jonivorlarini yovuz odamlardan himoya qiladi.

Shoirning maqsadi qo‘riqxona to‘g‘risida xabar berish emas. U she’riga har kimga tanish va ma’lum bo‘lgan «Qo‘riqxona» degan sarlavhani qo‘yib, uning qisqacha ta’rifini keltirgach, boshqa yana ham muhim narsa – insoniy qadriyatlar va fazilatlar haqida so‘z ochadi. Ulardan birinchisi sof qalb. Pok niyatli, toza yurakli odamni topish hamma zamonlarda qiyin bo‘lgan. Shoir sof qalbli insonni albatta asrash kerakligiga urg‘u beradi. Insonlararo munosabatlar uchun insof ham juda zarur fazilatdir. «Insof yo‘qolmasin» – niyat shunday oliyjanob. Ezgulik va oqibatni ham asrash lozim.

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Imon haqida yozilgan ushbu bandga alohida diqqat qaratish kerak. Chunki imon insoniy fazilatlarning barchasini o‘zida mujassam etadi. Allohga, farishtalarga, ilohiy kitoblarga, payg‘ambarlarga, qiyomat kuniga, o‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonchdek juda ulkan haqiqat «imon» tushunchasi

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

bilan ifodalanadi. Imonni asrash – bu dunyo va oxiratni asrash degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, shoir vijdon, «ezgu, latif hislar» ham himoyaga muhtojligiga urg'u beradi.

Yovuz qarashlar, yovuz kimsalar jamiyatni yemiradi. Xotirjam hayot uchun esa adolat zarur. She'r bamisoli dunyoni ham, inson qalbini ham yovuzlikdan asrashga oid ogohnomadek taassurot qoldiradi. «Qo'riqxona» she'rini o'qishda moddiy dunyo bilan ma'naviy tushunchalar yonma-yon tavsiflanadi. Hayotiy tajribalardan kelib chiqadigan bunday falsafiy mushohadalar Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xos qirralaridan birini tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Shoirning o'zi haqida yozgan «Ko'rgan-bilganlarim» nomli avtobiografik maqolasining to'liq matnini topib o'qing?
2. Shoir «Munojot»ni tinglab» she'rida nega «Sen beshik emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!» xulosasiga keladi. Kuy lirik qahramonning qaysi tuyg'ulariga qattiq ta'sir qildi deb o'ylaysiz?
3. «Yurtim shamoli» she'rida «Meni chorlayotir oliy bir jamol, Bilmasman, oh, unga qachon yeturman» misralari orqali shoir nimaga ishora qilmoqda.
4. «Yurtim shamoli» she'rining asosiy badiiy xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Inson qachon muhabbatga suyanadi? Nega?
6. Abdulla Oripovning «Birinchi muhabbatim» she'ridagi qaysi misralar dilingizga yaqin?
7. Shoir «qo'riqxona» deganda nimani nazarda tutadi?
8. Globallashgan zamonda, aslida, nimalarni qo'riqlay olishimiz kerak deb hisoblaysiz. So'zingizni aniq dalillar bilan asoslang.
9. Olam qachon go'zal bo'ladi? Ushbu savolga Abdulla Oripovning barcha she'rlarini umumlashtirgan holda munosabatingizni bildiring.
10. Abdulla Oripov she'rlari bilan aytilgan qo'shiqlarni tinglab, «Qo'shiq sehri» mavzusida ijodiy matn yarating.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

O‘TKIR HOSHIMOV
(1941–2013)

MASHAQQATLI SAFAR

Kitobxon bilan ikki og‘iz suhbat

«Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi...» «Dunyoning ishlari» kitobining bir bobi shunday so‘zlar bilan boshlanadi. Chindan ham bu asar – deyarli hasbi-hol qissa. Faqat undagi ba’zi odamlarning ismi o‘zgargan. Aslida, har qanday badiiy asarda ham ma’lum ma’noda muallif tarjimayi holining bir bo‘lagi bo‘ladi. Sababi, yozuvchi o‘z asariga qalbini bag‘ishlaydi.

Menga qolsa, badiiy ijodda qandaydir ilohiy jarayon bor, degan bo‘lur edim. Xudo ko‘ngliga solmaguncha haqiqiy ijodkor qo‘liga qalam olmaydi! Haqiqiy asar shunchaki yozilavermaydi, haqiqiy asar farzand kabi tug‘iladi! «Dunyoning ishlari» va «Qalbingga quloq sol», «Nur borki, soya bor» va «Bahor qaytmaydi», «Ikki eshik orasi» va «Tushda kechgan umrlar» asarlari, qator hikoya va sahna asarlari ham shu tarzda tug‘ilgan...

Har kim o‘z ajdodlari bilan faxrlanishga haqli. Mening ota-bobolarim ham o‘z zamonining mashhur kishilari bo‘lishgan. Jumladan, bobokalonim – bobomning otalari Abulqosim-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

xon eshon Turkiston tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan ulug‘ shaxslardan biri bo‘lganlar.

Toshkentda, «Xalqlar do‘stligi» saroyi (hozirgi «Istiqlol» san’at saroyi) yaqinida qadimiy obida – madrasa bor. Bu dargohda o‘tgan asr boshlarida Abdulla Qodiriy, Munavvarqori, G‘ulom Zafariy va boshqa ulug‘ zotlar ta’lim olgan.

Obida bir yarim asr avval Abulqosimxon eshon tomonidan bunyod etilgan. Bu zukko inson o‘zbek tilidan tashqari arab, fors, rus va boshqa tillarni mukammal bilgan.

Otam Atoulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo‘lib qishloqqa – Do‘mbirobodga ko‘chib kelgan, xarobagina kulbada tirikchilik qila boshlagan. Biroq bu yerda ham tazyiqlar to‘xtamagan. Dehqonchilik qilgan. To‘qimachilik kombinatida, so‘ng shu kombinatga qarashli bolalar oromgohida ishlagan.

... Eski kitoblarni ham, zamonaviy adabiyot va gazetalarni ham o‘qib borar, o‘ta haqparast, nohaqlikni ko‘rsa yonib ketar edi.

Onam – Hakima Hoshimova esa otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Ko‘chada biron bola yig‘lab o‘tirgan bo‘lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biron sabab bilan biz bolalarni koyisa, o‘zi ham yig‘lab yuborar, o‘sha zahoti ko‘nglimizni olishga harakat qilardi. Oyim qancha sodda bo‘lsalar, shuncha donishmand ham edilar! Iloji boricha hammaga yaxshilik qilishni xohlar, o‘ta oqko‘ngil, gina-kuduratni bilmaydigan ayol edi («Dunyoning ishlari»da qanday tasvirlangan bo‘lsa, onam xuddi shunday edi).

Men 1941-yil 5-avgustda Toshkent biqinidagi Do‘mbirobod qishlog‘ida tug‘ilganman. Qishloqda, tag‘in, poytaxt biqinidagi qishloqda tug‘ilganim taqdirning hadyasi bo‘lsa ajab emas. Negaki ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli bo‘lishi kerak. Oyim bir gapni ko‘p aytardi: «Sen tug‘ilganingda qiyomat qoyim bo‘lgan edi. O‘ris xotinlar urush boshlanibdi, deb yig‘lagan, men – ammamning buzog‘i hayron bo‘lgandim. Urush allaqayoqda bo‘layotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim. Keyin aqlim yetdi».

«Ikki eshik orasi» romanida Qora amma ham urush haqidagi xabarni shunday qabul qiladi. O‘g‘li Kimsan front-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE



O‘tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani (2013) va «Dunyoning ishlari» qissasi (2016) muqovalari

ga ketmoqchi bo‘lganidan keyingina vahimaga tushib qoladi. Ba’zi do‘stlarim roman qo‘lyozmasining muhokamasida «urush boshlangani haqidagi xabarni bu qadar soddalashtirib tasvirlamaslik kerak edi», degan mulohazani aytdi. Biroq men uchun bu hodisa kinolarda tasvirlanganidan ko‘ra, onam aytib bergan hikoyada hayotga yaqinroq ko‘rindi.

Oilamizda bir qiz, to‘rt o‘g‘il edik. Men uchinchi o‘g‘il edim (otamning birinchi oilasidan yana bir opam borligi, onam ikkalamiz ko‘p ovorayi sarsonliklardan keyin to‘ng‘ich opamni ham topib olganmiz. «Dunyoning ishlari»da yozilgan).

Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham birontamizni chertgan emas. Otani qattiq hurmat qilishni onam o‘rgatgan: «Hozir adang keladila, uyni supurib qo‘y», «Adangni jahllari yomon, tinch o‘tiringlar», «Adangni ketmoniga tegma», «Adangni soatiga qo‘l tegizma...»

Bilmadim, balki hozirgi oilalarga bu holat «feodallik» bo‘lib tuyular. Ammo bizning oilamizda otaga sig‘inish farzandlarga ziyon keltirganini eslay olmayman.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Birinchi kitobim 3-kursda o‘qiyotganimda chiqqan. Bu «Po‘lat chavandoz» degan ocherklar to‘plami edi. Birinchi badiiy asarim – «To‘rt maktub» hikoyasi esa 1963-yil 17-aprel kuni «Toshkent haqiqati» gazetasida bosilgan (shundan beri har yil 17-aprelni o‘zimcha nishonlayman). Shu hikoya asosida «Cho‘l havosi» degan qissa yozildi. «Sharq yulduzi»da bosildi (To‘rtinchi kursda o‘qirdim). Qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyatda xayrixohlik bilan xat yozganidan keyingina o‘zimga ishonch paydo bo‘ldi. Mendan yozuvchi chiqishi mumkin ekan, degan xayolga bordim.

Toshkent zilzilasidan keyin – 1966-yildan 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo‘lim mudiri bo‘lib ishladim. Bu davr men uchun eng hayajonli, eng sermahsul damlar bo‘ldi. «Bahor qaytmaydi», «Qalbingga quloq sol», «Kvazarlar» qissalari, «Nur borki, soya bor» romani, «Inson sadoqati», «Vijdon dorisi», «To‘ylar muborak» sahna asarlari, ko‘plab hikoya va hajviyalar, publitsistik maqolalar shu yillarda yozilgan.

Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga taqdim etardim, «birinchi ustozim Oyimga» deb yozib berardim.

1980-yili onamning to‘satdan vafot etishi menga juda og‘ir ta’sir qildi. Farzandlik burchimni qay darajada ado etdim, degan o‘kinchli xayol vujudimni larzaga soldi. «Dunyoning ishlari» kitobi shu iztirobli tuyg‘ular tufayli tug‘ildi.

Uch yil davomida G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida ishladim. «Ikki eshik orasi» romani, qator hikoyalar, qissalar shu yillarda dunyoga keldi.

1985-yildan 1995-yilgacha «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishladim.1995-yildan 2005-yilgacha Oliy Majlisda ishladim. Qonun yaratish ham ijod. Murakkab ijod.

Yaratganga shukr. Qirq besh yil davomida 60 ga yaqin kitobim turli tillarda ikki milliondan ko‘proq nusxada nashr etildi. Ular orasida kitobxon uzoq vaqt eslab yuradigan asarlar bo‘lsa, o‘quvchi qaysidir satrlarni o‘qiganda ko‘ziga yosh kelsa, qayerdadir mazza qilib kulsa, hayajonga tushsa, men uchun bundan ortiq quvonch yo‘q.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Inson haqida yozishga, xalqimizning sodda-donishmandligi, sabr-qanoatini tasvirlashga urindim.

Yaratganga shukr, oilam ijod mashaqqatini chuqur anglaydi. Umr yo‘ldoshim – pedagog. Ikki farzandim, besh nabiram bor.

Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o‘qigan kitobxon, hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o‘qib bo‘lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to‘lg‘onib chiqsa. Oradan yillar o‘tib asarni qaytadan qo‘liga olganda tag‘in hayajonlansa... Eng katta orzum – shu.

IKKI ESHIK ORASI

(*Romandan parcha*)

Ikkinchi bob
«QORA AMMA» HIKOYASI

Bechora chora istar

Peshindan keyin nuqul o‘ng qovog‘im uchaverdi. Qurib ketsin! Shu ko‘zim uchsa xafa bo‘laman. O‘zimni chalg‘itish uchun tappi qildim, hovlini chalib chiqqan bo‘ldim. Dilim o‘lgur hech yorishmaydi. Dardimni aytay desam, Robiya ham ishda. Qizim bechoragayam qiyin. Erta ketadi, kech keladi. Qiz bola boshi bilan traktor haydaydi. Bashoratxon o‘zi yaxshi juvon-ku, jahli tezroq. Achchig‘i chiqsa, eriniyam nari oborib, beri opkeladi. Nima qilsayam brigad-da! Qolaversa, Oqsoqoldek odam yarim kechagacha daladan chiqmaganidan keyin o‘zini u yoqqa-bu yoqqa tashlashga uyaladi-da kishi...

Xayolim bo‘linarmikin deb, tomorqadagi jo‘xorizordan sigirga o‘t yulayotganimda ertalab Muzaffar «jo‘xori kabob yeyman» degani esimga tushdi. Ukam ham juda kajbahs-da! Bolani tashlab keta qol, desam ko‘nmaganini ko‘rmaysizmi? Yosh bola kun bo‘yi dalama-dala yuradi. Og‘ziga bir qoshiq obiyovg‘on tutadigan onasi bo‘lmasa! Peshinda obshi qozondan sho‘rva ichadi – shu!

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Shomurodning fe'li cholimga o'xshaydi. Cholim ham o'z kindigini o'zi kesgan xilidan edi. Kolxoz bo'larmish degan gap chiqqanida Orifxo'ja boyning odamlari kechasi uyimizga bostirib kirgan. «Ichagingni boshingga salla qilib ketamiz», – deb qo'rqitgan. Cholimning jussasi kichkina bo'lsayam, yuragi otning kallasidek edi. «Bir boshga bir o'lim, qo'lingdan kelganini qil», – deb turavergan.

Bola narsa, sevina qolsin deb jo'xorining sutlirog'idan tanlab, qo'rga ko'mdim. Robiyaning kelishini kutishgayam sabrim chidamay yo'lga tushdim.

Alvasti ko'prikdan o'tayotganimda yuragim yana hovliqdi. O'lsin! Xosiyatsiz joy! Urush paytida Robiyaga ham shu ko'prikda ajina daf qilgan...

Yong'oqzordan o'tib ketayotsam, oldimdan Olimjon chiqib qoldi. Komil tabibning o'g'li. Baraka topgur, xo'pam yaxshi bola. Urush paytida Robiyaning traktoriga suv tashib yurardi. Hozir Toshkentdagi katta o'qishda o'qiydi. Oqsoqol bilan cholim poyiz tagida qolganida qandoq chirqillagan edi, bola bechora... Umri uzoq ekan, Oqsoqol tirik qoldi. Ammo cholim...

– Shomurod akamnikiga ketyapsizmi? – dedi salom berib. – Tezroq bora qoling.

Yuragim bir qalqib tushdi.

– Tinchlikmi?

– Tinchlik. Xavotir olmang... – dedi-yu ketaverdi.

Xavotir olmaganim qursin. Eshikdan kirib kelsam, bu hangoma. Qovog'im bekorga uchmagan ekan-da...

Muzaffar bechora qattiq qo'rqqan ekan. Dadasidan bir qarich jilmaydigan bola etagimga osilib yalindi:

– Ammajon, ketmang, sizminan yotaman!

Qiziq, soat necha bo'ldiykin? Oy peshtoqqa kelib qopti.

Chigirtka chirillaydi... Hammayoq suv quygandek jimjit. Bolani bag'rimga bosib o'tiribman. Ichkarida Shomurod xo'rsinadi. O'qtin-o'qtin: «Baribir o'ldiraman!» deb alahlaydi. Muzaffar, qo'li og'riyotgan bo'lsa kerak, ingraydi. Uyqusida cho'chib pinjimga kiradi. Ana, yana seskanib tushdi. Ko'zini ochib, atrofga olazarak qaradi.

– Qo'rqib ketyapman...

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Qo‘rqma, bolam, men borman-ku. Uxla...

Juvongina o‘lgur noinsof! Bolaning uvoli tutgur, imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo‘q edi-ku! Cho‘loq bo‘lsa devor oshib o‘g‘rilik qilib bo‘lmagandir! To‘rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o‘lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o‘ylasang bo‘lmasmidi, imonfurush!

Oy havolab ketdi. Ayvon qop-qorong‘i bo‘lib qoldi. Uyqu qani? Xayol ming ko‘chaga olib kiradi. Kimsanim... Oltitasini yerga qo‘yib, bittagina tutgan bolamniyam Xudo ko‘p ko‘rdi.

Dukur-dukur ot keldi,
Ot boshida xat keldi.
Xatini o‘qib ko‘rsam,
Voy-voy bilan dod keldi...

– Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog‘mi o‘zi? Mayli, oyoq-qo‘lsiz bo‘lsang ham, birov zambilda ko‘tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo‘lingga termula-termula o‘tdi. Endi aqalli meni o‘z qo‘ling bilan tuproqqa qo‘ysang-chi! Yo‘q, yig‘layotganim yo‘q, bolam! Yig‘lamayman. Mabodo yig‘lasam ham... Yo‘q, o‘g‘lim. Men yig‘lasam, sen bezovta bo‘lasan. Robiya kuyadi. Qizimning ikki ko‘zi haliyam eshikda. Kutyapti. Seni kutyapti. Boshqa qiz bo‘lsa, etagini qoqardi-yu, bor-e deb bittasiga tegardi-ketardi. Ne-ne joylardan sovchi chiqmadi. Tuqqandanmi-tug‘ishgandanmi deb shuni aytadi-da! Bir qiz bo‘lsa shunchalik bo‘lar.

– Shunaqa deyman-u...

– Voy, o‘lmasam! Yana o‘sha shum xayolga boryapmanmi? Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko‘rsatmasin, shahid ketgan bo‘lsang, arvohing chirqillaydi. Tirik bo‘lsang, ertaga kelib yoqamdan olasan. «Nima qilib qo‘yding, shum kampir, senam onamisan, imonsiz», deysan! Nima desang haqqing bor. Qaysi ona o‘z yuragini o‘zi sug‘urib tuproqqa tashlaydi? Qaysi ona o‘z bolasiga o‘zi xiyonat qiladi?

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Qandoq qilay, jonim bolam? O‘zing o‘yla, axir. Robiyam, sening Robiyang, qovjiragan guldek ko‘zimning oldida so‘lib boryapti. Yoshi o‘ttizga qarab ketyapti, o‘g‘lim! Sovchilar «qari qiz» deb qadamini uzib qo‘yganigayam ancha bo‘ldi.

– Onangning gunohidan o‘t, Kimsan! Bu niyat xayolimga kelganiga ancha bo‘lgandi. Ammo birovga aytish u yoqda tursin, o‘ylashgayam qo‘rqib yuruvdim. Bugun tog‘angnikidagi mana bu «tomosha»ni ko‘rib... Aqalli shu norasida go‘dak hurmati, onangdan o‘pkalama, bolajonim!

Xo‘roz qichqirdi. Salqin tushdi. Tong bo‘zarib, yong‘oqning uchidagi shoxlar silkina boshladi. Men bo‘lsam Muzaffarni quchoqlagancha muk tushib, haliyam Kimsanim bilan gaplashyapman. Bilmadim, savob ish qilyapmanmi, gunohmi? Bilmadim...

* * *

Ertalab Shomurodni ishga jo‘natib Muzaffarni o‘zim bilan uyga olib kelgandim. Bola-da! Qo‘lining og‘rig‘ini unutib chopqillab ketdi. Kechasi bezovta bo‘lib chiqqani uchun vaqtlikkina yotib qoldi. Robiya ishdan keladigan payt yaqinlashgan sayin ko‘nglim alg‘ov-dalg‘ov bo‘la boshladi. Mayli, Shomurod-ku, qaysarmi, balomi, bir amallab ko‘ndiraman. Lekin Robiyaga qay yuz bilan aytaman bu gapni! Nima deyman? Tilginam tanglayimga yopishsa bo‘lmaydimi?

... Robiya kech keldi. Ayvon burchagida uxlab yotgan Muzaffarni ko‘rib suyundi.

– Iye, yana nima qildi? – dedi bolaning taxtakachlangan qo‘liga ko‘zi tushib.

– Yiqilib, qo‘li sinibdi.

– Voy, bechora! – U Muzaffarning peshonasidan o‘payotganida yuragim qalqib ketdi.

Keyin ozroq kir chaydi. Yarim kecha bo‘lib ketganiga qaramay, boshini yuvdi. Yettinchi lampani xontaxtaga qo‘yib ko‘k qiyiqchaga gul bosa boshladi. Pilik chirsillaydi, hovlida qurbaqalar qurillaydi. Robiya qizil ipak qatini chaqqon-chaqqon tonib kashta tikyapti. Uzun kipriklari oppoq yuziga to‘kilib turibdi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Robiya! – dedim sekin. – Bola shoʻrlik qoʻlini yomon sindiribdi. Chumchuq olaman deb sadaga chiqqan ekan.

U achinib Muzaffar tomonga qaradi.

– Tabib koʻrdimi?

– Ha, Komil tabib taxtakachlab qoʻyibdi.

– Joni ogʻrigandir.

– Boʻlmasa-chi!

Yana jimlik choʻkdi. Robiya afsuslanib bosh chayqadi-da, ishini qilaverdi.

– Robiya... – dedim yana. – Shu bolagayam jabr boʻlib ketdi. Ona boʻlmaganidan keyin shu ekan-da!

U qiyiqchani tizzasiga yoygancha boshini koʻtardi.

– Avvalam aytuvdim-ku, oyijon. Adamga tushuntiring, Muzaffar biznikida turaversin.

«Adamga tushuntiring!» Yuragim uvishib, boshim xam boʻlib qoldi. Men noinsof, men yuzi qaro qaysi yuz bilan?.. Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni!

– Robiya, – dedim yigʻlagudek iljayib, – sovchi keldi!

U menga qaramay kulimsiradi.

– Muborak boʻlsin!

Doim shunaqa maynavozchilik qiladi. Yigʻlab-siqtasa, «Uyingizga sigʻmay qoldimmi», – deb shovqin solsayam goʻrga edi. Kuladi.

– Unaqa dema, qizim! – Ovozim titrab ketdi. – Kimsan akang tirik boʻlsa, shu kungacha daragi chiqardi.

U ishini xontaxta ustiga qoʻyib koʻzimga taʼnali qaradi. Chiroyli koʻzlarida «shu gapni siz aytyapsizmi?» degan maʼno bor edi.

– Men-chi, oyijon? – dedi xotirjam ohangda.

Tushunmadim.

– Nima sen? Senga nima boʻpti, qizim? Hali oʻn gulingdan...

Robiya «voy, sodda oyim-a» degandek kulimsiradi.

– Men borman-ku, – dedi sekin. – Men tirikman-ku! Bundan chiqdi Kimsan akam ham tiriklar. – U gap tamom degandek yana qatim tortishga tushdi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Damim ichimga tushib ketdi.

– Sovchi kim deb so‘ramaysanam, qizim, – dedim ichimdan toshib kelayotgan yig‘ini arang bosib.

Robiya ensasi qotib kuldi.

– Kavushini ayamasa kelaversin... Sizga nima?

– O‘sha sovchi – menman!

Bu gap qandoq og‘zimdan chiqib ketganini bilmayman, Robiyaning qo‘lidagi qiyiqcha sirg‘alib yerga tushdi. Rangi o‘chib, yuzimga hayratlanib qaradi.

– A?!

– Shomurodga...

– Nima?! – U chayon chaqqandek sakrab o‘rnidan turdi. Etagining shamoli tegib lampa o‘chib qoldi.

Jonholatda oyog‘iga yopishib, changallab oldim.

Yo‘q, men yig‘lamayman deb ahd qilgan edim. Kimsanimning mozorini topmagunimcha, go‘rini o‘z ko‘zim bilan ko‘rib, tuprog‘ini o‘z qo‘lim bilan quchoqlamaguncha bir tomchi ham yosh to‘kmayman deb qo‘ygandim. Hozir bolamning azasiga yig‘ib yurgan o‘sha yoshlar birdan ko‘zimdan tirqirab chiqdi.

– Bolam! Jon bolam, – dedim iltijo qilib. – Kimsanni sen kutsang, men kutmayapmanmi! O‘z bolamning ko‘ziga o‘zim cho‘p solgandan ko‘ra, o‘lganim yaxshimasmi! Nima qilay, jon qizim, ilojim qancha!

– Axir... axir... – U madori qurigandan yonimga cho‘kkalab qoldi. Nami ketmagan sochlari yuzimga yoyilib tushdi.

Boshimni ko‘tarib qarasam, ko‘zlari hayratdan katta-katta ochilgancha hamon cho‘kkalab o‘tiribdi. Yuzi oy nurida yanayam oqarib ketgan, entikib nafas olyapti.

– Oyi... – dedi pichirlab. – Axir u kishi... adam-ku...

– Nima qilay, jon qizim... – Nami qurimagan sochlaridan, oppoq, tekis yuzlaridan o‘pa boshladim.

– Kimsan aka... – Uning bo‘g‘zidan ojiz nido otilib chiqdi. – Kimsan aka... Oyijon! Nima deyapsiz? Nima qilmoqchisiz?

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

IKKINCHI QISM

Uchinchi bob
ROBIYA HIKOYASI

Dadamni yo‘qotib qo‘ydim

Agar oyim «hozir sen o‘lasan» desa, bunchalik vahimaga tushmasdim. Bu qandoq bedodlik? Shomurod tog‘ani kichkinaligimdan «ada» deb o‘rganib qolganman-ku. Uyam meni «qizim» deydi-ku. Uyga borib, kirini yuvganimda, Muzaffarni cho‘miltirganimda, ovqat pishirib berganimda... Hech qachon menga unaqa ko‘z bilan qaragan emasdi-ku.

Yo‘q, bobom bo‘lsa bunaqa gap chiqmasdi. «Ovozingni o‘chir, pakana!» – deb bir musht ko‘tarsa, oyim pildir-pis bo‘p qolardi.

Nima deyotganini o‘zi biladimi oyim? Axir... Kimsan akam mening qaylig‘im bo‘lsa, oyimning o‘g‘li-ku! Kimsan akam hammadan ko‘ra oyimga yaqin-ku. Nima jin urdi?

Bilaman. Shomurod tog‘amga osonmas. Muzaffargayam qiyin. Lekin menga begona odam emas, kelib-kelib o‘zimning oyim shu gapni aytsa, qandoq chidayman?! «Oyi» deb shu xotinning etagidan ushlagandim-ku axir!

* * *

... O‘z onamni elas-elas xotirlayman. Pastak shiftli uyda, deraza tagida nuqul osmonga qarab yotar edi. Rangi sarg‘ayib, ikki chakagi ich-ichidan kirib ketgan. Ko‘zlari qop-qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. Derazadan allaqanday madrasaning kungurador peshtoqi ko‘rinib turadi. Peshtoq chekkasida sherlar tasvirlangan. Kiyikni quvib ketayotgan dahshatli sherlar... Onam bir nuqtadan ko‘z uzmay yotadi. Ba’zan ko‘zi ochiqligicha uxlab qolganga o‘xshaydi. Ammo uxlamaydi. Otamning eshikdan kirib kelishini kuta-kuta charchayman. Dadam – o‘qituvchi. Men tengi qizlar dadamning maktabiga qatnaydi. Men bormayman, onamga ko‘z-quloq bo‘lib o‘tiraman. Dadam ishdan kelib, oyimga qaraydi. Keyin patnisning orqasiga harf yozib, meni o‘qitadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– O‘qi, qizim, o‘qi! – deydi tajang bo‘lib. – Yoshing to‘qqizga chiqdi. Sen tengi bolalar yaqinda uchinchi sinfga ko‘chadi, o‘qi!

Nima qilay? Kunbo‘yi onamga qarasam, qornim och bo‘lsa, nima qilay?

– Non... – deyman, yalinib. – Dadajon, non!

Onam yotgan joyida ingraydi.

– Qiynamang bachamni. Payti kelib o‘qib olar. – Shu gapni aytguncha ham charchab qoladi. Entikib-entikib nafas oladi. – Men-ku qiltomoqman. Aqalli Robiyajonga bir burda non topib bering...

Dadam noilojlikdan battar tajanglashib hovonchada talqon tuyadi. Bir qoshig‘ini onamga, bir qoshig‘ini menga tutadi. Onamdan talqon o‘tmaydi. Ko‘zi bilan menga imo qiladi.

– Bachamga bering...

... Bir kuni ertalab uyimizga ancha odam yig‘ildi. Olacha to‘n kiygan kishilar, oppoq ko‘ylak kiyib, boshiga oq ro‘mol o‘ragan xotinlar... Hamma uvvos soldi. Dadam boshimni ko‘ksiga bosgancha xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘ladi.

Keyin onamning to‘shagi bo‘shab qoldi. Yosh bola emasman-ku, onam o‘lganiga allaqachon aqlim yetgan edi. Bir kuni dadam qo‘lida katta chamadon ko‘tarib, meni vokzalga olib chiqdi. G‘ishtin binoga kirib kelaverishda, zinada dumalab yotgan xotinni ko‘rib, qo‘rqib ketdim.

– Dada! Anavi semiz xotin nimaga zinada uxlab yotibdi?

Dadam boshimni siladi.

– Semiz emas, shishib ketgan. Qarama, Robiyajon. Yur. Poyezdga minib, Toshkentga boramiz.

Poyezdning taraqa-turuq ovozi, odamlarning shovqin-suronidan boshim aylanib, uxlab qolibman... Ertalab pastga tushdik. Tramvayga o‘tirdik. Tramvayning jiring-jiring qilib yurishi qiziq tuyulsa ham, qornim ochgan, non yegim kelardi.

– Dada, non... – dedim yalinib.

– Shoshma, bacham, shoshma.

Dadam tekis qilib dazmollangan oppoq ityoqa ko‘ylak kiyib, chuchvaranusxa bo‘yinbog‘ bog‘lab yuradigan odam edi. Po‘rim ko‘ylak kiyadi-yu, noni yo‘q...

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Bir joyga kelib tramvaydan tushdik. Dadam: «Qimirlamay o‘tir», – deb meni chamadon ustiga o‘tqizdi-da, o‘zi g‘ishtin zinalardan ko‘tarilib, oynaband eshik ichiga kirib ketdi. Anchadan keyin oppoq, uzun yaktak kiygan, ko‘krak cho‘ntagida soat zanjiri yaltirab turgan chol bilan boshlashib chiqdi. Cholning soqol-mo‘ylovi, ko‘zi ustiga qayrilib tushgan qoshi, hatto quloqlarining ichidan chiqib turgan tuklar ham ko‘kimtir oppoq edi. U gavdasini g‘oz tutib kelarkan, yo‘l-yo‘lakay ko‘krak cho‘ntagidan uzun zanjirli soatini chiqarib, shiq etib qopqog‘ini ochdi.

– O‘h-ho‘, vaqt ketib qopti-ku, ma’lim! – dedi bosh chayqab.

Dadam yaqin kelishi bilan yalindim:

– Non. Dada, no-o-on!

Boyagi chol yarq etib menga qaradi. Barkashdek kaftini dadamning iyagi oldida paxsa qilib baqirdi:

– O‘v, ma’lim! «Ko‘chada qizim qoldi, och o‘tiribdi», – desang o‘lasanmi?

Chol dadamni uradi, deb qo‘rqib ketdim. Yo‘q, dadam choldan cho‘chimadi, ma’yus jilmaydi.

– Ko‘rib turibsiz, Oqsoqol. Zamon shunaqa: oltin-kumush kul bo‘lgan, arpa-bug‘doy pul bo‘lgan.

– Pul bo‘ladimi, kulmi, padariga la’nat, lokin norasta bolani och qoldirma! – Cholning ovozi gumburlab chiqar, unga sayin ko‘nglim ozib, boshim aylanar edi. – Shoshma, men hozir! – Chol shunday dedi-da, qaytarma qo‘njli etik kiygan oyoqlarini katta-katta tashlab allaqayoqqa ketdi. Dadam yonimga, chamadon zixiga cho‘kib boshini quyi soldi. Jingalak sochini changallab, menga qaramay uzoq o‘tirdi.

Bir mahal orqa tomondan gumburlagan ovoz keldi:

– Ma, qizim, yeb ol, buvang aylansin!

Qarasam, boyagi chol sedana sepilgan oppoq kulchani ushatyapti. Jonholatda qo‘limni cho‘zdim. Chol kulchani ikkiga bo‘lib, yarmini menga, yarmini dadamga berdi.

– Bundanam og‘ir yillarni ko‘rganmiz, ma’lim! – dedi yana shang‘illab. – Bu kunlaram o‘tadi-ketadi. Bu yil – o‘ttiz uchinchi yilmi? Esingda bo‘lsin, ma’lim, nasib etsa, o‘ttiz

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

to‘rtinchi yilda, uzog‘i bilan o‘ttiz beshinchi yilga borib hammasi oppon-soppon bo‘p ketadi.

Nonimni birpasda yeb bo‘ldim. Qarasam, dadam hali yarmisiniyam yemabdi. Har luqma tomog‘iga tiqilib qolayotgandek zo‘rg‘a yutinadi.

– Non! – dedim qo‘limni cho‘zib. – Dadajon...

Dadam qo‘lidagi nonning qolganini uzatdi. Chol qarab turganini ko‘rib, non burdasini qo‘rqa-pisa qo‘limga oldim.

– Mayli! – Cholning soqoli titrab ketdi. – Nasib etsa, hammasi yaxshi bo‘ladi. Qani, ma’lim, ketdikmi? Tura qol, qizim! – U tagimdagi chamadonni yulqib ko‘tardi. Nariroqda ot-arava turgan ekan. Nafsim qonib, endi suv ichgim kelardi. Lekin dadamning jiddiy ko‘zlariga qarab, suv so‘rashdan qo‘rqdim.

Dadam aravaga o‘tirib, meni bag‘riga olarkan, cholga qaradi.

– Yo‘l olismi, Oqsoqol?

– Olis... No‘g‘ayqo‘rg‘onga boramiz!

– Soat necha bo‘ldi? – dedi dadam quyosh botib borayotgan ufqqa qarab.

– Soat? – Chol dadamga bir qarab qo‘ydi-da, arava ichida yotgan qamchini oldi. – Soatni boshingga urasanmi!

Qarasam, cholning ko‘krak cho‘ntagida boyagi yaltirab turgan soat zanjiri ko‘rinmayapti.

Dadam uning ko‘ziga tikilib, sekin xo‘rsindi.

– Rahmat... Tirik bo‘lsam, shu yaxshiligingizni...

– Chu! – Chol qovurg‘asi sanalib qolgan ot ustida qamchi aylantirdi. – Chu, og‘ayni! – Keyin dadamga qarab kulimsiradi. – Sani tuppa-tuzuk ma’lim desam, g‘irt jinni ekansan-ku! Chu!

Arava tosh bosilgan yo‘ldan taraqlab yurib ketdi. Kap-katta qiz dadamga suyangancha yana uxlab qopman.

Gumburlagan ovozdan uyg‘onib ketdim.

– Husanboy! Ho, Husanboy!

Ko‘zimni ochsam, hamon aravada, dadamga yonboshlab o‘tiribman. Qandaydir qishloqqa kelib qolibmiz. Tolzor tor

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ko‘cha, tomsuvoq qilingan uylar... Boyagi chol pastak eshikni taqillatib, birovni chaqiryapti.

Zum o‘tmay eshik ochildi. Koptokdek yumaloq, past bo‘yli qop-qora xotin chiqdi. Tavoze bilan ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom berdi.

– Yumushingiz bormidi, Oqsoqol?

– Chaqir Dumani! – Bizni olib kelgan chol qora xotinni jerkib berdi. – Erkaklarning ishiga aralashishga balo bormi?

Qora xotin hovli ichkarisiga pildirab kirib ketdi.

– O‘v, ma’lim! – Chol dadamga qo‘lini paxsa qildi. – Tushmaysanmi? Nima, senga asobiy taklif kerakmi?!

Dadam jilmayib, meni quchog‘idan bo‘shatdi. Yerga sakrab tushdi.

– Kel, bacham! – dedi pastdan qo‘lini cho‘zib.

– O‘zim... – arava yondoriga osilib yerga tushdim. Dadam aravaga qaytib chiqib, chamadonni olib tushdi.

Bir chekkada yotsirab turar, uyimizga qaytib ketgim kelardi. Pastak eshik tag‘in ochildi. Boyagi qora xotinga o‘xshagan past bo‘yli, ammo baquvvat, ixcham soqolli kishi chiqib keldi. Qo‘li go‘ngga belangan ekan, bizni olib kelgan cholga bilagini tutdi.

– Bahay, Oqsoqol, tinchlikmi?

– Tinchlik! Gap bundoq, Duma! – Oqsoqol dadamga imo qildi. – Samarqanddan mehmon obkeldim.

– Bahay! Mehmon otangdan ulug‘, – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. – Xush kepsiz, mehmon!

Dadam iymanibroq so‘rashayotgan edi, Oqsoqolning azamat ovozi yana guldiradi:

– O‘rtoq Samadov – ma’lim. Bolalarimizni o‘qitishga kelgan, uqdingmi?

Chamasi, pakana kishi hech nimaga tushunmasa ham, iljaydi.

– Ma’qul, Oqsoqol!

– Mulozamatingni yig‘ishtir, Duma! – Oqsoqol ovozini baralla qo‘yib, qo‘lini paxsa qildi. – O‘rtoq Samadovning ma’limligini uqdingmi?

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Uqdim! Mehmon kelsa bosh ustiga, dedim-ku!

– E, mehmon emas, ovsar! – Oqsoqol jahl bilan qo‘l siltadi. – Nosingdan ol!

Pakana kishi yo‘l chetidagi otquloqni yulib olib qo‘lini artdi. Pochasi qayrilgan shimining cho‘ntagini kavlab, nosqovoq chiqardi. «Ma, chek zaharingga» degandek Oqsoqolga zarda bilan uzatdi.

Oqsoqol kaftini to‘ldirib nos otdi.

– Mehmon emas, mezbon! – dedi, nosqovoqni egasiga qaytarib. – Ko‘rib turibsan: zamon og‘ir. Qahatchilik bitib, yurt qaddini ko‘tarib olguncha sanikida turadi. Keyin ma’limga shunaqangi uy sobberaylikki, ko‘rgan odamning og‘zi ochilib qolsin. Tushundingmi?

Pakana kishi «ma’qul» degandek bosh irg‘adi. Biroq bizni olib kelgan chol unchalik qanoatlanmadi, shekilli, tag‘in shang‘illadi:

– O‘zimiznikiga oborardim-u, xabaring bor, kelinlarimning chillasi chiqqani yo‘q. Qani, gapning po‘skallasini ayt: nima deysan?!

Pakana kishi sen chekkanda men qolamanmi degandek, nosqovoqning tagiga jahl bilan uch-to‘rt urdi-da, Oqsoqoldan ham ko‘proq nosni kaftiga to‘kib og‘ziga otdi.

– Turgan-bitganing vahima-ya, Oqsoqol! – dedi chiyillab. – Shuni oldinroq aytsang o‘lasanmi? Bitta uyni bo‘shatib qo‘yardim.

– Bo‘shatasan-a, bo‘shatasan! Ko‘chada bir tiyin tushib yotgan bo‘lsa, keting bilan qisib olasan-ku!

Pakana kishining jahli yomon ekan. Avval dadamga, keyin cholga rangi o‘chib qaradi-da, chopib borib, Oqsoqolga xezlandi.

– O‘v! – dedi bo‘ynini xo‘rozdek cho‘zib. – Raisman deb ja o‘zingdan ketma! Husan Dumani endi ko‘ryapsanmi, ahmoq!

– Bo‘ldi, do‘stim, bo‘ldi! – Oqsoqol ro‘parasiga turib olib yoqasiga yopishmoqchi bo‘layotgan pakana kishining yelkasiga shapatiladi. – Hazilniyam bilmaysanmi, nima balo, Duma!

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ma’lim No‘g‘ayqo‘rg‘onda maktab ochmoqchi. Katta maktab. Ishonganimdan senikiga opkeldim-da, o‘rtoq!

Pakana kishi yana birpas xezlanib turdi-da, nari ketdi. Pastak eshikni oyog‘i bilan tepib, hovli ichkarisiga qarab g‘azabnok chinqirdi:

– Chaqqon bo‘l. Hoy! Katta uyni bo‘shat!

– Ma’lim! – Oqsoqol nosini tupurib, kaftining orqasi bilan soqol-mo‘ylovini artdi. – Duma – mening qadrdonim. Meni aytdi dersiz: narisi bilan bir yilda quling o‘rgilsin uy qurib beramiz. O‘shangacha shu xonadon sizniki. Qani, pajalista!

Oqsoqol «pajalista» deyishga dedi-yu, ko‘z qiri bilan pakana kishiga xavotirlanib qarab qo‘ydi.

Dadam chamadonni ko‘tarayotgan edi, pakana kishi kelib qo‘liga yopishdi.

– Siz ko‘tarsangiz uyat bo‘ladi, ma’lim...

Hovliga kirishimiz bilan bo‘yi mendan tikroq, kir ko‘ylak kiygan, qop-qora kallaxum bola chopib kelib, boshimdagi do‘ppimni olib qochdi.

– Ibi, ber! – dedim chinqirib.

– Oyi! Do‘ppi! Zar do‘ppi! – dedi kallaxum bola hovli etagiga yugurib.

Ayvondan boyagi qora xotin chopib tushdi.

– Kimsan! Nomusga o‘ldirding-ku! Zar do‘ppi kiysang qiz bola bo‘p qolasan!

– Dada, do‘ppim... do‘ppim! – dedim yig‘lamsirab. – Bersin. O‘zimning do‘ppim...

Dadam negadir xotirjam kuldi. Qora xotin chopib kelib, meni bag‘riga bosdi.

– Beradi, jon qizim. Bermasin-chi, naq qulog‘ini kesib olaman. Voy, bu qizning shirinligini! Oting nima?

U mening javobimni ham kutmay, shataloq otib tomorqa eshigi tomonga qochib ketayotgan bolaga mushtini do‘laytirdi.

– Kimsan! Uyalmaysanmi, toyloqdek bo‘lib qiz bolani yig‘latishga! Go‘shingni bir burdadan qilmasam, yurgan ekanman!

Dadam meni yupatdi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Beradi, yeb qo‘ymaydi do‘ppingni.

Pakana kishi bir do‘q qilgan edi, kallaxum bola darrov qaytib keldi. Do‘ppimni qo‘limga tutqazdi. Avvaliga qora xotin: «Kimsan», – deganida kallaxum bolaning kimligini bilmagani uchun shunaqa deyapti, degan xayolga borgan edim. Yo‘q, oti Kimsan ekan. Qorong‘i tushganida atala ichdik. Hech qachon bunaqa shirin ovqat ichmagandim. Atalani ichishdan ko‘ra yog‘och qoshiqni yalash mazza bo‘larkan. Buniyam kallaxum bola o‘rgatdi.

– Menga qara, ey! – dedi. – Avval qoshiqning orqasini yalaysan. Keyin ichini, bildingmi?

Ertalab uyg‘onsam, qora xotinning quchog‘ida yotibman.

– Dada! – deb g‘ingshigan edim, qora xotin yuzimdan o‘pib yupatdi.

– Otang hozir keladi, qizim. Idoraga ketdi. Gap bundoq, Robiyaxon. Endi sen mening qizim bo‘lding. Men – oyingman. Husan buvang – buvang. Yoshing to‘qqizdami? Akangni yoshi o‘n birda. Bundan chiqdi, Kimsan – akang. Akangni «siz» deb gapirgin, xo‘pmi, qizim!

Qora xotin choyga zog‘ora to‘g‘rab ichirdi. Nima qilishimni bilmay hovliga tushsam, pushtalarda qip-qizil qalampirlar pishib yotibdi. Kallaxum – Kimsan qalampirlarni uzib olib bemalol eb yuribdi.

– Jinni! – dedim kulib. – Qalampir yeyapti.

– O‘zing qalampir! – Kimsan qizil qalampirlardan yana ikkitasini uzib og‘ziga soldi. – Qulupnay-ku bu! Yeb ko‘r!..

Kimsan uzatgan «qalampir»dan bittasini qo‘rqa-pisa tishlab ko‘rdim. Shunaqa shirinki!

– Yana! – dedim yalinib.

– O‘zing uzib yeyver! – Kimsan iljaydi. – Qulupnayni bilmaydi-ku!

Ayvon tomondan qora xotin ovoz berdi:

– Kimsan, singlingga qulupnay terib ber, o‘g‘lim...

– Nima, o‘zining qo‘li yo‘qmi? – Kimsan menga iljayib qaradi-yu, pushtadan chiqib nari ketdi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

* * *

Biz ko‘chib kelgan hovli katta edi. Qator qilib solingan ikki uy, bir ayvon. Etak tomonda bostirma, molxona. Hovli sathi keng bo‘lgani bilan, kaftdek bo‘sh joy yo‘q. Yarmisiga piyoz sepilgan, yarmi qulupnayzor. Undan narida gultojixo‘rozlar ochilib yotibdi. Nok, gilos, behi daraxtlari tartib bilan ekilgan.

Bu xonadonning g‘alati udumlari bor ekan: tong otgandan kun botguncha qimirlagan jon borki, bekor turmaydi. Bobom saharlab eshak minib dalaga chiqib ketadi. Oyim molga qaraydi, non yopadi, kir yuvadi, cho‘nqayib o‘tirib, hovlidagi piyozlarni o‘toq qiladi, qulupnay pushtalarini chopadi, tert[1] qoradi. Ikki hafta ichida ko‘p narsalarni bilib oldim. Bu xonadonda hech nima bekor ketmas ekan. Oyim (qora xotinni shunaqa deyishga o‘rgandim) piyoz archsa, «soqolini» tashlab yubormaydi. Yerga suqadi: shunaqa qilsa, yana piyoz o‘sib chiqarkan. Kimsan akam (oyim tayinlagani uchun «aka» deb sizlayman) o‘rik yesa, danagini tashlamaydi. Chaqib mag‘zini olib qo‘yadi. Tandirdan chiqqan kul piyoz pushtasiga sepiladi. G‘unajinning tezagi tappi qilib, devorga yopiladi. Hatto hojatxonadagi kesaklar ham bekorga ketmaydi. Tomorqadagi toklarning tagi kavlanib, ildiziga solinarkan.

Kimsan akam men o‘ylagandek yomon bola emas ekan. Ba’zan rahmim keladi unga.

Ertalab bobom dalaga ishga chiqib ketarkan, supada uxlab yotgan Kimsan akamning tepasiga kelib, ustidan ko‘rpani uloqtirib tashlaydi.

– Tur o‘rningdan! – deydi dag‘dag‘a bilan. – Mo‘ylovi chiqib qolgan bola yalpayib yotishingni qara? Bo‘l tez, go‘ngni tashib qo‘y.

Kimsan akaning mo‘ylovi bormikin deb qarab qo‘yaman. Yo‘q, ko‘rinmaydi. Bechora dik etib o‘rnidan turadi-da, ko‘zini ishqalab molxonaga kirib ketadi. Birpasdan keyin zambilg‘altakka go‘ng ortib, chiranib-chiranib g‘ildiratgancha to-

[1] Tert – somon, xashak va shu kabi dag‘al ozuqalarga maydalangan kunjara, kepak kabi to‘yimli ozuqalar aralashtirib, qorib tayyorlangan yem.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

morqaga olib chiqadi. Kechgacha tinim bilmaydi. Hamma ish qo‘lidan keladi. Tomorqada yer chopadi, molga qaraydi, o‘tin yoradi.

Kechqurun endi ovqatga o‘tiramiz deb turganimizda uzoqdan eshak hangragani eshitiladi.

– Tura qol, Kimsanjon! – deydi oyim. – Dadang kelyapti.

Kimsan akam darrov obdastada iliq suv tayyorlaydi. Ko‘chadan kirib kelgan bobomga suv quyib turadi. Bobom rahmat deyish o‘rniga jerkadi:

– Eshakni sug‘ormaysanmi!

Ertalab hammasi qaytadan boshlanadi.... Bora-bora men ham uy yumushlariga kirishib ketdim. Hovli supuraman, idish-tovoq yuvaman, oyim kepak aralash undan xamir qilsa, suv isitaman.

Kuzda pochtaxona yonida allaqanday eski binoga joylashgan maktabga qatnay boshladik. Men birinchi sinfga, Kimsan akam to‘rtinchi sinfga.

Bolalar ichida eng kattasi menman. Bir marta o‘qituvchi opa dadamdan iltimos qilganini eshitib qoldim. «O‘rtoq Samadov, Robiyaxonning savodi allaqachon chiqqan ekan, bemalol uchinchida o‘qiyversa bo‘ladi», – degan edi, dadam siltab tashladi: «Hamma qatori qonuniy o‘qisin!» Shunday qilib, kap-katta qiz ukam tengi bolalar bilan dadam allaqachon o‘rgatgan «Alifbe»ni, hisobni qaytadan o‘rganishga tushdim.

... Uzundan uzun qish kechalari dadam bilan bobom narigi uyga kirib qiroatxonlik qiladigan odat chiqarishdi. Lampa bitta. Oyim, men, Kimsan akam berigi – qorong‘i uyda sandal chetida o‘tiramiz.

Oyim norozi bo‘lib chirqillaydi:

– Lampamoy anqoning urug‘i bo‘lmasa ekan! Ertaga nima qilamiz?

Ammo «ziqna» bobom lampamoyni ayamaydi.

– O‘qing, ma’lim, – deydi shang‘illab. – Otabekni o‘qing.

Dadamning osoyishta ovozda kitob o‘qishiga quloq solib yotamiz. Berigi uyga bemalol eshitilib turadi. Otabek... Kumushbibi... Hasanali...

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Bir kuni dadam kitob o‘qishdan to‘xtab, bobomga gapirib qoldi:

– So‘raganning aybi yo‘q, Husan aka, nega sizni Duma deyishadi?

Bobomning kulgani eshitildi.

– E, ma’lim, o‘zimam anig‘ini bilmayman. Oqposhsho zamoni edi. Bir kuni butun No‘g‘ayqo‘rg‘on dahasi choyxonaga yig‘ilib maylis qildi. Nodirxo‘ja degan ellikboshi bo‘lardi. Insofli odam edi, rahmatli. Quloq bo‘p ketdi. O‘sha va’z aytdi. «Oranglarda ishbilarmon bir odamni dumaga saylamasalaring bo‘lmaydi. Oqposhsho hazrati oliylarining farmoni – shu», – dedi. Odamlar chuvillashib meni ko‘rsatishdi. Saylasa-saylay qolsin desam, ketida bir arava g‘alvasi bor ekan. O‘qtin-o‘qtin shaharga tushib, Dumasiga borish kerak bo‘larkan. Bu yoqda ish qolib ketyapti... Duma degani kattakon bir mahkama ekan. Devoriga ko‘kragi ochiq xotinlarning surati osib qo‘yilgan hayhotday xona. Lak-lak odam... Chuvir-chuvir qilib allanimalarni gaplashishdi. «Qo‘l ko‘taringlar», – dedi. Qarasam, hamma qo‘l ko‘taryapti. Menam ko‘taraverdim... Keyin bormay qo‘ydim. Orada inqilob bo‘ldi, Duma-pumasiyam suvga urib ketdi.

Dadam kuldi.

– Siz, Husan aka, haqiqiy dehqonsiz. Yer ilmini yaxshi bilasiz. Ammo, kechirasiz-ku, savodingiz... – dadam andisha qildi, shekilli, tutilib qolgan edi, bobomning o‘zi aytib qo‘ya qoldi:

– Yo‘q-da, ma’lim, bizda savod nima qilsin! Esimizni tanibmizki, yer kavlab yotibmiz.

Tag‘in dadamning ovozi keldi:

– Shuni aytaman-da! O‘shanda sizni saylashga saylashibdi-yu, buyog‘ini o‘ylashmabdi-da. Duma degan davlat masalalarini hal qilishi kerak. Siz...

– Oqposhshoyam anoyimas! – Bobom xixilab kuldi. – Menga o‘xshab, qo‘l ko‘tar desa oyog‘iniyam qo‘shib ko‘taradigan soddalarni tanlagan-da!.. Qo‘ying bu gaplarni! Yaxshisi, Kumushbibini o‘qing. Ja qiziq joyida to‘xtab qoldik.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

* * *

Men to‘rtinchi, Kimsan akam yettinchi sinfga ko‘chganida bir vaqtlar Oqsoqol buva bizni aravada No‘g‘ayqo‘rg‘onga olib kelayotganida va’da qilgan to‘kinchilik zamon keldi. To‘g‘ri, bir yilda emas, uch yilda... Endi bayramlarda tong-sahardan nog‘oralar taka-tum qiladigan, doshqozonlarda osh damlanadigan bo‘ldi. Kech kuzda bobom qo‘y so‘yib kalla soladi, qolgan go‘shtni tuzlab xumga tiqadi...

Bir kuni Oqsoqol dadamga gapirib qoldi:

– Mana, ma’lim, o‘lmagan qul, sen je-men je kunlargayam yetdik. Endi sizga o‘n ikki vassali uy qurib beramiz. Odamlarni hasharga aytib qo‘ydim. Belida belbog‘i bori kelaveradi.

Dadam xijolat chekibroq bobomga qaradi.

– Agar Husan akani qisib qo‘ymagan bo‘lsak, hasharchilarni maktab qurishga solsakmikin... Bizga-ku uy topilar, maktab kerak.

– Nega qisilarkanman! – Bobom Oqsoqolga yuzlanib chiyilladi. – Ma’lim to‘g‘ri aytyaptilar. Eng avval maktab kerak. Raisman deb kerilasan-u, shunga aqling yetmaydi.

Shu gap gap bo‘ldi. Erta yozdan dadam «katta maktab» qurilishiga sho‘ng‘ib ketdi. Kolxozchilar u yoqda tursin, yuqori sinf o‘quvchilari ham hasharga solindi. Bo‘yi cho‘zilib, ovozi do‘rillab qolgan Kimsan aka ertalabdan razyezdga – maktab qurilayotgan joyga yuguradi.

Kechqurun qorong‘i tushganida oyim qo‘limga bir tovoq ovqat, to‘rtta non tutqazadi.

– Bora qol, qizim, hammasining ichi uzilib ketgandir...

Tugunni ko‘tarib razyezd tomonga chopqillayman.

Tumonat odam! Har yoqda mash’ala gurillaydi. Daladan to‘ppa-to‘g‘ri hasharga kelgan kolxozchilar biri loy otib, biri lo‘mboz bosib, maktab devorini ko‘taradi.

Kimsan akam yalangoyoq loy tepadi. Orif oqsoqol ishboshi bo‘lib, u yoqdan bu yoqqa yuguradi. Dadam po‘rim shimining pochasini qayirib, handaq ichida pildirab yuradi. Bobom devorga minib olib chiyillaydi:

– Kuching bormi, hov! Otsang-chi mundoq!

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Loy otishda Oqsoqolning ikki norg‘ul o‘g‘li – Shokir aka bilan Zokir akaning oldiga tushadigani yo‘q... Oyimning aytishicha, Shokir aka bilan Zokir aka traktor haydarkan. Traktorning omochi shunaqa zo‘rmishki, bir yo‘la yigirmata qo‘shho‘kizning o‘rniga yer ag‘dararmish. Ikkovlari hasharniyam boplaydi. Paxsakurakka loyni to‘ldirib bir otganda bobomning qo‘liga borib tushadi. Hech kim charchadim demaydi. Askiya, qiyqiriq... Kuzga borib yangi maktab bitdi hisob.

... Qumsuvoqqa tushishgan kuni ham hasharchilar oldiga borgan edim. Bir kosa qovurdoq uch kishiga nima bo‘lardi! Dadam, buvam, Kimsan akam bir qoshiqdan yesa-yedi, bo‘lmasa yo‘q. Shundayam nolishmadi. Peshinda Oqsoqol buva qo‘y so‘yib qaynatma qilib bergan ekan. Hammalari yana ishga sho‘ng‘ib ketishdi. Oqsoqol buvaning Zuhra kelini bilan uyga qaytdik...

... Tinch, to‘kin zamonning allaqanday osoyishta zavqi bo‘ladi. O‘shanda bu zavqni tushunmagan ekanman. Boshimizga kulfat yog‘ilganidan keyin qadriga yetdim. O‘sha kecha charchab barvaqt uxlab qopman. Bir mahal yonimda yotgan oyim, «voy o‘lmasam, tinchlikmi», deb sapchib turganidan uyg‘onib ketdim. O‘sha zahoti ko‘cha eshikning qattiq taqillagani, ketidan:

– Duma, och! – degan ovoz keldi.

Oyim: «Kimde-e», – deb ayvonga yugurdi.

Negadir yuragimga vahima o‘rmaladi. Nimqorong‘i burchakda bemalol xurrak otib yotgan Kimsan akamni ilg‘ab, ko‘nglim joyiga tushdi.

Bundan chiqdi, dadam bilan bobom ham kelishgan.

Eshik yana tiqilladi.

– Duma!

... Oqsoqol buvaning ovozini tanib, tinchlandim. Ish bilan kelgan.

Oyimdan oldin bobom borib eshikni ochdi, shekilli, o‘sha tomonda erkaklarning g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir gaplashgani qulog‘imga chalindi. Butunlay xotirjam bo‘ldim. Endi joyimga yotgan edim, deraza oldidan birov gursillab o‘tdi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Dadam yotgan uy tomonda bobomning chaqirgani eshitildi:

– Ma'lim, turarkansiz.

Narigi uyda dadam yo'taldi.

– Tinchlikmi, Husan aka?

– Sizni so'rashyapti... – Bobomning tovushida xavotir borligini qandaydir ichki tuyg'u bilan sezdim-u, tag'in o'rnimdan turib ketdim.

– Kim? – dedi dadam.

– Bilmadim, rais bilan yana ikki kishi.

Dadamning hovliga tushganini bildim. Shap-shup yurib eshik oldiga bordi-yu, o'sha zahoti qaytib keldi.

– Robiya, – dedi ostonada to'xtab.

Qorong'ida ovozi titrab ketganini sezdim.

– Dada! – Yuragim yomon bir narsani his etib, chopib oldiga bordim. – Dada!

– Men ertaga kelaman, qizim. – Dadam shunday dedi-da, ildam yurib narigi uyga kirdi. Bir zumda kiyinib chiqdi. Etigini topolmay kalovlanib turgan edi, bobom oyimga o'shqirib berdi:

– Chiroqni yoqsang-chi, pakana!..

Oyim shosha-pisha chiroq yoqib, piligini ko'tardi. Dadam ayvon burchagida turgan etigini, nihoyat, topdi. Paytava o'rayotganida qo'llari qaltirab ketganini ko'rdim. Battar qo'rqib ketdim.

– Dada, – dedim titrab. – Qayoqqa ketyapsiz?

Dadam rangi quv o'chgancha muzdek labi bilan peshonamdan o'pdi.

– Qo'rqma, qizim, ertaga kelaman, – dedi-yu, bobomga yuzlandi. – Tushunmovchilik bo'lganga o'xshaydi, Husan aka. – Keyin negadir oyimga iltijoli termildi. – Mabodo bir oy, yarim oy kelmay qolsam, Robiyani sizga topshirdim. Onalik qilasiz.

– Voy o'lmasam, ma'lim! – Oyim titrab meni quchoqlab oldi. – Nimaga unaqa deysiz?

Dadam hovliga tushgan joyida qaytib ayvonga chiqdi. Ikki yuzimdan qattiq o'pdi-da, sakrab pastga tushdi. Qaddini g'oz tutib, eshik tomonga yo'naldi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Darvoza tomonda gurillagan mashina ovozi eshitilganidan keyingina hushim o‘zimga keldi.

Oyimning quchog‘idan chiqdim-u, chinqirgancha hovliga otildim.

– Dada! Dadajon!

Ko‘cha eshik oldida turgan bobomni turtib o‘tib, tuproq yo‘ldan yugurib ketdim. Hammayoqni chang-to‘zon qoplagan, havodan benzin hidi kelar, olisda allaqanday mashinaning qizil chirog‘i uzoqlashib borardi.

– Dada! – Yalangoyoq chopib borarkanman, entikib qichqirdim: – Dadajon!

Mashina chirog‘i ko‘rinmay ketdi. Men bo‘lsam hamon yugurib borardim. Nafasim qisilib qolgan, tomog‘im achishar, ammo to‘xtamasdim. Oxiri toshgami, kesakkami qoqilib yuztuban yiqilib tushdim. Og‘zimga tuproq kirib yig‘lab yubordim. Bir mahal kimdir yelkamni siladi.

– Tur, Robiya, turgin. Uyga boraylik.

Kimsan akamning do‘rillagan ovozi qulog‘imga yoqimsiz eshitildi.

Yerni mushtlagancha qichqirdim:

– Bormayman!

– Shunaqa qilmagi-in. O‘zing yaxshisan-ku, Robi, ketaylik.

– Bormayman! – Alam ustida dodlab yubordim. – Bormayman! Dada! Dadajon!

Kimsan akam yonimga cho‘nqayib boshimni siladi.

– Dadang keladilar. Nega yig‘laysan, keladilar. Mana meni aytdi dersan, yur, uyga ketamiz.

Dadamning qo‘llari qaltiraganicha paytava o‘rayotgani, oyimga iltijoli termilgani, «Robiyani ehtiyot qiling», degani ko‘z oldimga keldi, yosh bolalardek chinqirib yubordim:

– Yo‘qol! Dadam! Dadamga boraman!

... Oyim «hali-zamon dadang keladi» deb harchand yupatgani bilan anchagacha hiqillab yotdim. Narigi uyda hamon chiroq yoniq turar, bobom bilan Oqsoqol buva allanimani maslahatlashishar edi. Tong bo‘zarganda uxlab qolibman. Hovli tomondan kelayotgan qattiq-qattiq ovozdan uyg‘onib ketdim...

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Tushuntirdingmi axir? Ma’lim – yaxshi odam, Samarqandda o‘qigan, bolalarimizga ilm beryapti, kattakon maktab qurdi, dedingmi?

Bobomning ovozini eshitib, kechasi bo‘lgan voqea, dadamning: «Robiyani ehtiyot qiling» degani yana esimga tushdi. Ko‘zimni ishqalab ayvonga chiqdim.

Vaqt peshinga yaqinlashib qolgan, behi tagida bobom bilan Oqsoqol buva gaplashib turishar, nariroqda Kimsan akam ketmon sopidan tutgan ko‘yi talmovsirab turib qolgan, oshxona eshigining ostonasiga o‘tirib olgan oyim ikkala choldan ko‘z uzmas edi.

– Aytdim! – Oqsoqol buva birovga o‘chakishgandek jahl bilan qo‘lini paxsa qildi. – «Bolsheviklik vijdonimni o‘rtaga qo‘yib, kafolat beramanki, bitta-yarimta imonsiz ma’limga tuhmat qilgan», – dedim!

– Xo‘sh, nima deyishdi?

Oqsoqol buva bobomga arazlagandek xo‘mrayib qarab qo‘ydi.

– «Tekshiramiz», – dedi.

– Gunohi nima ekan demaysanmi, ovsar! – Bobom hammasiga Oqsoqol buva aybdordek, shang‘illadi. – Menga Kalinin Oqsoqol o‘z qo‘li bilan ordin bergan, kerak bo‘lsa eng katta Oqsoqolning oldigacha boraman demadingmi?!

– Dedim! – Oqsoqol buvaning mo‘ylabi titrab ketgandek bo‘ldi. – Aybi shumishki, darsni programma bo‘yicha o‘tmasmish. «Hisob ilmini Xorazmiy yaratgan», – deb maqtaganmish. Bolalarga Bobur poshshoning she’rlarini o‘qitganmish. – U qovog‘ini solib xo‘rsindi. – Rayondan beruxsat maktab qurganmish...

– Iye? – dedi bobom hayratdan ovozi ingichkalashib. – Maktab qursa yomonmi? Maktabni hashar bilan soldik-ku!

– Zamonni ko‘rib turibsan... – Oqsoqol buva ovozini pasaytirdi. – Menimcha, bu ishda Xo‘jaqulovning ham qo‘li bor.

– Kim u Xo‘jaqulip?

Oqsoqol uf tortdi. Anchagacha jim qoldi.

Hamon ayvon ustuniga suyanib turardim. Bobom ham, Kimsan akam bilan oyim ham Oqsoqol buvaning og‘ziga termilishar, hech kim menga e’tibor bermas edi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Ma’lim senga gapirmaganmidi? – dedi Oqsoqol buva bobomning ko‘ziga qattiq tikilib.

Bobom ingichka yelkalarini uchirdi.

– Nimani?

– Menga bir aytgandek bo‘luvdi, – dedi Oqsoqol o‘ychan ohangda. – Ma’lim Samarqandda ishlab yurganida Xo‘jaqulov degan tergovchi bilan qattiq to‘qnashadi. Temir yo‘lda katta o‘g‘rilik ochiladi. Tergovchi ishni yopti-yopti qilib yubormoqchi bo‘lganida, stansiyada ishlaydigan qo‘shnisi ma’limga chiqib arz qiladi. Ma’lim avval gazetaga, keyin obkomga xat yozadi. Gunohkor jazosini oladi. Tergovchi ariza berib ishdan bo‘shaydi. Farg‘onagami, Qo‘qongami ketadi. Aylanib-aylanib Toshkentga kelib qoladi. Ana o‘sha Xo‘jaqulov hozir prokuror. – Oqsoqol buva uzoq timirskilanib nos otdi. Bobom ikkovlari yerga tikilib, o‘y surib qolishdi. Nazarimda, nima qilishiga ikkovi ham hayron edi.

Oqsoqol buva yarq etib men tomonga yuzlandi.

– San, qizim, xapa bo‘lma! – dedi salmoqlab. – O‘qishingga boraver. Ma’limni aybi yo‘q. Haq joyida qaror topmaguncha qo‘ymayman. Meni kim deb yuribdi Xo‘jaqulovlar!

Oyim ayvonga chiqib, yelkamga qoqdi. Ketmon sopidan tutib turgan Kimsan akam goh Oqsoqolga, goh menga qarab iljaydi. Oqsoqol buvaning gapi «ertaga dadangni obkeb beraman» degandek tuyulib, o‘zimning ham ko‘nglim yorishdi. Ammo indiniga yomon ish bo‘ldi. Rangi zahil, qulog‘ining orqasida danakdek so‘gali bor begona odam kelib, dadamning kitob-daftarlarini rosa titkiladi. Ancha-muncha narsalarni olib ketdi. Bobom o‘rtaga tushmoqchi bo‘lgan edi: «Yo‘qol, unsur!» – deb ko‘zini ola-kula qildi... Bir haftadan keyin maktabga borsam, o‘qituvchi xotin yomon gap aytdi. Bir vaqtlar dadamga: «Robiyaning savodi allaqachon chiqqan ekan, bir yo‘la uchinchi sinfga boraversa bo‘ladi», – degan xuddi o‘sha o‘qituvchi xotin endi butunlay boshqacha gap qildi. «Otang xalq dushmani ekan. Sen sovet maktabida o‘qishni xohlamaganing uchun ataylab o‘qishga kechikib kirgansan!» Yig‘lagim keldi-yu, yig‘lamadim. Hatto oyimga ham dardimni

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

sezdirmadim. To‘satdan tushgan g‘am yosh bolani bir kunda katta odamga aylantirib qo‘yarkan.

«IKKI ESHIK ORASI» ROMANIDAN OLINGAN PARCHA HAQIDA

«Ikki eshik orasi» romani 1986-yilda yozilgan bo‘lib, O‘tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Romanda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo‘r mahorat bilan tasvirlanadi. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni qoralaydi; uning g‘ayriinsoniy mohiyatiga urg‘u beradi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko‘ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari vositasida oddiy odamlarning fazilatlari – mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini ko‘rsatadi.

Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o‘rgangani uchun har bir epizod o‘quvchini ishontiradi; qalbiga jiddiy ta’sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar, ularning diologlari, shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Yetti qism, qirq yetti bobdan tarkib topgan roman kompozitsion qurilishi jihatidan ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Undagi voqea-hodisalar bayonida qatnashgan to‘qqizta personaj hikoyalarini adib bir-biriga ustalik bilan bog‘laydi. Tasvir uchun tanlangan bunday poetik usul yozuvchidan yuksak mahorat talab qiladi, albatta. Aks holda, syujet zanjirida uzilish yuz berib, voqealar sochilib ketgan bo‘lar edi. Biroq romanning ta’sir quvvati, ichki intizomi o‘quvchida juda yaxshi taassurot qoldiradi.

«Ikki eshik orasi» romanidagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlar o‘z individual qiyofasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko‘rk bag‘ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro‘-e’tibori, eng og‘ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga kuch

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

topishi bilan o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan o‘zbek qariyalariga o‘xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi. Orif oqsoqol haqiqatgo‘yligi bois o‘zi anglab yetgan bor haqiqatni yuzga aytishdan cho‘chimaydi. Undagi jasorat va shijoat boshqalarga ilhom beradi. U odamlarga baho berganida xalqona ta’bir bilan «mard odamning belida belbog‘i bo‘lishi kerak» degan taomilga rioya qiladi. Atrofidagi odamlarning ruhiy butunligini, jo‘mardligi va odamiyligini sadoqat, va’daga vafo, ezgu amallar bilan o‘lchaydi. Ba’zan ayollarga ham shu o‘lchov bilan yondashadi.

Romanda ayollar obrazi ham zo‘r mahorat bilan tasvirlangan bo‘lib, ular orasida Qora amma o‘ziga xos tabiati bilan ajralib turadi. Qora amma obrazining aksariyat sifatlari romanning «Qora amma hikoyasi» qismida namoyon bo‘ladi. Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi mujassam topgan. U boshiga tushgan barcha ko‘rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib, o‘zida yashashga kuch-qudrat topadi.

Ukasi Shomurodning xotini Ra’no eriga xiyonat qilib, Umar zakunchining hiyla-nayrangiga uchadi. Ukasining oilaviy tashvishlari ham Qora ammaning yelkasiga tushadi. Kelini Ra’noning qilmishlaridan norizo bo‘lgan Qora amma uni aslo kechira olmaydi. «Juvongina o‘lgur, noinsof! Bolaning uvoli tutgur imonsiz! Eringni birovdan kam joyi yo‘q edi-ku! Cho‘loq bo‘lsa devor oshib o‘g‘rilik qilib bo‘lmagandir! To‘rt yil qon kechib keldi-ku! Eri urushda o‘lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib. Aqalli bolangni o‘ylasang bo‘lmasmidi, imonfurush!» – Qora amma shu zaylda yozg‘iradi. Asarda Ra’noning taqdiri badbaxtlikka borib taqaladi, u baxtsiz bo‘ladi.

Aziz o‘quvchi! Shunday o‘rinlarda adib bu dunyoning kayf-u safosiga uchmasdan, har kim o‘z qalbiga nazar solib, insof bilan yashamog‘i kerak degan ta’lim-tarbiyani berayotgandek tuyuladi.

Bir tasavvur qiling: Qora amma olti farzandini yerga berib, bittagina Kimsanini yer-u ko‘kka ishonmasdan katta qildi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo‘lsin degan niyatda yolg‘iz farzandi – Kimsanini urushga kuzatdi. Kimsanning peshonasiga urushda halok bo‘lish bitilgan edi. Biroq Qora amma o‘g‘lining urushda o‘lganiga ishonmadi; farzandining bir kunmas bir kun ota uyiga kirib kelishiga umid qilib yashadi. Shuning uchun aza ham ochgani yo‘q. Bunday o‘rinlarda ona qalbining naqadar bebaholigiga tan berasiz. Bag‘ri kuygan mushtipar ona kecha-yu kunduz: «Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog‘mi o‘zi? Mayli, oyoq-qo‘lsiz bo‘lsang ham, birov zambilda ko‘tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo‘lingga termula-termula o‘tdi. Endi aqalli meni o‘z qo‘ling bilan tuproqqa qo‘ysang-chi!» – deb o‘g‘lini yo‘qlaydi.

Qora ammaga taqdirning bu ko‘rguliklari ham kamlik qildi. Yolg‘izgina farzandi Kimsanning sevgilisi, o‘zining o‘gay qizi Robiyani ukasi Shomurodga xotin qilmoqchi bo‘ladi. Bu maqsadni amalga oshirish unga qanchalar qiyin kechadi, uning ichki his-tuyg‘ulari, ruhiy holati har qanday insonni larzaga soladi. O‘g‘li Kimsanning oldida, qizi Robiyaning oldida ham o‘zini gunohkor sezadi, ulardan tinimsiz kechirim so‘raydi: «Yuragim uvishib, boshim xam bo‘lib qoldi. Men noinsof, men yuzi qaro qaysi yuz bilan?.. Kimsanim, jon bolam, kechir gunohkor onangni!»

Romandagi yana bir ayol obrazi bor – Robiya. Unga ham taqdir kulib boqmadi. Yoshligidan onasidan yetim qolgan Robiya otasi tarbiyasida ulg‘ayadi. Onasining o‘limidan so‘ng ular Samarqanddan Toshkentga, No‘g‘ay qishloqqa ko‘chib kelib, Husanboy ismli kishining hovlisida yashay boshlaydi. Otasi o‘qituvchi bo‘lgani uchun qishloq bolalarini o‘qitadi. Robiya Husanboy Dumani bobo, uning xotini Qora ammani oyi, ularning o‘g‘li Kimsanni aka, Qora ammaning ukasi Shomurodni ada deb katta bo‘ldi. Robiya sofdil, mehnatkash qiz bo‘lib ulg‘ayadi. U Kimsanga ko‘ngil qo‘ydi. Kimsan va Robiyaning sevgisi bir guli ochilmay so‘ldi. Yurtda urush boshlangach, urushga ketgan sevgilisi qaytmadi. Robiya uni

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yillar davomida kutdi. Urush tugaganiga bir necha yil bo‘lsada, uni sadoqat bilan kutishdan charchamadi.

Qora amma, ya’ni oyisi unga sovchi bo‘lib, ukasi Shomurodga so‘raganida, Robiya aql-u hushidan ayrildi: «Nima deyotganini o‘zi biladimi oyim? Axir... Kimsan akam mening qaylig‘im bo‘lsa, oyimning o‘g‘li-ku! Kimsan akam hammadan ko‘ra oyimga yaqin-ku. Nima jin urdi?»

Bechora Robiya taqdirning achchiq qismatiga ilojsiz ko‘nadi. Insonlarning murakkab taqdirini maromiga yetkazib tasvirlagan roman katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Muhtaram o‘quvchi, romanda tasvirlangan voqea-hodisalarni o‘zlaringiz yashab turgan davr bilan xayolan qiyoslab ko‘rishingiz foydadan xoli emas.

Savol va topshiriqlar

1. O‘tkir Hoshimovning o‘zi haqida yozgan «Mashaqqatli safar» nomli avtobiografik hikoyasining to‘liq matnini topib o‘qing?
2. Adib «Mashaqqatli safar» nomli tarjimayi holida ota-onasini qanday xotirlaydi?
3. Yozuvchining bolalik va talabalik yillari haqida nimalarni bilasiz?
4. «Ikki eshik orasi» romanini to‘liq o‘qib chiqing va taqdimotga tayyorlaning.
5. Asardagi Qora amma kim va unga xos bo‘lgan sifatlarni matnga tayangan holda izohlang?
6. Orif oqsoqol, Husan Duma, muallim obrazlariga tavsif bering.
7. Robiya o‘z hikoyasida bolaligi va «yangi qarindoshlari» haqida nimalarni eslaydi?
8. Robiyaning bolaligi bilan o‘z bolaligingizni qiyoslab, munosabat bildiring?
9. Asardagi sizni hayajonga solgan o‘rinlarni belgilang va ularga munosabat bildiring?
10. «Mening bolalik xotiralarim» mavzusida ijodiy matn yozing.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

JEK LONDON
(1876–1916)

Jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Jek London Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida fermer oilasida tug‘ildi. U yoshligidan ko‘plab kasblar bilan mashg‘ul bo‘lib, hayotda turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. Kaliforniya universitetida o‘qiydi, oradan biroz vaqt o‘tib o‘qishni tashlashga majbur bo‘ladi.

Yozuvchining adabiy faoliyati 1893-yilda boshlangan. Butun ijodiy faoliyati davomida yigirmaga yaqin roman, yuz ellikdan ortiq hikoya yozadi. «Bo‘ri bolasi», «Izg‘irin bolalari» kabi asarlarida, asosan, mamlakatning shimoliy o‘lkalari to‘g‘risida hikoya qilinadi. «Qor qizi», «Hayot uchquni», «Insonga ishonch» kabi asarlarida sarguzasht motivi yetakchilik qiladi. Jek London qahramonlari har doim erkka intiladilar, o‘z burch va majburiyatlarini har xil sharoitlarda chin dildan bajaradilar, hayot mashaqqatlarida toblanadilar. Adibning qahramonlari har qanday holatda ham insoniylikka xiyonat qilmaydi. Ayrim hikoyalarida tabiat bilan uyg‘unlashib ketgan kurashchan, zahmatkash insonlarning hayoti tasvirlanadi.

Yozuvchining «Dengiz bo‘risi», «Martin Iden» va «Uch qalb» romani dunyo adabiyotining nodir namunalari sanaladi.

Jek London 1916-yil vafot etadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

HAYOTGA MUHABBAT

(*Hikoya*)

Ular oqsoqlanib soyga tomon tushib borardilar. Hamrohlardan biri, oldinda borayotgani toshloq yerda qoqilib gandiraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab holdan toygan va tishlarini-tishlariga qo‘yib taqdirga tan berganliklari yuzlaridan ko‘rinib turardi – bu uzoq vaqt chekkan qiyinchiliklari oqibati edi. Orqalaridagi qayish bilan tortib bog‘langan og‘ir yuklari yelkalarini ezardi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib ko‘zlarini yerdan uzmay borardilar.

– Qani endi yashirib qo‘ygan joyimizdagi o‘qlardan hozir ikkitaginasi bo‘lsa, – deb qo‘ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizlikdan ovozi zaif chiqdi. U juda behafsalalik bilan gapirardi. Toshlarga urilib, ko‘piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa unga hech narsa deb javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigi orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek sovuq bo‘lishiga qaramay, ular oyoq kiyimlarini yechmadilar. Suv shu qadar sovuq ediki, oyoqlari barmoqlarigacha uvishib qoldi. Ba’zi joylarda suv tizzadan kelardi. Shunda suv shitob bilan urganda, ular o‘zlarini tutolmay, gandiraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo‘lovchi silliq toshga tiyg‘anib ketib, yiqilishiga oz qoldi, og‘riqdan qattiq ixrab yubordi, ammo yiqilmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib, xuddi havodan madad so‘raganday, bo‘sh qo‘lini oldinga cho‘zdi. O‘zini o‘nglab oldi-da, oldinga qadam bosdi, lekin yana toyib ketib, yiqilishiga sal qoldi. Shundan keyin, to‘xtab o‘z sherigiga qarab qo‘ydi: sherigi esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga qarab ketmoqda edi. Orqada qolgan bir narsani o‘ylagandek birpas qimirlamay turdi, keyin:

– Menga qara, Bill, oyog‘imni chiqarib oldim, shekilli! – deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab, sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrilib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi. Uning yuzi avvalgidek hech

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

narsani ifoda qilmasa-da, ko‘zlarida yaralangan bug‘u singari chuqur qayg‘u ifodasi aks etdi.

Mana Bill qarshi qirg‘oqqa o‘tib oldi-da, kalovlanib yurib ketdi. Suvning o‘rtasida turgan hamrohi undan ko‘zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o‘siq sariq mo‘ylovi uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qovjiragan lablarini bir yalab oldi-da:

– Bill! – deb qichqirdi.

Bu falokatga yo‘liqqan odamning jon achchig‘idagi qichqirig‘i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. Ketib qolgan sherigining orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sherigi lapanglab, oqsoqlanib, qoqilib-suqilib, tepalikda ko‘ringan egri-bugri chiziqlar tomon asta-sekin ko‘tarilib borardi. Bill to tepalikni oshib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha, sherigi orqasidan qarab turdi. Shundan keyin u tarafdan ko‘zini uzdi-da, Bill ketganidan keyin yolg‘iz o‘zi qolgan yerni bir-bir ko‘zdan kechirib chiqdi.

U butun og‘irligini bir oyog‘iga solib turib, soatini oldi, soat to‘rt edi. So‘nggi ikki hafta ichida u hisobni yo‘qotib qo‘ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo‘lganligi sababli quyosh shimoli-g‘arbda bo‘lishi kerak edi. U janub tomonga qaradi. Mana shu ko‘rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir, Katta Ayiq ko‘li bor, xuddi o‘sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy Qutb doirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ydi. U turgan soy Kappermayn daryosining irmog‘i, Kappermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko‘rfaziga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o‘zi u yerlarga hech qachon bormagan, lekin buning hammasini Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasida ko‘rgan edi.

U o‘zi yolg‘iz qolgan joyini yana bir marta ko‘zdan kechirdi. Tevarak-atrof jimjit, ko‘rimsiz edi. Na daraxt, na buta, na o‘t-o‘lan ko‘rinadi – poyonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo‘q. Uning ko‘zlarida qo‘rquv ifodalari ko‘rindi.

– Bill! – deb pichirladi. – Bill! – deb takrorladi u yana ketidan. Poyonsiz sahro go‘yo qudratli kuchi bilan bosayotganday, o‘zining mudhish sokinligi bilan ezayotganday bo‘ldi: u loyqalanib oqayotgan soy o‘rtasida cho‘qqayib o‘tirib qoldi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

U xuddi bezgak tutayotgandek qaltirab ketdi, shu payt miltig‘i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o‘ziga keltirdi. U qo‘rquvni yengib, es-hushini yig‘di, keyin qo‘lini suvga tiqib, paypaslab-da, miltig‘ini topdi. So‘ng mayib oyog‘iga og‘irlik kamroq tushsin deb, yukni chap yelkasiga oldi-da, og‘riqdan basharasini burishtirib, juda ehtiyotlik bilan asta-sekin qirg‘oqqa tomon yurdi.

U to‘xtamay yuraverdi. Og‘riqqa sira parvo qilmay, Bill oshib o‘tgan tepalik ustiga shosha-pisha dadil chiqaverdi. Tepalikka chiqib qarasa, vodiyda hech kim ko‘rinmadi. Uni yana qo‘rquv bosdi, keyin qo‘rquvni yengib, qopini chap yelkasiga yana ham ko‘proq surib, oqsoqlanib-oqsoqlanib pastga tusha boshladi.

Vodiyning pastligi chalchiqzor bo‘lib, chimliq jiqqa suv edi. U har qadam bosganda suv sachrar, nam chimliqdan oyog‘ini har ko‘targanida, shalop-shulip etgan tovush chiqardi. U Billning izidan yurishga intilib, ko‘loblarni aylanib o‘tar yoki chimliqlarda xuddi orol singari cho‘qqayib turgan toshlar ustidan borardi.

U yolg‘iz qolgan bo‘lsa ham, yo‘lidan adashmadi. Yana biroz yurganidan keyin atrofini pastakkina, nimjon, quruq pixta va archalar o‘rab olgan kichikkina Titchinichili ko‘liga yetib borishini bilardi, bu ko‘lning nomi mahalliy tilda «Kichik og‘ochlar o‘lkasi» degan ma’noni anglatardi. Shu ko‘lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo‘ylarida qamish o‘sadi. Buni u yaxshi eslaydi – lekin u yerda daraxt yo‘q. Shu yerdan g‘arbga tomon boshqa bir ariq oqadi, shu ariq yoqalab u Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o‘sha yerda to‘nkarib, ustiga tosh bostirib qo‘yilgan qayiqni topadi. O‘sha qayiqning ostida miltiq o‘qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to‘r, umuman, ovqat topish uchun zarur bo‘lgan narsalarning hammasi yashirib qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘sha yerda oz bo‘lsa ham un, bir parcha go‘sht, loviya ham bor.

Bill uni o‘sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta Ayiq ko‘liga boradilar, undan keyin ko‘ldan o‘tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha, janubga qarab boraveradilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab boraveradi-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

lar, qish esa ularni quvib boradi. Tez oqar soy va jilg‘alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga, Gudzon ko‘rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar, u tomonlarda baland-baland azamat daraxtlar o‘sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

Zo‘rg‘a sudralib borayotgan yo‘lovchi mana shular haqida o‘ylar edi. Lekin yurish qanchalik og‘ir bo‘lmasin, Bill uni yolg‘iz tashlab ketmaydi degan fikrga ishonish undan ham qiyin edi. Bill hech shubhasiz uni narsalar yashirilgan joyda kutib o‘tiradi. U shunday deb o‘ylashi kerak, aks holda, bundan keyin kurashni davom ettirishning hech hojati yo‘q – unda oyoqni cho‘zish-u, o‘lib qo‘ya qolishdan boshqa iloj yo‘q. Quyoshning xira gardishi shimoli-g‘arb tomonga sekin-asta yashirinayotgan qishdan qochib, janub tomonga qo‘yiladigan har qadamini bir necha bor hisoblab chiqdi. U narsalar yashirilgan joydagi va Gudzon kompaniyasining omboridagi oziq-ovqat zaxirasini qayta-qayta o‘z xayolidan kechirdi. Ikki kundan beri u hech narsa yegani yo‘q, lekin undan ilgari ham to‘yib ovqat yemagan edi. U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og‘ziga solar va chaynab yutib borardi. Mevalar juda sersuv, suvi ichiga ketib, og‘zida faqat taxir va qattiq urug‘largina qolardi. Bu mevalar qorin to‘yg‘izmasligini u bilardi, shunday bo‘lsa ham, ularni sabr bilan chaynar, chunki umid achchiq haqiqat bilan hisoblashishini istamas edi.

Soat to‘qqizlarda u oyog‘ining katta barmog‘ini o‘tkir tosh qirrasiga urib oldi. Charchoq va darmonsizlikdan gandiraklab, yiqilib tushdi. Bir yonboshiga ag‘nab, anchagacha qimirlamay yotdi. Birozdan keyin orqasidagi qop qayishini yelkasidan chiqarib, ixrab-ixrab o‘tirib oldi. Hali uncha qorong‘i tushganicha yo‘q edi, g‘ira-shirada toshlar orasini paypaslab, quruq xas-cho‘p yig‘a boshladi. Bir tutam xas-cho‘p yig‘ib, o‘t yoqdi, keyin kotelokka suv solib, burqsib yonayotgan o‘tga qo‘ydi.

U qopini ochib hammadan burun gugurtlarni sanab ko‘rdi. Hammasi bo‘lib oltmish yetti dona gugurt cho‘pi bor edi. U yanglishgan bo‘lmay deb, gugurt cho‘pini uch marta sanab

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

chiqdi. Gugurtni uch bo‘lakka ajratib, har bir bo‘lagini bir qog‘ozga o‘radi. Bir bo‘lagini bo‘sh hamyonga solib qo‘ydi, ikkinchisini ohori to‘kilgan shapkasining astariga tiqdi, uchinchisini esa ko‘kragiga yashirib qo‘ydi. Shundan keyin uni birdan qo‘rquv bosdi: uch bo‘lak gugurtni yana qaytadan ochib sanab ko‘rdi. Gugurt cho‘plari avvalgidek oltmish yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o‘tga tutib quritdi, mokasini julduri chiqib ketgan, odeyaldan tikilgan paypoqlari teshik, oyoqlari bo‘lsa qontalash bo‘lib ketgandi. To‘pig‘i shishib, xuddi tizzasidek yo‘g‘on bo‘lib ketgandi. U odeyallardan bittasining chetidan uzun qilib yirtib oldi-da, to‘pig‘ini mahkam siqib bog‘ladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib, mokasini va paypoq o‘rnini bosar deb, oyog‘iga aylantirib o‘radi-da, qaynagan suvdan ichib oldi, soatni buradi, so‘ng odeyalga o‘ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Yarim tunga borib qorong‘i tushdi, lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi. Shimoli-sharqdan quyosh ko‘tarildi, to‘g‘rirog‘i, o‘sha tomondan tong yorisha boshladi, chunki quyosh yuzini quyuq tuman qoplagan edi. Soat oltida u chalqancha holda uyqusidan uyg‘ondi, kulrang osmonga qaradi va och qolganini sezdi. Tirsagiga suyanib, qaddini ko‘targan edi, qulog‘iga qattiq pishqirgan tovush eshitildi. Qarasa, unga hushyorlik va qiziqish bilan bir bug‘u qarab turibdi. Bug‘u undan ellik qadamcha narida turardi. Shu ondayoq tovada jizillab qovurilayotgan bug‘u go‘shtining hidi dimog‘iga urilgandek, o‘zi go‘sht mazasini totgandek bo‘ldi. Beixtiyor o‘qi yo‘q miltig‘ini olib o‘qtaldi, tepkisini bosib yubordi. Bug‘u cho‘chib bir chekkaga tashlandi va tuyoqlarini tapillatib qochib ketdi.

U so‘kinib, miltig‘ini uloqtirib tashladi, ixrab-ixrab o‘rnidan turishga urinib ko‘rdi, ancha uringandan keyin zo‘rg‘a turib oldi. Bo‘g‘inlari xuddi zanglab qolgandek edi, qaddini rostlash yoki bukish juda mashaqqatli edi. Nihoyat, u oyoq bosganidan keyin ham odamga o‘xshab tik turib olish uchun rosa bir minutcha urindi.

U chog‘roq bir tepalik ustiga chiqib, atrofga nazar tashladi. Bo‘zrang chimliq dengizdan boshqa hech narsa – na daraxt, na

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

biron buta – hech narsa ko‘rinmasdi. Osmon bo‘z rangda edi. Quyosh na nur sochadi, na yilt etgan shu’lasini ko‘rsatadi. U shimol qayoqda ekanini, kecha kechqurun bu yerga qaysi tomondan kelganini eslay olmadi. Lekin u yo‘ldan adashmagan edi. Buni u yaxshi bilardi. U tezda Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib oladi. U o‘lka shu yaqin orada, chap tomonda bo‘lishi kerak, ehtimol, xuddi mana shu ko‘rinib turgan tepalikning narigi tomonidadir.

U tepalikdan qaytib tushib, yo‘lga otlandi. Tugunini tugdi, uch bo‘lak qilib yashirgan gugurtlari turibdimi, yo‘qmi deb paypaslab ko‘rdi, lekin sanab o‘tirmadi. U bug‘uning terisidan tikilgan xaltachaga qarab turib, xayol surib qoldi. Xalta uncha katta emas, ichidagi narsalari bilan bir hovuch kelardi. Lekin og‘irligi o‘n besh qadoq bo‘lib, boshqa yukning og‘irligidan qolishmasdi – uni mana shu tashvishga solardi. U xaltani bir tomonga surib qo‘yib, boshqa narsalarni o‘ray boshladi. Keyin xaltachaga qaradi-da, uni shartta qo‘liga oldi, xuddi sahro uning qo‘lidan oltinni tortib olayotgandek, atrofga xo‘mrayib qaradi. Yana o‘rnidan turib yo‘lga tushganida, boshqa narsalar qatori xaltacha ham uning orqasida edi.

U chapga burildi. Ahyon-ahyonda to‘xtar va botqoq mevalaridan terib yer edi. Uning oyog‘i butunlay qotib qoldi, o‘zi borgan sari kuchliroq oqsar, lekin oyoq og‘rig‘i qornidagi og‘riqqa qaraganda hech gap emasdi. Ochlik azobi uni ko‘proq qiynar, qornidagi og‘riq esa unga ich-ichdan azob berardi. Endi u Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib olish uchun qaysi tomonga yurishni bilmasdi. Mevalar uni ochlik azobidan qutqarolmas, til va tanglaylarini lovullatib achitardi. Kichikroq bir soylikka yetib borganida, toshlar orasidan qanotlarini qoqib, qirqirlashib bir to‘p oq kaklik ko‘tarildi. U kakliklarga qarab tosh otdi, lekin tegizolmadi. Keyin u yukini yerga qo‘yib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pusib-o‘rmalab bora boshladi. Shimi o‘tkir tosh qirralarga tegib yirtilib ketdi, tizzalaridan oqqan qon iz qoldirib borardi. Lekin ochlik azobi shu qadar kuchli ediki, u boshqa hech qanday og‘riqni sezmasdi. U chalchiqzor chimliqlar ustidan o‘rmalab borar, kiyimlari shalabbo bo‘lib ketgan, badani sovuqdan dir-dir titrardi-yu,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

lekin u faqat ovqat haqida o‘ylar, boshqa hech narsani sezmasdi. Atrofidan ha deganda par etib uchib ketayotgan kakliklarning qir-qiri endi uni masxara qilayotgandek tuyuldi. U kakliklarni so‘kib qo‘ydi-da, ularga qarab qichqirmoqqa boshladi. Bir gal u kaklikka juda yaqin kelib qoldi, qush chamasi uxlab yotgan bo‘lsa kerak. U qush toshlar orasidagi uyasidan parillab uchib chiqmaguncha, odam uni ko‘rmadi. Kaklik bexosdan parillab chiqib qolganiga qaramay, odam changal soldi. Qo‘lida qushning uchta pati qoldi. U uchib ketayotgan qush orqasidan uzoq qarab turdi, kaklik go‘yo uning boshiga katta halokat keltirgandek, odam ko‘nglida qushga nisbatan cheksiz nafrat uyg‘ondi. Keyin orqasiga qaytib, yukini ko‘tarib oldi.

Choshgohda u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko‘proq edi. Xuddi unga o‘chakishganday, oldidan yigirmatacha bug‘u o‘tib ketdi, ular shunday yaqindan o‘tdiki, miltiq bilan bemalol otib olsa bo‘lardi. Bug‘ularni quvlagisi keldi, quvlasa ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan kaklik tishlagan bir qora tulki ham o‘tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho‘chib ketgan tulki o‘zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og‘zidan tushirmadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan oppoq ohakdek loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o‘xshagan bir narsani sug‘urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo‘lib, chaynaganda qars-qars ovoz chiqarar edi. Lekin mazasi taxir, xuddi chalchiqzor mevasiga o‘xshagan sersuv bo‘lib, och qorinni to‘yg‘izmasdi. U yukini yerga tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o‘xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o‘rmalab ketdi. U juda charchagan, biroz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi, lekin Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib olish orzusi, undan ham zo‘rroq bo‘lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo‘lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar, oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko‘lmakni sinchiklab qaradi. Nihoyat, qosh qorayganida bir chuqurda bittagina baliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. U qo‘lini yelkasigacha suvga tiqdi. Lekin baliq-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

cha qo‘lidan sirg‘alib chiqib ketdi. U baliqni ikki qo‘llab tutmoqchi bo‘lib suvni loyqalatib yubordi. Esi-dardi baliq bilan bo‘lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko‘rib bo‘lmay qoldi. Shundan keyin u suvning tinishini kutib turdi.

U yana baliqni tutish bilan ovora bo‘ldi, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqati qolmadi. Yukka qo‘shib bog‘langan paqirchani oldi-da, chuqurdagi suvni chetga olib to‘ka boshladi. Avvaliga u zo‘r berib ishladi, usti-boshi shalabbo bo‘lib ketdi, shoshganidan suvni chuqurga shunday yaqin to‘kar ediki, suv yana qaytib chuqurga oqib tushardi. So‘ngra u qo‘lining titrashi va yuragining qattiq urishiga qaramay, xotirjam ishlashga qaror berdi. Yarim soatdan keyin chuqurchada bir hovuch ham suv qolmadi. Biroq baliq yo‘q bo‘lib qolgandi. Uning ko‘zi toshlar orasidagi bir yoriqqa tushdi. Baliq shu yoriqdan katta bir chuqurga o‘tib ketibdi, u chuqurda suv shu qadar ko‘p ediki, uning suvini bir kecha-yu bir kunduzda ham tamom qilib bo‘lmasdi. Yoriq borligini ilgari bilganida, hammadan burun uni tosh bilan berkitib qo‘ygan bo‘lardi, shunda baliq uning qo‘lidan qochib qutulolmasdi. Odam chalchiq yerga o‘tdi-da, alamiga chidayolmay yig‘lab yubordi. Boshda sekin-sekin yig‘ladi. Keyin atrofni o‘rab olgan shafqatsiz cho‘lni uyg‘otmoqchi bo‘lganidek ovozining boricha ho‘ngrab yig‘layverdi. A’zoyi badani titrab, uzoq yig‘ladi.

U o‘t yoqdi. Qaynagan suvdan ancha ichib, biroz isidi, yotish uchun tosh ustiga kechagidek joy qildi. Yotishdan avval gugurtning ho‘l, quruqligini tekshirib ko‘rdi va soatini burab qo‘ydi. Odeyal ho‘l va muzdek edi. Og‘riqdan oyoqlari o‘tday yonar, lekin u faqat ochlik azobini sezar edi, xolos. Kechasi har xil ziyofatlar, mehmondorchiliklar va dasturxonga tortilgan turli noz-ne’matlarni tushida ko‘rib chiqdi.

U sovuq qotib uyg‘ondi, tobi qochgandi. Quyosh ko‘rinmasdi. Yer-u ko‘kning bo‘zrang tusi yana ham quyuqlashgan, qattiq shamol esar, birinchi qor tepaliklarni oppoq libosga burkagan edi. U o‘t yoqib suv qaynatguncha havo yana ham quyuqlashgandek, yana ham sovuqlashgandek tuyuldi. Lay-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

lakqor yog‘a boshlagan edi. Qor avvaliga yerga tushishi bilan eriyverdi, lekin bora-bora ko‘payib, yer betini qoplab oldi-da, quruq xas-cho‘plarni ho‘l qilib, o‘tni o‘chirdi.

Bu unga yukini orqasiga ko‘tarib, boshi og‘gan tomonga qarab yo‘lga chiqish uchun signal bo‘ldi. U endi Kichik og‘ochlar o‘lkasi haqida ham, Bill haqida ham, Diz daryosi sohilida qayiq ostiga yashirilgan narsalar haqida ham o‘ylamasdi. Uning xayoliga ovqatdan bo‘lak narsa kelmasdi. Ochlik uni aqldan ozdirdi. U qayoqqa ketayotganini ham o‘ylamay qo‘ydi. Unga endi ikki dunyo bir qadam bo‘lib qolgandi. Ishqilib, tekis yerda yursa bo‘lgani edi. Yo‘lda ketarkan, u mazasi achchiq bir o‘simlik topdi, giyohdan qancha topsa, hammasini yedi. Lekin bu giyoh juda oz ekan, u yerga yoyilib o‘sganidan, qor tagida qolgan edi.

Shu kecha u o‘t yoqmadi, suv ham qaynatmadi, odeyal ichiga kirib oldi-da, ochligicha yotib qoldi. Qor asta-sekin sovuq yomg‘irga aylandi. Yuziga yomg‘ir tomchilari tushayotganini sezib tez-tez uyqusidan uyg‘onardi. Tong otib, yana quyoshsiz, bulutli kun boshlandi. Yomg‘ir tingan. U endi ochlik to‘g‘risida o‘ylamay qo‘ygandi. Qorni sal-pal og‘rirdi, xolos, ammo bu og‘riq unga unchalik azob bermasdi. Uning fikri biroz ravshanlashdi. Endi u yana Kichik og‘ochlar o‘lkasi haqida, Diz daryosi bo‘yiga yashirib qo‘ygan narsalar haqida o‘ylay boshladi.

U yirtiq odeyaldan qolgan qismini yana uzunasiga yirtib, shilinib qontalash bo‘lib ketgan oyog‘ini bog‘ladi, chiqqan to‘pig‘ining lattasini yangiladi-da, yana yo‘lga tushishga hozirlandi. Yukni ko‘tarib olishdan oldin bug‘u terisidan tikilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani o‘zi bilan olib ketdi.

Yomg‘ir qorni eritib yuborgandi, tepachalarning cho‘qqilarigina oqarib turardi. Quyosh ko‘rinib qoldi, bundan foydalanib yo‘lovchi dunyoning to‘rt tomonini belgilab oldi, yo‘ldan adashganligi aniq bo‘ldi. So‘nggi kunlarda chap tomonga ko‘proq ketib qolgan bo‘lsa kerak, endi u to‘g‘ri yo‘lga tushib olish uchun o‘ng tomonga qarab yura boshladi.

Ochlik azobi unga kor qilmay qolgan edi-yu, lekin u o‘zining holdan ketganini sezdi. Dam olgani tez-tez to‘xtar,

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yerdan meva terar va qamishlarni tomiri bilan sug‘urib olardi. Uning tili qaqrab, shishib ketdi. Og‘zida ham achchiq va bemaza ta’m bor edi. Hammadan ko‘proq uni yuragi bezovta qilardi. U bir necha qadam bosmasdan, yuragi duk-duk urib ketar, qinidan chiqib ketay deb dukkillab ura boshlardi-da, nafasi bo‘g‘ilib, boshi aylanar, o‘zidan ketib qolay derdi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tanga baliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo‘lmasdi. Lekin u o‘zini ancha bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi. Lekin uning uncha ovqat yegisi yo‘q edi. Qorin og‘rig‘i ancha pasaygandi. U baliqlarni xomligicha og‘ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladi. Ishtahasi bo‘lmasa ham, ovqat yeyishga o‘zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi.

Kechqurun u yana uchta tanga baliq tutdi, ikkitasini yeb, uchinchisini ertalabga olib qo‘ydi. Quyosh onda-sonda uchrab turgan xashaklarni quritgandi, u suv qaynatib ichib, biroz isidi. O‘sha kuni u o‘n mildan[1] ortiq yo‘l bosolmadi. Ertasiga yuragi qattiq urib, besh milga yaqin yo‘lni bosib o‘tdi. Qorni ortiq og‘rimay qo‘ydi. Endi u notanish yerlardan borardi, bug‘ular tez-tez uchrar, hatto bo‘rilar ham ko‘rinib qolardi. Uning qulog‘iga ularning uvillagani tez-tez chalinardi. Bir marta u pusib yo‘lni kesib o‘tayotgan uchta bo‘rini ko‘rib qoldi.

Yana tun kirdi. Tongda u biroz o‘ziga kelib, xaltaning qayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to‘kdi. Oltinni bab-baravar ikki qismga bo‘ldi. Bir bo‘lagini lattaga o‘rab, uzoqdan yaxshi ko‘rinib turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo‘ydi. Ikkinchi qismini yana xaltaga solib, og‘zini bog‘ladi. Keyin u bitta-yu bitta odeyalini yirtib, oyoqlarini o‘radi. Lekin u hamon miltig‘ini tashlamasdi, chunki Diz daryosi bo‘yida yashirib qo‘yilgan narsalar orasida patronlar bor, axir.

Bugun hamma yoqni quruq tuman qopladi. Shu kuni u yana ochlik azobini tortdi. Yo‘lovchi juda zaiflashib qolgan,

[1] M i l – qadimdan qo‘llab kelingan, turli davlatlarda har xil qiymatlarga ega bo‘lgan uzunlik o‘lchovi. Geografik milya – 7420 m; dengiz milyasi – 1852 m.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

tez-tez boshi aylanar, vaqti-vaqti bilan hech narsani ko‘rmay qolardi. U endi tez-tez qoqilar, yiqilar edi. Bir marta u kaklik uyasi ustiga yiqilib tushdi. Uyada endigina tuxumni yorib chiqqan kaklik bolalari bor ekan. U shoshib-pishib ularni tiriklayin og‘ziga sola boshladi. Kaklik bolalarining suyaklari uning tishlari orasida xuddi tuxum po‘stlog‘i singari qasirlar edi. Ona kaklik uning tepasida charx aylanib, uchib yurar va achchiq-achchiq faryod qilardi. Odam miltiq qo‘ndog‘i bilan kaklikni urib tushirmoqchi bo‘ldi, lekin qush chap berib qochdi. Keyin u kaklikka tosh ota boshladi, qanotini sindirdi. Kaklik yaralangan qanotini sudrab, bir tomonga qarab qochdi. Odam uning orqasidan quvlashga tushdi.

Kaklik bolalari uning ishtahasini yana ham ochib yubordi. U kalovlanib, oqsoqlanib, goh kaklikka tosh otib bo‘g‘iq tovush bilan qiyqirar, goh har yiqilganda chidam bilan o‘rnidan turib, qovog‘ini solib, indamay qadam tashlar edi, boshi aylanganda hushidan ketmaslik uchun ko‘zlarini ishqalar edi.

Kaklik orqasidan quvib borayotib, pastlikdagi bir chalchiqzorga duch keldi. Uning ko‘zi ho‘l chimliqdagi odam iziga tushdi. Bu izlar uniki emasligi ravshan edi. Billning izlari bo‘lsa kerak. Lekin u to‘xtab turolmasdi, chunki kaklik tobora undan uzoqlashar edi. U qushni quvlay berib charchatdi, lekin o‘zining ham tinkasi quridi. Kaklik yonboshiga ag‘darilib og‘ir-og‘ir nafas olib yotardi, lekin odam ham o‘n qadamcha berida entikib yotar, qushga yetib olishga sira ham madori qolmagandi. Odam biroz dam oldi, lekin qush ham nafasini rostlagandi. U qo‘l uzatish bilan qush tipirlab qochdi. Yana quvishga tushdi. Qosh qorayib, qush ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Odam juda charchaganligidan madori qurib qoqildi va orqasidagi yuki bilan yiqildi-da, yuzlari shilinib ketdi. U anchagina qimirlamay yotdi, keyin yonboshiga ag‘darilib, soatini burab qo‘ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.

Yana tuman bosdi. Odeyalning yarmisi oyoqni o‘rashga ketdi. Billning izini u qaytib topolmadi. Endi unga baribir edi. Ochlik uni tinmay olg‘a haydardi. Bordi-yu... Bordi-yu, Bill ham adashib qolgan bo‘lsa-chi? Tushga borib u juda ham holdan toydi. U yana oltinni ikkiga bo‘ldi. Bu gal o‘lchab

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

o‘tirmay, yarmisini yerga to‘kib qo‘ya qoldi. Kechga borib, odeyalning yarmini, paqircha va miltiqni olib qolib, oltinning hammasini yerga to‘kib tashladi.

Ba’zi bir fikrlar uning miyasini juda chulg‘ab olgandi. Tasavvurida miltiqda xuddi bir o‘q bordek, u esa buni ko‘rmay qolgandek edi. Shu bilan bir vaqtda miltiqda o‘q yo‘qligini yaxshi bilardi. Lekin bu xom xayol uni sira tinch qo‘ymasdi. Pirovardida miltig‘ini qarab, o‘qning yo‘qligiga ishonch hosil qildi. Shunday hafsalasi pir bo‘ldiki, go‘yo u, haqiqatan ham, o‘q borligini kutgan edi.

Yarim soat o‘tdi. Keyin miyasiga yana o‘sha fikr keldi, u bu fikrni miyasidan chiqarib tashlayolmadi-da, o‘zini biroz ovutish uchun miltig‘ini yana tekshirib chiqdi. Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o‘zi esa jonsiz narsadek beixtiyor kalovlanib borar edi; g‘alati xayollar va bema’ni tasavvurlar uning miyasini qurtday kemirar edi. Lekin u tez o‘ziga kelardi, chunki ochlik uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta uning ko‘z oldida shunday bir ajib manzara paydo bo‘ldiki, hushidan ketib qolishiga sal qoldi. Uning oldida bir ot turardi. Ot! U ko‘zlariga ishonmadi. Ko‘z oldi jimirlashib, atrofni tuman bosganday bo‘ldi. U zo‘r berib ko‘zini ishqaladi, ko‘z oldi ravshanlanganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ‘il ayiq turibdi. Ayiq unga o‘qrayib-o‘qrayib qarardi. U miltig‘ini yelkasidan oldi-yu, shu ondayoq esini yig‘di. Miltiqni qo‘yib, munchoq qadalib tikilgan qinidan pichog‘ini sug‘urdi. Uning oldida go‘sht va hayot turardi. Bosh barmog‘i bilan pichoqning tig‘ini tekshirib ko‘rdi. Pichoqning tig‘i ham, uchi ham o‘tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o‘ldiradi. Lekin uning yuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek, duk-duk ura boshladi. Keyin birdan yuragi qinidan chiqar darajada sakrab ketdi; miyasi xuddi iskanjaga olgandek qattiq og‘ridi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi.

Hozirgina jo‘sh urib turgan botirlik o‘rnini qo‘rquv egalladi: u shu qadar zaif tortib ketdiki, ayiq hujum qilsa, nima bo‘ladi? U mumkin qadar haybatliroq bo‘lib ko‘rinish uchun qaddini rostladi, pichoqni qo‘liga olib, to‘g‘ri ayiqning ko‘zlariga tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qadam bosdi, ikki

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

oyog‘ini ko‘tarib o‘kirib yubordi. Odam qochganida, ayiq uning orqasidan quvgan bo‘lardi. Lekin odam qo‘rquvni bosib, o‘rnidan qimirlamadi; u ham yirtqich hayvonday dahshat bilan o‘kirib yubordi, bu o‘kirik qo‘rquv ifodasi edi, chunki qo‘rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog‘liq.

Ayiq undan qo‘rqmay tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib, o‘kirgancha bir tomonga chekindi. Lekin odam o‘rnidan qimirlamadi. U xavf o‘tib ketguncha qaqqayib turaverdi, keyin xuddi bezgak tutgandek, titrab-qaqshab ho‘l chimliqqa yiqildi.

U biroz o‘ziga kelib, qo‘rquv ichida yana yo‘lga tushdi. U endi ochlikdan o‘lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so‘nggi intilishlari so‘nguncha yirtqich hayvonlar panjasida o‘lib ketishdan qo‘rqardi. Atrofida bo‘rilar izg‘ib yuribdi.

Bo‘rilar ikkita-ikkitadan, uchta-uchtadan bo‘lib, tez-tez uning yo‘lini kesib o‘tishardi. Lekin ular odamga yaqin kelishmasdi. Ular juda ham ko‘p emasdi. Bundan tashqari, ular qarshilik ko‘rsatmaydigan bug‘ularni ovlashga o‘rganishgan edi, ikki oyoqli g‘alati maxluq esa chang solib qolsa ham, tishlab olsa ham ajab emasdi.

Kechga borib u yerda sochilib yotgan suyaklarni ko‘rib qoldi. Bo‘rilar xuddi mana shu yerda ovni qo‘lga tushirishgan edi. Bir soat ilgari bu bug‘ucha sakrab-sakrab, ma’rab yurgandi. Odam top-toza qilib qo‘yilgan, yarqiroq qizg‘ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg‘ish edi, chunki undagi hayot hali so‘nmagandi. Kechqurunga borib, ehtimol, uning taqdiri ham shunday bo‘lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi, o‘limda esa qiynalish yo‘q. O‘lmoq uxlamoqdir, o‘lim orom olmoqdir. Bo‘lmasa nima uchun u o‘lishni istamaydi?

Lekin u uzoq o‘ylab o‘tirmadi. Ko‘p o‘tmay u cho‘kka tushdi-da, suyaklarni kemira boshladi, suyaklarga qizg‘ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonalarini so‘rmoqqa tutindi. Go‘shtning o‘tmishdan qolgan xotira singari bo‘lib tuyulgan sezilar-sezilmas mazasi uni o‘zini yo‘qotar darajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib, g‘ajiy boshladi. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

bilan yanchib, ochko‘zlik bilan yuta boshladi. Shoshilganidan toshni barmoqlariga urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og‘riqni sezmayotirman deb ajablanib qo‘yardi.

Qor va yomg‘irli kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo‘lga tushganini eslay olmasdi. Vaqtni surishtirmay, kechasi ham, kunduzi ham yo‘l bosdi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so‘nayotgan hayot uchquni alangalandi deguncha yana oldinga qarab o‘rmaladi. Odam endi hayot uchun kurashmay qo‘ydi. Undagi hayotning o‘zi o‘lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uyushib qolgan, miyasi esa g‘alati xayollar, shirin tushlar bilan to‘la edi.

U yo‘lda borarkan, bitta qo‘ymay yig‘ishtirib olgan suyaklarni tinmay so‘rar va chaynar edi. U ortiq tepaliklarga ko‘tarilmas, ariqlarni kechib o‘tmasdi, u endi keng vodiydan oqib o‘tayotgan anhor yoqalab borardi. Uning ko‘ziga xayoliy manzaralar ko‘rinardi. Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bo‘lsa ham, ular bir-biridan ajralgandek edi: ularni bir-biriga bog‘lab turgan hayot rishtasi shu qadar ingichka edi.

Bir kuni u yassi tosh ustida yotganida hushi o‘ziga keldi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi. Quyosh saxiylik bilan nur sochib, uning ayanchli badanini isitar edi. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiga ag‘darildi. Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi. Bu daryo odamga notanish edi: bu uni ajablantirdi. U notanish daryoning oqimini shoshmasdan, sovuqqonlik bilan to ufqqa qadar kuzatdi-da, daryoning uzoqda yarqirab turgan dengizga quyilayotganini ko‘rdi. Shunday bo‘lsa ham, bu narsa uni sira hayajonlantirmadi. «Qiziq, – deb o‘yladi u. – Ko‘zimga shunday ko‘rinyaptimi yoki miyam aynib qoldimikin?» Dengiz o‘rtasida langar tashlab turgan kemani ko‘rganida bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga yana bir bor ishondi. U bir zumga ko‘zlarini yumib yana ochdi. Qiziq, o‘sha narsalar yana ko‘rindi. Bunga ajablanmasa ham bo‘lardi. Miltig‘ida patron bo‘lmaganidek, mana shu sahroning qoq o‘rtasida dengizning ham, kemaning ham bo‘lishi mumkin emasligini bilardi u.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo‘rsinishmi, yo‘talmi – bilib bo‘lmas edi. G‘oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkinchi yonboshiga ag‘darildi. Yaqinida hech narsa ko‘rinmadi. U sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo‘tal tovushi eshitildi. Yigirma qadamcha narida o‘tkir qirrali ikki toshning orqasidan bir bo‘rining kulrang boshi ko‘rindi. Uning quloqlari boshqa bo‘rilarniki singari tik emas, ko‘zlari xira va qon quyilgan, boshi solingan. Bo‘ri kasal bo‘lsa kerak: u tinmay aksa urar va yo‘talar edi.

«Hech bo‘lmaganda bunisi haqiqatdir» deb o‘yladi u va sarob pardasi bilan qoplanmagan, haqiqiy dunyoni ko‘rish uchun boshqa yonboshiga ag‘darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, kema ham aniq ko‘zga chalinardi. Ehtimol, bu rostdan ham haqiqatdir. U ko‘zlarini yumib o‘ylay boshladi. Pirovardida hamma narsa ayon bo‘ldi. U shimoli-sharqqa qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib, Kappirmayn daryosi vodiysiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan shu daryo Kappirmayn daryosining xuddi o‘zginasi. Yaltirab turgan dengiz Shimoliy Muz dengizi. Bu kema kit ovchilarining kemasi bo‘lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomonga ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko‘rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko‘rgan Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasini esladi-yu, shunda bor gap ravshan va tushunarli bo‘lib qoldi.

U yerga o‘tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqida o‘ylab ketdi. Oyoqlarini o‘rab bog‘lagan odeyal parchalari titilib ketganidan oyoqlari shilinib qip-qizil go‘sht bo‘lib qolgandi. Eng so‘nggi odeyalni ham ishlatib bo‘lgan. Miltiq bilan pichoq yo‘qolgan. Qalpog‘i ham tushib qolibdi, qalpoq bilan birga astariga yashirilgan gugurt ham yo‘qolgandi, lekin qog‘ozga o‘rab, hamyoniga yashirib qo‘ygan gugurt hali ham turibdi. U soatiga qaradi, soati yurib turar va o‘n birni ko‘rsatardi. Soatni burab turgan bo‘lsa kerak.

U xotirjam, aqli joyida edi. Juda ham holdan toyganiga qaramay, og‘riqni sezmas, ovqat yegisi ham kelmasdi. Ovqat haqida o‘ylagisi ham kelmasdi. U nima qilmasin, hammasini idrok hukmi bilan qilardi. U shimining pochasidan to tizzasi-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

gacha yirtib oldi-da, to‘pig‘ini o‘rab bog‘ladi. Chelakchasini nima uchundir tashlamagan edi. Kemaga qarab yo‘l solishdan avval suv qaynatib ichish kerak – bu safarning juda og‘ir bo‘lishini u oldindan bilardi.

U juda sekin qimirlar, shol odamdek qaltirar edi. Quruq xashak yig‘moqchi bo‘ldi-yu, lekin o‘rnidan turolmadi. Bir necha marta o‘rnidan turishga urinib ko‘rdi, bo‘lmagach, emaklab ketdi. Bir gal hatto kasal bo‘rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo‘ri istar-istamas o‘zini chetga oldi va zo‘rg‘a tilini qimirlatib, tumshug‘ini yaladi. Uning tili sog‘lom bo‘rinikidek qizil emas, kulrang, sarg‘ish bo‘lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam qaynagan suvdan ichdi-da, deyarli kuch-quvvatdan qolgan bo‘lsa ham, o‘rnidan turishga, hatto yurishga ham madori yetishini his qildi. Daqiqa sayin to‘xtab dam olardi, bazo‘r qadam tashlar, bo‘ri ham uning orqasida xuddi shu yo‘sinda sudralib borardi.

Qorong‘i tushib, yarqirab turgan dengiz zulmat ichiga g‘arq bo‘lganida, u oraliqdagi masofa ko‘p emas to‘rt milga qisqarganini angladi.

Tun bo‘yi kasal bo‘rining yo‘talishi va ba’zan bug‘u bolalarining ma’rashi eshitilib turdi. Atrofda hayot qaynamoqda, u kuch-quvvatga to‘la, sog‘lom hayot. U esa orqasidan kasal bo‘ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o‘ladi degan umidda ekanligini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo‘ri unga g‘amgin va ochko‘zlik bilan tikilib turibdi. Bo‘ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan it kabi boshini quyi solib turardi. Bo‘ri sovuq shamolda qaltirar, odam xirillagan tovush bilan unga so‘z qotganida, tishini ko‘rsatib irillar edi.

Ufqdan yorqin quyosh ko‘tarildi. Odam choshgohga qadar yiqilib-surilib yaltiroq dengizda turgan kemaga qarab yurdi. Tushdan keyin u bir izga duch keldi. Bu boshqa bir odamning izi bo‘lib, u odamning emaklab yurgani bilinib turardi. «Ehtimol, bu Billning izidir» deb o‘yladi u xotirjam. Unga baribir edi. To‘g‘risi, u hech narsani sezmay, hech narsadan hayajonlanmay qo‘ygan edi. U hatto og‘riqni ham sezmasdi. Qorin bilan asablari go‘yo mudrab qolgandek. Lekin hali so‘nmagan hayot uchquni uni olg‘a boshlardi. U juda char-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

chagan, lekin sira o‘lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo‘lib kasal bo‘rini kuzatar edi.

U o‘rmalab o‘tgan boshqa odamning izidan borardi. Ko‘p o‘tmay, o‘zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho‘l chimliq ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo‘rining iziga ko‘zi tushdi. Yerda xuddi o‘zinikiga o‘xshash, o‘tkir tishlar tortqilab yirtgan bug‘u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og‘ir yukni ko‘tarishga madori kelmasa ham, kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko‘tarib oldi. Bill oltinlarini so‘nggi daqiqalarga qadar tashlamagan. Ha-ha-ha! U hali Billning ustidan masxara qilib kuladi, tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdagi kemaga olib ketadi. U xuddi qarg‘aning qag‘illashiga o‘xshagan bo‘g‘iq ovozda dahshatli qilib kulardi. Kasal bo‘ri ham unga jo‘r bo‘ilb xirillagan tovush bilan uvilladi. Odam darhol jim bo‘ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bo‘lsa, shu toza kemirilgan, qizg‘ish suyaklar Billniki bo‘lsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya!

U yuzini o‘girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini olmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. «Agar mening o‘rnimda Bill bo‘lganida shunday qilgan bo‘lardi» deb o‘ylab qo‘ydi va kalovlanib yo‘lga tushdi.

U kichkina bir ko‘lga duch keldi. Baliq yo‘qmikan deb chuqurchaga engashib qaradi-yu, xuddi ilon chaqqandek seskanib o‘zini orqaga tashladi. Suvda u o‘z aksini ko‘rib qoldi. Basharasi shu qadar qo‘rqinchli ediki, bu diydasi qotib qolgan odamning ko‘ngliga vahima soldi. Ko‘lchada uchta baliq suzib yurardi, lekin ko‘lcha kattagina bo‘lib, suvni quritishga uning qurbi yetmasdi. U baliqlarni chelakcha bilan tutishga urinib ko‘rdi, keyin bu fikrdan qaytdi. O‘lgundek charchaganidan suvga yiqilib, cho‘kib ketaman deb qo‘rqdi. Cho‘kib ketishidan qo‘rqib, u qumloq sohilda yog‘och xodalar ko‘p bo‘lsa ham, sol yasab, daryodan suzib ketishga jur’at qilolmadi. O‘sha kuni u kemagacha bo‘lgan masofani uch milga qisqartdi. Ertasiga esa ikki mil yo‘l bosdi. Endi u xuddi Billga o‘xshab o‘rmalab borardi. Beshinchi kun kechqurun kemaga yetish uchun yana yetti mil yo‘l qolgan edi; endi bir kunda bir mil

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

yo‘l bosishga ham madori qolmadi. Erta kuzning iliq kunlari hali tugamagan edi, u esa goh o‘rmalar, goh hushidan ketib yiqilardi, kasal bo‘ri esa yo‘talib, aksa urib, uning orqasidan qolmay sudralib borardi. Odamning tizzalari qip-qizil go‘sht bo‘lib ketgan, tovonlari bundan ham badtar edi. Ko‘ylagidan yirtib olib tizza va tovonlarini o‘rab bog‘lagan bo‘lsa ham, orqasidan chimliq va toshlar ustiga qonli iz qoldirib borardi. U bir marta orqasiga qayrilib qarab, bo‘rining ochko‘zlik bilan qonli izlarini yalayotganini ko‘rib qoldi. Agar bo‘rini bir yoqliq qilmasa, holi nima kechishini juda yaxshi bilardi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasidan sudralayotgan kasal bo‘ri – ikkisi ham chala o‘lik holda bir-birini poylashib, sahrodan sudralib bordilar.

Bo‘ri sog‘ bo‘lganida, odam bunchalik qarshilik ko‘rsatib o‘tirmagan bo‘lardi, lekin mana shu badburush, deyarli o‘laksa bo‘lib qolgan razil maxluqning qorniga tushishini o‘ylasa, ko‘ngli aynir edi. U yana alahlay boshladi, yana ko‘ziga allanimalar ko‘rina boshladi, bu safar uning o‘ziga kelishi ancha qiyin bo‘ldi.

Bir marta xuddi qulog‘i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib, hushiga keldi. Tepasida turgan bo‘ri o‘zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, nimjonligidan yiqilib

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

tushdi. Bu juda kulgili edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo‘rqmadi ham. U endi qo‘rqish nimaligini ham sezmay qolgan edi. Uning ongi bir daqiqaga ravshanlashdi, u o‘ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko‘pi bilan to‘rt mil yo‘l qolgandi. U tuman bosgan ko‘zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko‘rdi, yarqirab turgan dengizni kesib o‘tayotgan oq yelkanli qayiqchani ham ko‘rdi. Lekin bu to‘rt millik masofani bosib o‘tishga holi qolmagan edi. Odam buni bilardi, shuning uchun ham bezovtalanmadi. Yarim mil ham yo‘l bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo‘lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlardan keyin o‘lib ketish bema’nilik bo‘lardi. Taqdir undan juda ko‘p narsa talab qilardi. Joni halqumiga tiqilganda ham u o‘limga bo‘ysunishni istamasdi. Ehtimol, bu aqlsizlik edi, lekin u o‘lim changaliga tushib qolgan bo‘lsa ham, uning changalidan qutulib chiqish uchun jon-jahdi bilan kurashaverdi.

U ko‘zlarini yumib, bor kuchini to‘pladi. Xuddi to‘lqin singari uning vujudini bosib olayotgan alahsirashga yon bosmaslik uchun o‘zini tetik tutishga urinardi. Bu to‘lqin o‘qtin-o‘qtin ko‘tarilib, uning ongini xiralashtirardi. Ba’zan u chorasiz tipirchilab, o‘zini bilmay qolar, keyin yana bir amallab hushini yig‘ar edi.

U qimirlamasdi, chalqancha yotganicha kasal bo‘rining xirillagan tovushi tobora yaqinroq eshitilayotganiga quloq soldi. Bo‘rining nafasi juda yaqindan eshitila boshladi-yu, qurg‘ab qolgan til xuddi shildiroq qog‘oz singari uning yuzini timdaladi. Qo‘llari yuqoriga cho‘zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo‘q.

Bo‘ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrliroq edi. U hushdan ketib qolmaslik uchun urinib va bo‘rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo‘ri uni yemoqchi edi, qo‘ldan kelsa, odam ham bo‘rini yemoqchi edi. Vaqti-vaqti bilan u hushidan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko‘rar edi; lekin tushida ham, o‘ngida ham mana hozir bo‘ri tili bilan meni yalaydi deb kutib yotardi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Nafas tovushini eshitmadi, lekin bo‘ri uning qo‘lini yalayotganligini sezib o‘ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo‘ri uning qo‘lini tishlari orasiga olib kuchining boricha qisdi, keyin u shuncha vaqt kutgan g‘animatiga tishlarini qattiqroq botiraverdi. Lekin odam ham shu paytni sabrsizlik bilan kutgandi, uning tishlangan qo‘llari bo‘rining jag‘ini qisdi. Bo‘ri bazo‘r o‘zini himoya qilardi, odam bir qo‘li bilan uning jag‘ini qisardi, ikkinchi qo‘lini ham uzatib bo‘rining tomog‘idan bo‘g‘a boshladi. Besh daqiqadan keyin odam o‘zining butun og‘irligi bilan bo‘rini bosib tushdi. Bo‘rini bo‘g‘ib o‘ldirish uchun uning kuchi yetmas, shunda odam tishi bilan bo‘rining tomog‘iga yopishdi, uning og‘zi yungga to‘ldi. Yarim soat o‘tdi, odam o‘z tomog‘iga issiq qon quyilayotganini sezdi. Xuddi uning og‘ziga eritilgan qo‘rg‘oshin quyilayotgandek, uni yutish bir azob edi. Lekin u o‘zini chidashga majbur qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag‘darildi-da, uyquga ketdi.

Kit ovlovchi «Bedford» kemasida ilmiy ekspeditsiya a’zolari bor edi. Ular kema palubasida turib, qirg‘oqda g‘alati bir maxluqni ko‘rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo‘rg‘a o‘rmalab dengiz tomonga kelardi. Olimlar buning nima ekanligini bilolmadilar, tabiatshunos bo‘lganliklari uchun qayiqchaga o‘tirib qirg‘oqqa suzib ketdilar. Ular tirik bir maxluqni ko‘rdilar, lekin uni odam deb bo‘ladimi?! U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqasiga ham qaytmasdi, buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qadamdan yo‘l bosardi.

Uch hafta o‘tgandan keyin u «Bedford» kemasida karavotda yotgan holda ko‘z yoshlarini oqizib, o‘zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib berdi. U onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko‘milgan uyi haqida poyma-poy gapirib berdi.

Bir necha kun o‘tganidan keyin u olimlar va kapitan bilan birga kayut-kampaniyada o‘tirar edi. U ovqatning mo‘lligidan quvonar, boshqalarning og‘ziga tushib yo‘q bo‘lib ketayotgan har bir luqma uni zo‘r tashvishga solardi. Uning aqli joyida, lekin stol atrofida o‘tirgan odamlarga nafrat bilan boqardi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ovqatning tamom bo‘lib qolishidan qo‘rqib, bezovta bo‘lardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zaxirasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasalli bersalar ham ishonmas, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani ovqat omboriga tez-tez tushib turardi.

Kemadagilar uning o‘nglanayotganini sezib qoldilar. U kun sayin semiraverdi. Olimlar bosh chayqab turli taxminlar qilishardi. Unga ovqatni kamroq bera boshladilar, lekin shunda ham semirib, qorin sola boshladi.

Matroslar bunga kulishardi, ular gap nimada ekanligini bilishardi. Olimlar uning orqasidan poylab, sirni bilib oldilar. Ertalab nonushtadan keyin u bakka chiqar va matroslarga xuddi tilanchiday qo‘l cho‘zardi. Matros kulib, unga suxari berardi. U ochko‘zlik bilan suxarini olar va xuddi oltinga ko‘zi tushgan xasisdek, nonni qo‘ltig‘iga urardi. Boshqa matroslar ham yo‘lini topib, uni quruq qo‘ymasdi.

Olimlar indamay uni o‘z holiga qo‘yib qo‘ydilar. Ular o‘ziga bildirmay uning karavotini tekshirdilar. Karavotning osti suxari bilan to‘la edi. To‘shakning ichiga ham suxari to‘ldirgan ekan. Har bir burchakka suxari yashirilgan. Lekin uning miyasi joyida edi. U faqat, yana och qolguday bo‘lsam deb shuning chorasini ko‘rardi, xolos. Olimlar bu kasallik tez o‘tib ketadi degan fikrda edilar. Haqiqatan ham, «Bedford» kemasi San-Fransisko gavaniga langar tashlamasidanoq bu kasal o‘tib ketdi.

«HAYOTGA MUHABBAT» HIKOYASI HAQIDA

Jek London «Hayotga muhabbat» hikoyasida insonni tabiat kuchlari bilan yonma-yon, unga basma-bas tarzda tasvirlaydi. Insonning kurashuvchanligi va umidiga urg‘u beradi. Hikoya qahramonining hayotga bo‘lgan muhabbati o‘lim ustidan g‘alaba qozonadi.

Hikoya o‘ziga xos syujet qurilishiga ega. Boshida yo‘lga chiqqan, aniqrog‘i borgan yo‘lidan iziga qaytayotgan ikki yo‘lovchining holati tavsirlanadi. Ulardan biri – Bill oyog‘i cho‘loqlanib qolgan sherigini tashlab ketadi. Shundan keyin

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

bepoyon kengliklarda bittagina qahramonning o‘zi qoladi. Yo‘lda boshidan kechirgan mashaqqatlari, ochlikdan sillasi qurib, tabiatning turli ne’matlaridan tatib ko‘rishlari, atrofidagi hayvon va qushlarni tutib yeyishga urinish va boshqalari juda ta’sirli va aniq tasvirlanadi.

Ortda qolgan yo‘lovchini Jek London negadir nomlamaydi. Oddiygina qilib «odam» deb qo‘ya qoladi. Bu bilan adib nima demoqchi bo‘lgan? Balki muallif mana shu birgina obraz misolida butun insoniyatning matonatini, sabr-bardoshini aks ettirib bermoqchi ham bo‘lgandir?

Odatda, Jek London asarlarida oltin izlovchilar, oltinni qo‘lga kiritish yo‘lida turli mashaqqat va sarguzashtlarga duch kelgan insonlar taqdiridan hikoya qiladi.

«Hayotga muhabbat» hikoyasining ikki qahramoni ham kerak manzilga yetib borib, xaltalariga keraklicha – o‘zlari ko‘tarishga kuchi yetguncha oltin solib olgan ikki kimsa. Shu ikki inson oltin bilan sinaladi.

Hikoya mazmunida inson uchun bu olamda oltindan ko‘ra muhimroq narsa, ya’ni tirik qolish, halovatda yashash va o‘z maqsadiga erishish yo‘lida tinimsiz intilish muhimligiga doir fikrlar mujassam topgan.

O‘zi istamagan holda Billdan ajralib qolgan yo‘lovchi olib kelayotgan zil-zambildek oltinlardan avval yarmini, keyingi safar hammasini tashlab yuboradi. Kimsasiz joyda yeyishga bir burda noni, yordamga cho‘ziladigan birorta qo‘l bo‘lmagan odam uchun oltinning aslo qadr-qiymati yo‘q. Och qolgan va hayot uchun kurashayotgan kimsaga oltin foyda bermaydi.

Yo‘lovchi bir manzilga yetganida uni tashlab ketgan sherigi Billning oltin solingan xaltasi va bo‘rilar ship-shiydam qilib tozalagan suyaklariga duch keladi. Hamrohini yolg‘iz tashlab ketgan, oltinga muhabbat qo‘ygan odamni qanday ayanchli oqibatlar kutib turganini kitobxon ko‘rib, to‘g‘rilik, sadoqat, insof kabi bebaho insoniy tuyg‘ular ustida mulohaza yuritadi.

Yozuvchi tiriklik qadriga urg‘u berish uchun «o‘lim changaliga tushib qolgan» qahramonini turli to‘siqlarga ro‘baro‘ qiladi; kimsasiz sahro, suv, ko‘lmak, ayiq, bo‘ri – bular yo‘lovchiga hayotga muhabbatini oshirish uchun vosita vazi-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

fasini bajaradi. Yo‘lovchi yo‘lida davom etib, to‘siqlarga duch kelganida siz ham o‘zingizni go‘yoki u bilan birga his etasiz. Ba’zida yonginangizdan bug‘ular yugurib o‘tganida, noiloj o‘kinasiz, gohida esa bahaybat targ‘il ayiq qarshisida turgandek kalovlanasiz; yo‘lovchining taxir, nordon botqoq mevalarini yeb afti burishgani ham beixtiyor sizga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa jahon adabiyotining betakror adibi Jek Londonning o‘ziga xos qalam tebratish uslubidan darak beradi.

«U juda charchagan, lekin sira o‘lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tanga baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo‘lib kasal bo‘rini kuzatar edi». U o‘z yo‘lida davom etar ekan, butun o‘y-xayoli tirik qolish bilan band. Hayoti so‘nib borayotgan tinimsiz aksa urib, yo‘talgan kasal bo‘ri odamga ergashib yuribdi. Kasal bo‘rining quvvati ketgan, hujum qilishga madori yo‘q. Bo‘ri odamning harakatsiz qolishini, o‘limini kutadi. Adib o‘quvchiga o‘lim va hayot chegarasida yurgan odam bilan bo‘rini qiyoslashga imkon beradi. Odam bo‘rini, bo‘ri esa odamni yeyishga tayyor. Biroq har ikkovida ham mador yo‘q. Odamda esa yashashga umid bor. Shuning uchun uncha uzoq bo‘lmagan masofadan ko‘ziga ko‘rinib turgan dengiz va undagi kemaga yetib olish uchun harakat qiladi. Bir mahal ko‘zi ilinganda och, kasal bo‘ri tishlarini uning qo‘liga botira boshlaydi. Odam bo‘rining jag‘iga yopishadi, kuchi yetmasligini bilgach, u tishi bilan bo‘rining tomog‘iga yopishadi. Odam g‘olib keladi. Hikoya tugashida «g‘alati maxluq»ni kit ovlovchi ilmiy ekspeditsiya a’zolari o‘limdan qutqargani bayon etiladi.

Siz hikoya qahramonining o‘limdan qutulgani uchun mamnun bo‘lasiz; kemadagilarga o‘z boshidan o‘tganlarini so‘zlab bergan, pokiza taomdek ne’mat qadrini bilgan bu kimsaning kelgusida saodatli hayot kechirishiga ishonasiz. Lek Londonning mahorati shundaki, hikoyadagi harakatlanayotgan qahramon tegrasidagi har bir narsa-predmatni, jonli va jonsiz narsalarni, yemish uchun turli o‘simlik, mayda baliqchalar va hasharotlarni tatib ko‘rayotgan odam holini juda real-aniq tasvirlaydi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Har kim o‘zini ushbu hikoya qahramoni o‘rniga qo‘yib ko‘rishi tabiiy. Shu ma’noda Jek Londonning mazkur asari o‘quvchida tinch-xotirjam hayot to‘g‘risida o‘ylantiradi; ko‘nglida ezgu hislar kuchayishiga yordam beradi.

Aziz o‘quvchi, bu hikoya sizda katta taassurot uyg‘otishi tabiiy. Hikoya sizda Alloh bergan ne’matlarga nisbatan shukronalik, do‘stga sodiqlik va, eng asosiysi, hayotga muhabbat tuyg‘ularini orttirsa, yozuvchi o‘z muxlislari oldidagi adabiy vazifasini tugal bajargan bo‘ladi, albatta.

Savol va topshiriqlar

1. Matndan inson va tabiat munosabati tasvirlangan epizodlarni qayta o‘qing, ularga munosabat bildiring.
2. Bill hamrohini qachon, qayerda va nima uchun tashlab ketdi? Matndan aynan o‘sha joyni topib o‘qing va Billga baho bering?
3. Yo‘lovchi nima sababdan xaltasidagi oltinlardan voz kechdi?
4. Hikoya qahramoni yo‘l bo‘yi qorin to‘ydirish g‘amida qanday mashaqqatlarni boshdan kechiradi?
5. Adib o‘z hikoyasiga kasal bo‘ri obrazini nima sababdan kiritgan?
6. Kasal bo‘ri bilan yo‘lovchi holatini o‘zaro qiyoslab, fikr bildiring.
7. Hikoya qahramoni qanday qilib tirik qoldi?
8. Ushbu asarning tarbiyaviy qiymatini tushuntirib bering.
9. Jek London asarlari asosida suratga olingan filmlarni ko‘rganmisiz?
10. Shu hikoya mazmuniga yaqin film tomosha qilgan bo‘lsangiz, badiiy asar va filmga xos xususiyatlarni qiyoslang.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

ALFONS DODE
(1840–1897)



Mashhur adib Alfons Dode o‘zining roman va hikoyalari bilan fransuz adabiyoti tarixida yorqin iz qoldirdi. U 1840-yil 13-mayda Fransiyaning Nim shahrida tug‘ilgan. Yoshlik yillari maktablarda muallim bo‘lib ishlaydi. O‘n yetti yoshida Ernest ismli akasi bilan Parijga ko‘chib borishadi. Ularning maqsadi jurnalistika bilan mashg‘ul bo‘lish va shu orqali tirikchilik o‘tkazish bo‘ladi. Yoshi yigirmaga yetmasidanoq bir qancha jurnallar bilan muxbir hamda teatr tanqidchisi sifatida hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. «Tegirmonimdan xatlar» (1869) deb nomlangan birinchi kitobida hikoyalari jamlangan edi. Bu hikoyalarda oddiy insonlar hayoti tabiat bilan uyg‘unlikda, shuningdek, ularning halol mehnat bilan turmush kechirishlari xalq og‘zaki ijodidagi hikoyat va ertaklarga o‘xshash uslubda tasvirlanadi.

Yoshlikdagi mashaqqatli yillari to‘g‘risida avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan «Kichkintoy» (1868) nomli roman yozadi. Dastlabki ikki kitobi bilan A. Dode fransuz adabiy muhitida shuhrat topadi. O‘z davrining Gyustav Flober, Emil Zolya, shuningdek, o‘sha yillarda Parijda yashagan rus adibi Ivan Turgenev bilan yaqin munosabatda bo‘ladi. «Tarasonlik Tartaranning sarguzashtlari», «Kichik Fromon va katta Risler», «Roza va Ninetta» kabi bir qancha romanlar yozadi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Adabiyotshunoslar uning ijodidagi ikki qirraga alohida urg‘u berishadi. Birinchisi – yumor, kinoya hamda tasvirdagi aniqlik. Ikkinchisi esa kuzatishlaridagi teranlik hamda adibning voqelikni naturalistik uslubda tasvirlaydigan yozuvchilarga usluban yaqinlashganidir.

A. Dodening XIX asr 80-yillarida yozgan asarlarida psixologik tahlil yetakchilik qiladi.

1867-yilda adib uylanadi. Undan uch farzand dunyoga keladi.

A. Dode 1897-yil 17-dekabrda Parijda vafot etadi.

SO‘NGGI SABOQ[1]

(*Hikoya*)

O‘sha kuni ertalab maktabga juda ham kech qolayotgan edim. Muallimdan tanbeh eshitishimni o‘ylasam yuragim orqaga tortib ketardi. Ustiga-ustak mosye[2] Amel bizdan avvalgi dars mavzusini – sifatdoshlarni so‘ramoqchi edi. Men esa yarimta so‘z ham yodlamaganman. Bir zum xayolimga darsga kirmasdan sayr qilib yurish fikri keldi.

Havo juda ochiq va iliq edi...

O‘rmon chetida sayroqi qorayaloqlarning kuylayotgani, taxta yo‘nish zavodi ortidagi River o‘tlog‘ida nemislarning safda yurish mashg‘ulotlarini bajarayotganliklari eshitilib turardi. Bularning bari meni darsdagi sifatdosh qoidalaridan ko‘ra ko‘proq o‘ziga jalb qildi, lekin men o‘zimni qo‘lga olib, maktabga yugurdim.

Meriya[3] yonidan o‘tayotib, e’lonlar taxtasi oldida to‘planib turgan odamlarga ko‘zim tushdi. So‘nggi ikki yil ichida biz u yerda barcha ko‘ngilsizlikdan xabardor bo‘lar edik: boy berilgan janglar, rekvizitsiyalar, kommendant buyruqlari; o‘ylanib qoldim: «Yana qanday noxushliklar bo‘lishi mumkin?»

Shu payt shogirdi bilan e’lonlarni o‘qib turgan temirchi Vaxter meni chaqirib qoldi:

---

[1] Hikoya «Yoshlik» jurnalining 2015-yildagi 9-sonida nashr qilingan. (Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi).

[2] M o s y e – «janob» ma’nosida.

[3] M e r i y a – shahar boshqarmasi binosi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Shoshma, bolakay, ulgurasan o‘sha maktabingga.

U ustimdan kulyapti deb o‘yladim va halloslagancha mosye Amelning uyi oldidagi gulzor tomonga yugurdim.

Odatda, dars boshida ko‘chaga eshitilarli darajada shovqin ko‘tarilardi. Bolalar quloqlarini qo‘llari bilan yopgancha o‘tilgan mavzularni g‘o‘ng‘illab takrorlashar, partani do‘mbira qilib chalishar, muallimimiz esa chizg‘ichi bilan tinchlantirishga urinardi:

– Sekinroq, sekinroq, bolalar!

Men mana shu shovqin-suron ostida joyimga sezdirmasdan o‘tirishni mo‘ljallagandim, ammo shu bugun yakshanba tongidek jimjit edi.

Ochiq oynadan o‘rtoqlarim allaqachon joy-joylarida o‘tirganini, mosye Amel esa vahimali chizg‘ichini qo‘ltiqlagancha u yoqdan bu yoqqa borib kelayotganini ko‘rdim. Bu jimjitlikda qanday qilib eshikni ochib kirsam ekan? Qo‘rquvdan qanchalik qizarib, qaltirayotganimni tasavvur qilib ko‘ring.

Xavotirim o‘rinsiz ekan, mosye Amel menga muloyim qaradi va erkalab dedi:

– Qani, Frans, o‘g‘lim, kira qol. Biz sensiz darsni boshlamoqchi bo‘lib turgandik.

Men stulni hatlab o‘tib o‘z joyimni egalladim. Shundagina, qo‘rquvim bosilganidan keyin, muallimning egnidagi dabdabali yashil syurtuk[1], burama galstuk va boshidagi qora ipak taxyani ko‘rdim. U faqat inspektor tashrif buyurganida yoki mukofotlar taqdim etilayotganida shunday kiyinardi. Butun sinf ko‘zimga ajib va dabdabali bo‘lib ko‘rindi. Ammo meni boshqa holat hayron qoldirdi: ko‘pincha bo‘sh turadigan orqa o‘rindiqlarda qo‘lida uchburchak musiqa asbobi bilan qariya Xauzer, uning yonida sobiq mer, pochtachi va boshqa qishloq kishilari o‘tirardi. Ularning yuzi g‘amgin, Xauzerning tizzasida chetlari titilgan eski alifbe, uning ustida esa katta ko‘zoynak turardi.

Mosye Amel avvalgiday muloyim, lekin jiddiy ohangda hammamizga murojaat qildi:

[1] Syurtuk – uzunligi tizzagacha keladigan ustki kiyim.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

– Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor dars o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi. Bugun fransuz tilidan oxirgi mashg‘ulotimiz. Iltimos, e’tiborliroq bo‘linglar!

Mana shu ikki og‘izgina so‘z meni larzaga soldi. Ax, razillar! Meriya devoriga ilingan e’lon nima haqida ekanligiga endi tushundim.

So‘nggi fransuz tili darsi!..

Men bo‘lsam zo‘rg‘a yoza olardim! Demak, endi yozishni yaxshi o‘rganolmayman! Butun umr savodsiz bo‘lib qolaman! Darsga kirish o‘rniga qush uyasini axtarib yurganim, muzlagan Saara ko‘li ustida sirpanchiq uchib yo‘qotgan vaqtimga shunchalar achinib ketdimki! Biroz oldin zerikarli bo‘lgan kitoblar endi men uchun qadrdon do‘stlardek bo‘lib tuyuldi. Ulardan ajralish men uchun og‘ir edi. Mosye Amel-chi?! Xayolimda uni boshqa ko‘rolmaydigandek edim. Bir lahzada uning tanbehlari, chizg‘ich bilan jazolashlarini ham unutdim.

Bechora! U oxirgi dars sharafiga o‘zining bayramona liboslarini kiygandi. Orqa o‘rindiqlardagi qishloq odamlarining nima uchun bu yerda o‘tirishganlarini endi tushundim. Ular tez-tez bu yerga – maktabga kelib turmaganliklaridan afsusda edilar. Ularning bari muallimning qirq yillik halol xizmati uchun minnatdorlik bildirayotganga o‘xshab ko‘rinardi.

Ism-familiyam yangraganini eshitib xayolim bo‘lindi. Javob berish navbati meniki edi. Qaniydi, sifatdosh qoidalarini baland ovozda, tutilmasdan, dona-dona qilib gapirib bera olsam. Biroq men hammasini chalkashtirib yubordim, og‘irligimni u oyog‘imdan bu oyog‘imga tashlab, ko‘zimni yerdan uzolmay turaverdim. Mosye Amel menga tikilgancha so‘zlay boshladi:

– Men seni koyimayman, Frans, o‘g‘lim, shundoq ham jazolanganligingni bilsang kerak. Har safar «Qayoqqa ham shoshildim, ertaga yodlayman» deb o‘ylaysan. Oqibati nima bo‘ldi? Biz elzasliklar o‘qishni doimo ortga suramiz – fojiamiz ham ana shunda. Sizlar o‘zingizni fransuz deb bilasiz, vaholanki, o‘z ona tillaringda to‘g‘ri gapirishni ham, yozishni ham eplay olmaysiz. Bunda sening aybing boshqalarnikidan

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

kam emas, Frans, o‘g‘lim. Biz o‘zimizdan o‘pkalashimiz kerak. Ota-onalarimiz o‘qishlarimiz haqida ko‘p ham qayg‘uraverishmaydi. Maktabga jo‘natish o‘rniga qo‘shimcha aqchaga ega bo‘lish maqsadida sizlarni dalaga yoki fabrikaga ishlash uchun yuborishadi. Men o‘zim-chi? Men emasmi sizlarga bilim berish o‘rniga bog‘dagi gullarni parvarishlashni zimmangizga yuklagan? Men emasmi, baliq ovlagim kelib qolganida sizlarni tap tortmay darsdan ozod qilgan?

Shundan so‘ng mosye Amel fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekanligini, bu tilni asrashimiz lozimligini, chunki mustamlaka xalq o‘z ona tili yordamidagina yorug‘likka chiqa olishini uqtirdi... So‘ngra muallim grammatikadan ma’ruza o‘qidi. Darsni yaxshi tushunayotganimdan o‘zim ham hayratda edim. Mosye Amel mavzuni juda ravon tushuntirardi. Avvallari darsni bunchalik diqqat bilan tinglamagandim. Muallimimiz ketish oldidan bor bilimini bizga qoldirmoqchidek edi go‘yo.

Grammatikadan so‘ng yozuvga o‘tdik. Mosye Amel namuna sifatida doskaga chiroyli husnixat bilan quyidagi so‘zlarni yozib qo‘ydi: «Fransiya, Elzas. Fransiya, Elzas».

Sinf suv quygandek jimjit, faqat qog‘oz ustida yugurayotgan qalamning qitirlashigina eshitilardi...

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Maktab tomida kaptarlarning g‘uv-g‘uvlagani qulog‘imga chalindi. O‘ylanib qoldim: «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?»

Ko‘zimni daftardan uzganimda mosye Amelning maktab bilan qayta ko‘risholmaydigandek har bir narsaga sinchiklab qarayotganini ko‘rdim. O‘ylab ko‘ring-a, u qirq yillik umrini shu maktabga baxshida etdi. Eski stul va partalar kirlanib yaltirar, hovlidagi kashtan daraxtlari osmon qadar bo‘y cho‘zgan, ularning tagiga o‘tqazilgan xmel[1] butun derazani to‘sib turardi. Uning uchun bularning hammasi bilan xayrlashish og‘ir edi. Axir, u ertaga bu yerlarni butunlay tark etadi.

Mosye Amel darsni oxirigacha yetkazishga o‘zida kuch topa oldi.

Yozuv-chizuvdan so‘ng tarix darsiga o‘tdik; keyin barchamiz xor bo‘lib harflarni qaytardik: ba, be, bi, bo, bu. Orqa o‘rindiqdagi qariya Xauzer ham ko‘zoynagini taqib, alifboni qo‘lida tutgancha bizga jo‘r bo‘ldi: uning ovozi hayajondan titrab chiqardi; uni eshitib yig‘lashni ham, kulishni ham bilmasdik. O, yo‘q! Bu dars sira ham yodimdan ko‘tarilmaydi...

To‘satdan cherkov soati kun yarim bo‘lganini, ibodatga shoshilish kerakligini eslatgandek bong ura boshladi. Shu onda deraza tagidan mashg‘ulotdan qaytayotgan pruss askarlarining trubalari jarangladi. Mosye Amelning rangi bo‘zdek oqardi va o‘rnidan turdi.

– Do‘stlarim, – dedi u, – do‘stlarim, men, men...

Uning bo‘g‘ziga nimadir tiqilganday bo‘ldi. Shunda u qo‘liga bo‘rni olib, katta harflar bilan kuchining boricha quyidagi so‘zlarni yozdi:

«Yashasin Fransiya!»

Keyin u boshini eggancha, stulga o‘tirib qotib qoldi va qo‘li bilan bizga ishora qildi:

«Endi tamom... Ketinglar!»

[1] Xmel – o‘simlikning bir turi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

«SO‘NGGI SABOQ» HIKOYASI HAQIDA

Fransuz adibining ushbu hikoyasi yosh bola tilidan bayon qilinadi. Uning ismi Frans. Adib Frans nazari bilan kichkinadek tuyulgan milliy-madaniy hodisaga nazar tashlaydi; baho beradi. Ayniqsa, hikoyada fransuz tili muallimi mosye Amelning g‘amginlikka uyg‘un jonkuyarligi va qat’iyati, o‘z ona tili va yurtini yurak-yurakdan sevishi sezilib turadi.

To‘g‘risi, hikoyani tushunish uchun XIX asr Fransiya tarixini, ma’lum bir muddat qaysi mamlakatga qaram bo‘lgani kabi ma’lumotlarni ham bilish lozim. Hikoyada Fransiyaning Elzas va Lotaringiya hududi o‘z vaqtida nemislar tomonidan ishg‘ol qilinganiga ishora bor. Undagi «... nemislarning safda yurish mashg‘ulotlari» degan jumla, shuningdek, muallimning o‘quvchilarga: «Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor dars o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi. Bugun fransuz tilidan oxirgi mashg‘ulotimiz. Iltimos, e’tiborliroq bo‘linglar!» degan murojaati hamda «Maktab tomida kaptarlarning g‘uv-g‘uvlagani qulog‘imga chalindi. O‘ylanib qoldim: «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?» degan e’tiroznomasi ham shundan dalolat beradi.

Hikoyada sinf xonasi, undagi har bir predmet birma-bir aniq tasvirlanadi. Ushbu darsga har kungidan boshqacharoq kiyinib kelgan muallimning ust-boshini batafsil ta’riflaydi. U bamisoli bayramdagidek kiyingan. Bu, tabiiyki, adibning badiiy mahoratini ko‘rsatadi. Ammo fransuz xalqi bu yerda og‘ir musibatni boshidan kechirayotganiga, xuddi o‘z ona tillarini qabrga qo‘yayotgandek bo‘lganiga, ayni paytda sinf xonasida yoshi ancha katta kishilar ham o‘tirganlariga urg‘u beradi.

Hikoyadagi «biz fransuzlar doim o‘qishni orqaga suramiz» degan gap ham har kimni o‘ylantiradi. Hozirgi zamonga xolis baho beradigan bo‘lsak, nafaqat fransuzlar, balki butun dunyo yoshlari ham ko‘pincha yalqovlik bilan o‘qishni, bilim olishni orqaga suradi.

Hurmatli o‘quvchi! Siz ushbu hikoyani o‘qish jarayonida dilingizda bir marotaba bo‘lsa ham «iye, men ham shunday qilgandim, darsga kirishni istamay qish kunlari ko‘cha-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

da sirpanchiq uchgandim, bahor kunlari esa daraxtlarga tirmashardim» kabi o‘ylar kechgan bo‘lishi mumkin. To‘g‘risi, o‘tib borayotgan har bir daqiqa bir tomchi suvga o‘xshaydi, u yerga tushishi bilan singib yo‘qoladi. Uni qaytarib bo‘lmaydi. Guvohi bo‘lganingizdek, hikoya qahramoni Frans ham vaqtini behuda o‘tkazib, so‘nggi fransuz tili darsida o‘z qilmishlaridan pushaymon bo‘lib o‘tiribdi.

Aziz o‘quvchi! Agar bu hikoyani jon-u dilingiz bilan berilib, hikoyadagi qahramonlar holatiga tushib o‘qisangiz, ta’sirlanib beixtiyor o‘yga tolishingiz tabiiy. Muallimga ham, hikoya qahramoni Fransga ham hamdard bo‘lgingiz keladi.

Hikoyadagi bayonga ko‘ra, mosye Amel o‘z mashg‘ulotini yuksak bir pafosda, dars o‘quvchilari va boshqa tinglovchilar eslab yuradigan bo‘lishini, shu bilan birga ular tasavvuriga butun umr «Yashasin Fransiya» degan yozuv muhrlanib qolishini istaydi. Muallimning «fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekani», uni asrash lozimligi, «chunki mustamlaka xalq o‘z ona tili yordamidagina yorug‘likka chiqa olishi» to‘g‘risidagi fikrlari bevosita o‘zbek tilining yaqin o‘tmishdagi taqdiriga ham taalluqli, albatta.

Fransuz adibi Alfons Dode har bir millat uchun beqiyos o‘rin tutadigan milliy til taqdiri to‘g‘risida ana shunday ta’sirli hikoya yozgan.

Savol va topshiriqlar

1. Alfons Dode hayoti va ijodi to‘g‘risida so‘zlang.
2. Hikoyada tasvirlangan davrga munosabat bildiring?
3. Mosye Amelga tavsif bering.
4. Frans nima uchun so‘nggi saboqda muallimning barcha fikr-mulohazalarini yaxshi tushuna boshladi?
5. Fransning «Hali ularni ham nemischa kuylashga majburlash kerakdir?» degan gapini izohlab bering.
6. Hikoya voqelarini o‘zbek tilining yaqin o‘tmishdagi taqdiri bilan qaysidir jihatdan bog‘lash mumkinmi?
7. «Ona tilim, sen borsanki...» mavzusida ijodiy matn yarating.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

XULOSA

Muhtaram o‘quvchi! Xayrlashadigan pallamiz yaqinlashib qoldi. Mana bir yil davomida adabiyot – so‘z san’atining nodir namunalaridan bahra oldingiz. Darslikda berilgan mavzularni pishiq va puxta o‘qib o‘zlashtirgan, ayrim she’rlarni chin dildan yod olgan bo‘lsangiz, albatta, sizga tasanno aytamiz.

Umrboqiy, go‘zal badiiy asarlar sizga kelgusi hayotingiz uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Odamlar bilan munosabatingizni yaxshilashga, ular bilan badiiy asarlarni o‘qib uqqan, ma’nan yuksak darajadagi bir inson sifatida muomala qilishingizga yordam berishi tabiiy.

Zero, siz o‘qib o‘rgangan mumtoz adabiyot tarixi va zamonaviy adabiyot namunalari, xalq og‘zaki ijodi va dunyo adabiyoti namunalari mazmuni har bir o‘quvchini yuksak ma’naviyatli inson sifatida tarbiyalashga qaratilgandir. Badiiy asarni o‘qish malakasiga ega ma’naviyati baland inson o‘zining kelgusi hayot yo‘lini kitobsiz tasavvur qilmaydi. Har qanday sohada yetuk mutaxassis bo‘lib yetishmoq uchun, albatta, o‘qish kerak. O‘qish tafakkurni o‘tkirlashtiradi. Oybek «Kitob – tafakkur qanotidir» deb aytganki, kitob vositasida inson tafakkuri parvoz qiladi. Ayniqsa, badiiy asarlar o‘quvchini Yer yuzining turli mamlakatlarigagina emas, balki koinotning boshqa sayyoralariga han sayohat qildirishi mumkin.

Kitob – bu insoniyat tomonidan bunyod qilingan, kashf etilgan bebaho qadriyat, tuganmas xazina. Bu xazinadan ma’naviy ozuqa olinadi, biroq boylik aslo tugamaydi. O‘qiganlar bilan o‘qimaganlarni, oqillar bilan johillarni hech qachon tenglashtirib bo‘lmaydi. Shu jihatdan kitob odamlarni o‘zaro farqlashga yordam beradi. Baland va hashamatli binolarni mohir ustalar quradi; tirik odamlar yashnatadi. Ayni damda bunday uylarga olimlar, oqillar, donishmandlar va ularning kitoblari nur olib kiradi. Ilmdan bebahra ko‘ngil – ojiz, ki-

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

tobsiz uy – qorong‘i. Inson vujudini ruhidan ajratish mumkin emas. Ruhsiz tanada jondan asar yo‘q. Shunga o‘xshab pokiza jamiyatni, fozil odamlar muhitini yaxshi va foydali kitobsiz, kitobxon va kutubxonasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ming yillik ma’naviy javohirlar jamlangan kutubxonalar har qanday jamiyatning ma’naviy ko‘rki sanaladi. Yaxshi kitob – ma’nilar maxzani. Zotan, dunyodagi turli tilli minglab, millionlab odamlar go‘zal va boqiy kitoblar vositasida bir tilda so‘zlashadi. Umrboqiy kitoblar o‘z muallifini, ayni choqda, o‘zi mansub millatni dunyoga tanitadi. Kitoblar turli xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy, madaniy-ma’rifiy aloqalarni kuchaytiradi. Ma’rifattalab o‘quvchilarning dillarini, ko‘ngillarini o‘zaro mustahkam bog‘laydi. Yaxshi kitob – yolg‘iz odamga eng ishonchli hamroh, beminnat do‘st; nasihatga zarurati bo‘lgan odamga eng dono maslahatgo‘y...

O‘qish qadrini baland bilgan olimlardan biri kitoblar dunyosini ummonga o‘xshatadi. Bu «ummon» bag‘riga sho‘ng‘ib, dur-u javohirlar yig‘ish, o‘ziga munosib yo‘l topish, chin dildan bahramandlik baxtiga erishish, tabiiyki, odamning pokiza didiga va kitobxonlik madaniyatiga bog‘liq. Aslida, umr bo‘yi mutolaa qilganda ham aniq bir soha yo‘nalishidagi kitoblarni o‘qib tugatish qiyin bo‘ladi. Lekin madaniyatli kitobxon vaqtni g‘animat bilib, o‘z milliy va jahon adabiyotining go‘zal namunalarini, shoh asarlarni, albatta, tanlab o‘qiydi. To‘g‘risi, bugungi shiddatli zamonda turli saviyada bosilayotgan ilmiy-nazariy, tarixiy-badiiy kitoblar ana shunday tanlash ehtiyojini taqozo etadi. Ushbu darslik kitobi sizga shunday madaniyatdan ham saboq bergan bo‘lsa ajab emas.

Kelgusi o‘quv yilida yana diydor ko‘rishguncha xayr!

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

MUNDARIJA

Yangi o‘zbek adabiyoti

Mahmudxo‘ja Behbudiy 3
Padarkush 4
«Padarkush» dramasi haqida 18
Abdulla Qodiriy 23
O‘tkan kunlar 26
«O‘tkan kunlar» romanidan olingan boblar haqida 65
Hamid Olimjon 71
O‘rik gullaganda 73
«O‘rik gullaganda» she’ri haqida 74
Chimyon esdaliklari 76
«Chimyon esdaliklari» she’ri haqida 78
G‘azal 79
Shoirning «G‘azal»i haqida 80
Said Ahmad 82
Qorako‘z majnun 83
«Qorako‘z majnun» hikoyasi haqida 99
Abdulla Oripov 103
Ko‘rgan-bilganlarim 103
«Munojot»ni tinglab 106
«Munojot»ni tinglab» she’ri haqida 106
Yurtim shamoli 107
«Yurtim shamoli» she’ri haqida 108
Birinchi muhabbatim 109
«Birinchi muhabbatim» she’ri haqida 110
Qo‘riqxona 112
«Qo‘riqxona» she’ri haqida 113
O‘tkir Hoshimov 115
Mashaqqatli safar 115
Ikki eshik orasi 119
«Ikki eshik orasi» romanidan olingan parcha haqida 142

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Jahon adabiyoti

Jek London 146
Hayotga muhabbat 147
«Hayotga muhabbat» hikoyasi haqida 167
Alfons Dode 171
So‘nggi saboq 172
«So‘nggi saboq» hikoyasi haqida 177

Xulosa 179

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

O‘quv nashri

Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova

ADABIYOT

O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va
o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining
o‘quvchilari uchun darslik-majmua

Birinchi nashr

O‘zbek tilida

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent–2017

Tahririyat mudiri *Anvar Zulfiqorov*
Muharrir *Jahongir Qo‘nishev*
Badiiy muharrir *Asqar Yoqubjonov*
Musahhihlar: *Lola Fattoyeva*
Laylo Hasanova
Sahifalovchi *Akbar Qo‘nishev*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

Bosishga ruxsat etildi 14.09.2017. Bichimi 60 × 90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘oziga bosildi. «Times New Roman» garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 13,45. Nashr hisob-tabog‘i 12,00.
Adadi 428 121 nusxa. Buyurtma № 17-589.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE

Все учебники Узбекистана на сайте UZEDU.ONLINE

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.

*Книга предоставлена исключительно в образовательных целях
UZEDU.ONLINE